

Masaru Ibuka

# Uchgacha ayni vaqtı

Erta tarbiya  
borasida  
76 maslahat

Uchdan  
keyin  
kech - II



0歳からの母親作戦

子どもの心と能力は0歳で決まる


Masaru Ibuka

# Uchgacha ayni vaqtı

Nurmuhammad Nargiza  
Hamidulla qizi tarjimasi

Uchdan  
keyin  
kech - II

Toshkent  
«Akademnashr»  
2021



**UO'K: 17:37**

**KBK: 87.7**

**I-14**

**I-14 Ibuka, Masaru.**

Uchgacha ayni vaqt [Matn]: ilmiy-ommabop / M. Ibuka.

– Toshkent: Akademnashr, 2021. – 248 b.

ISBN 978-9943-6502-1-3

UO'K: 17:37

KBK: 87.7

*Farzand chaqaloqligidan boshlab ulg'aygunicha uning tarbiyasida nimalarga kechikmasligimiz kerak, nimalarga kechikib qo'yidik, xatolarni tuzata olamizmi? Masaru Ibuka ko'pincha ota-onalar ilg'amagan, lekin bolaning ongi, ruhiyatida, jismonan va ma'nан shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydigan xatti-harakatlar, hayotdan olingan turfa jihatlarni ko'zguda aks etganday siz-u bizga ko'rsata olgan. Ushbu kitobni o'qib, bunga amin bo'lasiz deb ishonamiz.*

Yapon tiliga qiyoslab tahrir qiluvchi:

Dilnora Madumarova

Kitobni o'zbek tiliga tarjima qilishimni qo'llab-quvvatlagan ota-onam va yaqinlarimga minnatdorlik bildiraman.

**Tarjimon**

ISBN 978-9943-6502-1-3

© Masaru Ibuka, 1979

© Nurmuhammad Nargiza

Hamidulla qizi, 2021

© «Akademnashr»,

«Uchgacha ayni vaqt», 2021

## **Mundarija**

**MUQADDIMA .....** ..... 5

### **BIRINCHI QISM**

Ona o'zgarsa, bola ham o'zgaradi  
«Namuna davri»da ona nima qilishi kerak? ..... 17

### **IKKINCHI QISM**

Go'dak uchun faqat qulay muhitni yaratish..... 85

### **UCHINCHI QISM**

Bolani qiziqish rivojlantiradi: muvaffaqiyatli  
tarbiya motivatsiya yaratishdir ..... 173

## MUQADDIMA

### Men amal qilgan go‘dak ta’limi yo‘llari

Yigirma besh yildan ortiq vaqt mobaynida bolalar erta rivojlanishi masalalari bilan shug‘ullanaman. Men professional pedagog emasman, shuning uchun ham mutaxassis ko‘rishi qiyin narsalarga e’tibor qarata olaman deb o‘ylab tadqiqotimni davom ettirdim.

Yosh bolalar cheksiz imkoniyatlarga ega. Men birinchi marotaba erta rivojlanish nazariyamni 1971-yilda chop etilgan «Uchdan keyin kech» kitobimda taklif qilgan edim. Shundan so‘ng miya to‘g‘risidagi fan va tibbiyot jadal rivojlandi, ular yosh bolalar haqiqatan ham ajoyib qobiliyatlarga egaligini tasdiqlamoqda.

Bu orada men bir nechta kitob yozdim. Har safar yozgan kitoblarimda go‘dak ta’limi davri va mazmu ni haqidagi qarashlarim o‘zgarayotgandek tuyulishi mumkin. Lekin «bolaning shaxsiyati, fe’l-atvori tarbiyasiga bog‘liq», degan nazariyam nafaqat o‘zgar madi, balki unga tobora ishonchim ortib boryapti. Bu boradagi fikrlarimni qo‘lingizdagи kitobdan bilib olsangiz, mamnun bo‘lar edim.

## **«Uchdan keyin kech» kitobida to‘g‘ri yozgan edim**

1971-yilda «Uchdan keyin kech» kitobini nashr ettirdim. Unda insonning xarakteri va qobiliyatlarini nasli bilan belgilanmasligi, balki uch yoshgacha bo‘lgan davrda berilgan tarbiyaga bog‘liq ekanligi haqidagi fikr bildirgan edim. Bu davrda bolaning imkoniyatlari deyarli cheksizligi, bu imkoniyatlarning yuzaga chiqishi tarbiyaga bog‘liqligi turli misollar orqali ko‘rsatilgan edi.

Kitob katta muvaffaqiyatga erishdi, kitobxonlar bor kuchim bilan tushuntirmoqchi bo‘lgan g‘oyanning mohiyatini anglab yetganligi meni quvontirgan alohida jihat bo‘ldi. Ko‘pgina onalar o‘z farzandlari tarbiyasida mening usulimni qanday qo’llayotganligi haqida yozdilar. Ba’zilar yoshlikdagi taassurotlari va farzandlarini qanday ulg‘aytirishganini aytishdi. Ularning hikoyalari mening nazariyamni tasdiqladi.

Ushbu kitobda ana shunday hikoyalardan bir nechasi keltirib o’taman. Mening nazariyamga Yaponiyadan tashqarida ham ijobiy munosabat bildirilgani kaminani mamnun etdi. «Uchdan keyin kech» nomli kitobim dastlab Buyuk Britaniyada,

so‘ngra AQShda «Kindergarten is too late» degan nom ostida tarjima qilinib, nashr etildi. Keyin ko‘pgina tillarga o‘girilib, Italiya, Germaniya, Ispaniya-da chop qilindi. Avvallari Yaponiya bu davlatlardan ta’lim-tarbiya sohasida o‘rnak olardi.

Kitob butun dunyoda olimlar va mutaxassislar-ning ijobiyligi fikrlariga sazovor bo‘ldi. 1979-yilda AQShda Tabiiy fanlar o‘qituvchilari milliy assotsiatsiyasi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bu kitobim dunyoda ko‘pchilikka manzur bo‘layotganligi bois mendan u yerda erta rivojlanish bo‘yicha ma’ruza o‘qishimni so‘rashdi.

Kitobda yozganlarim ko‘pchilikda bu qadar katta qiziqish uyg‘otishini kutmagan edim. Ammo to‘plangan ma’lumotlar mening nazariyamni tasdiqladi. Men muhandisman va kompaniya boshqaruvida ishlayman<sup>1</sup>, pedagogik tajribam yo‘q. Ammo misollar bilan yozilgan ko‘pgina xatlarning mazmunidan hamda yosh onalardan tortib xorijiy mutaxassislargacha umumiy e’tirof etishganidan bu masalani ko‘tarib to‘g‘ri qilganimni angladim.

---

<sup>1</sup> Masaru Ibuka – «Sony» korporatsiyasi asoschilaridan biri.

## **Bog‘cha yoshi u yoqda tursin, uch yoshdan keyin kech**

Bu gal yozmoqchi bo‘lgan fikrlarim «Uchdan keyin kech» kitobida bayon etilgan mulohazalardan keskin farq qilmaydi. Ammo o‘tgan sakkiz yil mobaynida menda ko‘p fikr-mulohazalar va ma’lumotlar yig‘ilib qoldi. Ularga, ayniqsa, birinchi kitobimni o‘qigan kitobxonlar e’tiborini qaratish istagi tug‘ildi. Bu orada avvalgi ba’zi fikrlarim to‘g‘riligiga yana bir bor amin bo‘ldim, ba’zilari yuzasidan esa fikrim o‘zgardi.

Ushbu kitobda e’tibor qaratiladigan birinchi muhim jihat – uchdan keyin kech, bog‘cha yoshi haqida gapirmasa ham bo‘ladi degan jumlada aks etadi.

Shu o‘rinda skripka chalishni o‘rgatish usuli sana-luvchi «Suzuki usuli» uzoq vaqtidan beri menda muhim fikrlar uyg‘onishiga turtki bo‘lganini ta’kidlab, bir misol keltirib o‘tmoqchiman. «Suzuki usuli» asoschisi Suzuki Siniti bilan birinchi uchrashuvda mashg‘ulotlarni boshlash uchun eng mos davr bolaning 4 – 5 yosh paytidir degan edi. Men go‘dak ta’limi haqidagi fikrlarimdan kelib chiqib, balki ertaroq boshlash kerakdir deb so‘radim. U kechroq shug‘ulananishni boshlagan bolalar ham albatta chalishni

o'rgana oladilar, biroq o'sib-ulg'aygan bola bilan ulg'aymagan bola orasida juda katta farq borligini payqadim dedi. Suzuki uch yoshda emas, ikki yoshda boshlagan ma'qulroqligini – qanchalik erta boshlansa, natija shunchalik yaxshi bo'lishini aytdi.

Yana bir misol. Deylik, yosh bola ingliz tilini uch yoshida o'rgana boshladidi. Uning ikki yashar ukasi bor edi. Bola uyda shug'ullanar: tasmalarni eshitar, kartochkalar yordamida tilni o'rganar edi. Kichik ukasi yonida o'tirib kuzatardi. Kichigi uch yoshta to'lganida ingliz tilini tizimli o'rgandi va tezda akasiga yetib oldi. Bir o'ylab ko'ring: bir yosh-u ikki oylik go'dak akasining mashg'ulotlarini onasining tizzasida o'tirib jim kuzatgan va yetti oydan so'ng kutilmaganda ingliz tilida yaxshi talaffuz bilan gapira boshlagan.

Agar maymunning bolasi bilan solishtirsak, inson bolasi muddatidan bir necha oy oldin tug'iladi deyish mumkin. Inson bolasi ona qornida uzoq muddat qolmaydi, tug'ilganidan keyin tik turish va yurish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Hayvonlarning bolasi esa tug'ilgan zahoti turib, harakatlana oladi.

Hayvonlarning bolasi «tayyor» bo'lib tug'iladi, ularning miyasi va tanasi yetarlicha rivojlangan bo'ladi. Inson bolasi tug'ilganida «oq qog'oz» hola-tida bo'ladi. Avvalgi kitobda bolaning uch yoshgacha ta'lim-tarbiyasi muhim ekani aytilgan edi. Tug'ilishi bilan odam miyasi oq qog'ozdek bo'm-bo'sh va beg'ubor, uni «to'ldirish»ni uch yoshda boshlash kechdir. Imkon qadar ertaroq boshlash kerak.

## **«Namuna davri» inson kim bo'lishini belgilab beradi**

Erta boshlash zarur, bu tushunarli, biroq 4 – 5 yoshdagi bola bilan 1 – 2 yoshdagi go'dakni bir xil o'rgatish mumkin emas. Bu nuqtayi nazardan 3 – 4 yoshdan keyingi tarbiya usuli bilan bola tug'ilishidan boshlab (ta'bir joiz bo'lsa, o yoshdan) 2 yoshgacha bo'lgan tarbiya usuli o'rtasidagi farqni ajratish kerakligi haqida bildirgan fikrlarim avvalgidan ham aniqroq bo'ldi.

Birinchi davr tug'ilishdan (o yoshdan) boshlanadi. Bu davrda bola biror narsani o'rganishi uchun «saboq»ni muntazam ravishda va qat'iyat bilan takrorlash zarur. Ikkinci davr 3 – 4 yoshdan boshlanadi. Bunda bola qiziqishlariga e'tibor qaratish va ular yordamida bolada o'qishga bo'lgan istakni kuchaytirish mumkin. Fikrimcha, birinchi davr eng muhimi hisoblanadi. Men uni «Namuna davri» yoki «Namuna yoshi»<sup>1</sup> deb nomladim.

---

<sup>1</sup> «Usul», «namuna» yoki «qiyofa» deganda Masaru Ibuka yosh bola-larga xos fikrlash jarayonini nazarda tutadi. Bunday fikrlashda miya'malumotni obrazlar, qiyofalar hosil qilish orqali taniydi va qabul qiladi.

Bu yoshda bolaning miyasi ma'lumotni katta odamning miyasiga nisbatan boshqacharoq qabul qiladi. Masalan, 3 – 4 oylikda (ba'zilar 5 – 6 oyligida) go'dak onasining qiyofasini boshqa qiyofalardan ajrata boshlaydi va begonani ko'rganda yig'laydi. Bir qarashda bu oddiy holdek tuyuladi, biroq kompyuterda bu ishni uddalamoqchi bo'lsangiz, buni faqat eng yuqori texnologik qurilmalar bajara oladi.

Murg'ak go'dak buni osongina uddalaydi. U yuz xususiyatlarini tahlil qilmaydi, tez-tez ko'zi tushadigan yuz qiyofasini shu holicha namuna sifatida to'liq eslab qoladi. Bunday xotirani men «Namunani tanish» deyman: mazkur qobiliyat eng kichik bolallarda juda yaxshi rivojlangan. Shu bois erta davrni «Namuna davri» deb atadim.

Ya'ni bolalar odamlar har kuni ishlatadigan yapon tilida bemalol gaplasha olishi uchun ular tug'ilishi dan boshlab takroriylik ta'siri ostida bo'lishi lozim. Takroriylik ta'siri ostida bo'lsa, bola buni namuna sifatida ishlatadi, uni miya hujayralarining o'tkazgichlariga kiritib, bu ta'sir omilini qiyinchilik va qarshiliklarsiz qabul qila oladi. Bola miyasi takrlanuvchi har qanday ma'lumotni oson yodlaydi. «Namuna davri»da ma'lumotlar boshda namuna shakli da «muhrlanib» qoladi: bu mantiqiy fikrlash orqali yoki tartibsiz, chalkash yodlash ham emas. Biz ona tilimizda so'zlashganda grammatik tuzilish haqida umuman o'ylamaymiz, chunki miya tuzilishi bizning tilga moslashib bo'lgan.

Avval buni tug‘ma qobiliyat deyishgan. Ammo, hozirda ko‘ryapmizki, bu qiyofalar davrida, ya’ni bola muntazam ko‘rib-eshitib turganlarini (bilimlarni) qiyofalar tarzida «muhrlab» olishi bilan shakllanadi. Shuning uchun bolani bu davrda tarbiya qilish va rivojlantirish juda muhimdir.

## **Bugungi kunga qadar bolalar tarbiyasida yaxshi insonni voyaga yetkazish maqsad qilib qo'yilmagan**

Fikrimcha, hozirga qadar go'dak yoshidagi bolalar tarbiyasiga bo'lgan munosabatni qayta ko'rib chiqish zarur. Go'dakka g'amxo'rlik, asosan, uning jismoniy talablarini qondirish va kasal bo'lganida davolashdan iborat<sup>1</sup> deyishadi. 3 – 4 yoshida esa bolaga mактабда o'qитиладиган narsalarni ertaroq o'r-gatishadi. Hozirga qadar amal qilayotgan «Ertarivojlanish» bor-yo'g'i mana shu.

Bola tarbiyasi deganda nafaqat jismoniy o'sish haqida g'amxo'rlik qilish, balki ruhiy va aqliy rivojlanishni ham nazardan qochirmaslik ayni muddaodir. Ammo ilgari bola tarbiyasida negadir ko'pchilik chaqaloqqa uning na qalbi, na aqli bor jonzotdek munosabatda bo'lgan deb o'ylayman.

Bola tug'ilganidan keyin dastlabki davrda otanonalar faqat go'dakning jismoniy rivojlanishiga e'tibor qaratadilar, uning miyasini rivojlan Tirishga o'z nqlini namoyon qilishni boshlaganida kirishadilar.

<sup>1</sup> Bu yerda XX asr hamda Benjamin Spok va izdoshlarining keng tarqulgan nazariyasiga ishora qilingan.

Ammo bu juda kech! Aslida u tug‘ilishi bilanoq aql va ruhiyatni rivojlantirish va tana salomatligi haqida g‘amxo‘rlikni birgalikda olib borish kerak.

Erta rivojlanish deganda ba’zi ota-onalar nimani tushunadilar? Uch yoshgacha, bola miyasi nodir qobiliyatlarga ega bo‘lganida, ular bunga e’tibor qaratmaydilar. Uch yoshdan keyin esa unga boshlang‘ich mактабда o‘qитиладиган narsalarni o‘rgatadilar. Bu tamomila noto‘g‘ridir. Chunki yaxshi inson sifatida tarbiya qilishni unutgan holda boladan daho yasab bo‘lmaydi.

O‘z vaqtida bunday tarbiyalash esa ko‘ringanichalik mushkul ham emas. Bu boradagi yondashuvim juda mantiqiy va samarali ekanini ishonch bilan aytishim mumkin. Deylik, men kabi keksa odamlar biror narsani yodlash uchun juda ko‘p bor takrorlashlari kerak. Agar ona farzandini tug‘ilishidan boshlab rivojlantirsa, u barcha zarur narsalarni qiyinchiliksiz o‘zlashtiradigan bo‘lib o‘sadi.

## **Namuna davridagi ta’limni onadan boshqasi bera olmaydi**

Bilasizki, bola tarbiyasiga uch yoshdan keyin kirishish kech, bu ishni namuna yoshida boshlash lozim. Savol tug‘iladi: bu davrda bolaga kim, nimani, qanday o‘rgatishi kerak?

Avvalo, «kim o‘rgatishi kerak?» degan savolni ko‘rib chiqamiz. Ushbu yoshda tarbiya bolaning turli qiyofalarni tanish qobiliyatini ishga solishga asoslanishini hisobga olsak, bu, albatta, onaning o‘zidir. Bir yoki ikki yoshga qadar bo‘lgan davr – tezkor rivojlanish davri, go‘dak bu vaqtida doimo onasi bilan bo‘ladi. Uning qiyofalarni tanish qobiliyatini ishlatalish uchun muntazam ravishda, sabr bilan bir narsani qayta-qayta takrorlash zarur. Bolani sevuvchi va doim yonida bo‘luvchi onadan boshqa kim ham bu ishni uddalay olardi deysiz.

Kimdir e’tiroz bildirib bu juda qiyin masala deyishi mumkin. Aslida, agar namuna yoshida bolaning qiyofalarni tanish qobiliyati shakllantirilsa, u kerakli narsalarni hech bir muammosiz o‘rganib oladi. Bu paytda bola o‘z onasidan «yana ko‘rsating», «davom ettiring» deb so‘raydi. Takrorlash orqali ona farzan-

dining xotirasidagi turli ma'lumotlarni mustahkmalaydi.

Endi «nimani va qanday o'rgatish kerak?» degan savol ustida to'xtalib o'tamiz. Avvalo, buni onaning o'zi hal qiladi. E'tibor qaratmoqchi bo'lgan asosiy narsa – bolaning bu yoshdagi kuchli qobiliyatları undan faqat ingliz tili yoki musiqa sohasida daho yaratish uchun kerak emas. Eng muhimi – uni jamiyatdagi asosiy hayot qoidalariga o'rgatishdan iborat. Mukammal shaxsni tarbiya qilingki, u faqat o'zi haqidagina emas, balki atrofdagi insonlar haqida ham o'ylasin.

Bebaho tajriba va bilimlarini «Bolanning erta rivojlanishi» jurnali sahifalarida o'rtoqlashgan turli soha olimlari va mutaxassislariga, o'zim ko'p narsalarni o'rgangan kitoblar mualliflariga va, albatta, o'z xatlarida farzand tarbiyasi borasidagi tajribalari haqida yozgan onalarga minnatdorlik bildiraman.

### **Masaru Ibuka**

*1978-yil 1-dekabr*

## BIRINCHI QISM

Ona o‘zgarsa, bola  
ham o‘zgaradi  
«Namuna davri»da  
ona nima qilishi  
kerak?

## **Yaxshi ona yaxshi bola tarbiya qilaman degan kuchli xohish va muhabbatga ega onadir**

«Yaxshi» va «yomon» tushunchalari narsalarni, amallar va hodisalarini baholashda juda qulay o'lchov hisoblanadi. Masalan, suhbat asnosida musiqa, rasm yoki teleko'rsatuv kabilalar haqida biroz gaplashilsa, «yaxshi» va «yomon» sifatlari ayon bo'ladi. Ammo bu baholash o'ta subyektiv bo'lib, ko'pincha biror musiqa kimgadir yaxshi, kimgadir yomon tuyulishi mumkin. Bundan tashqari, «yaxshi ona» va «yaxshi bola»ni belgilay oladigan yagona standart ham mavjud emas. Chunki odamlar har xil va buni izohlashga hojat ham yo'q.

Uzoq vaqt chet elda yashagan va vataniga qaytgan yaponlar bir ovozdan e'tirof etishicha, yapon bolalari da jamoat ruhi (public spirit) yetishmaydi. Jamoat ruhi odob-axloqni o'rgatuvchi so'zdek eshitilishi mumkin. Biroq ular aslida bolalar jamoat joylarida o'z xatti-harakatlari bilan atrofdagilarga noqulayliklar tug'dirishi haqida o'yamaslik – ortiqcha diqqat bo'lmaslikni nazarda tutadilar. Masalan, metroda bolalar vagonga navbatsiz kirib, tezroq o'rindiqqa

joylashib olishadi yoki e'tiborsizlik oqibatida yonida o'tirgan odamning kiyimini iflos qilib qo'yishadi. Eng qattiq tanqid hamma narsaga ruxsat beruvchi onaga qaratiladi.

Shu kabi holatlar tarbiya muammolaridan sanaladi. Odamlardan «yaxshi bola» deganda nimani tushunasiz deb so'ralsa, hamma turlichayavob beradi. Yaxshi onalar bir xil bo'lishi mumkin, biroq men dunyodagi ko'pchilik odamlar qatori «yaxshi» yoki «yomon» baho onaga qaratilgan boladi deb o'ylayman.

«Yaxshi ona»lar farzandimni yaxshi bola qilib tarbiyalayman degan kuchli xohishga va muhabbatga ega onalardir degan gapga e'tirozim yo'q. «Yaxshi bola»ni hamma o'zicha tasavvur qiladi. Biroq ona o'z farzandini yaxshi (uning o'z tushunchasidagi «yaxshi») qilib tarbiyalashga intilmash ekan, u ona sifatida ish tutolmagan, lozim darajada onalik qilolmagan boladi. Aminmanki, «yaxshi bola»ning asosiy sifatlari uch yoshgacha shakllanadi, chunki bu davrda ota-onasi bolani butunlay boshqara oladi.

Amerikalik mashhur psixolog, professor Jerom Brunerner ta'kidlashicha, yaxshi ota-onasi «farzandi gapirishni boshlashidan avval muloqotsiz aloqa o'rnatadi va shu aloqa yordamida u bilan o'ynab bolani rivojlantiradi». Boshqacha qilib aytganda, yaxshi ota-onasi «namuna davri»da o'z farzandini yaxshi bola qilaman deb tarbiyalab, bola bilan ongili ravishda ishlaydigan ota-onadir. Afsuski, hozirgi

davrda «ota-oná bo'lsa bo'lgani, bola ulg'ayadi» deb aytildigan bo'lib qoldi. Biroq «ulg'ayish» va «tarbiya olish» boshqa-boshqa narsalardir. Agar ona o'z farzandini sevmasa va uni tarbiya qilishga intilmasa, bola yaxshi bo'lib ulg'aymaydi.

## **Bog‘cha yoshigacha bo‘lgan davr – onasining fe’l-atvori va xatti- harakatini kichkintoy osonlikcha «ilib oladi»gan vaqt**

Bola – onaning ko‘zgusi deydilar. Bolaga boq, shunda uning ota-onasi kimligini fahmlaysan. Maktabgacha bo‘lgan davrda ona tarbiyasining ta’siri uning o‘zi kutganidan ham kuchliroq bo‘ladi. Shifokor-pediatrlar, odatda, farzand va onani birga ku-zatadilar. Aytishlaricha, tajribali shifokorlar bir qarashda bolaga qarab uning onasi qanday ekanligini aniqlashlari mumkin.

Masalan, maktabgacha ta’lim sohasida uzoq yillar ishlagan kobelik Doi Yosikoning mutaxassis sifatida-gi tajribasini olib ko‘raylik. Doi bolalar bog‘chasini boshqaradi. Hozirgi kungacha 5000 nafar bola uning qo‘l ostidan o’tgan, ya’ni shuncha kichkintoylar Doi Yosikoning bog‘chasida tarbiya topishdi. U menga bolalar bog‘chasiga qabul qilishdagi uch xil uslub ha-qida gapirib berdi.

Birinchisi – ona va bola uchun umumiyl test, ikkin-chisi – navbat bilan hammani qabul qilish, uchinchisi – qur’a tashlash. Nima uchun u uchta usulning ham-

masini qo'lladi? Uning aytishicha: «birinchi usulda kirish imtihonlari ko'plarning onalik qadr-qimmatini kamsitardi, chunki agar bola imtihondan o'ta olmasa, ular bu bizning aybimiz deb hisoblashardi. Ikkinci holatda esa bolalar bog'chasiga kirishni istovchilar ro'y-xatga yozilish uchun kechasi kelib navbatda turishardi. Oxir-oqibat uchinchi usulni qo'llashga to'g'ri keldi».

Har xil usullar bilan bolalar bog'chasiga qabul qilingan tarbiyalanuvchilar o'rtasida keyinchalik qanday farqlar kuzatilganligi meni eng qiziqtirgan jihat edi. Doi Yosikoning so'zlariga ko'ra, birinchi usul bilan kirgan bolalar juda qobiliyatli edilar, uchinchi usul bilan tanlangan bolalar orasida aqli haminqadar bolalar ko'p edi. Har yili uning bolalar bog'chasida 300 ga yaqin bola tarbiyalanib chiqadi. Testlar nati-jasida bog'chaga kirgan bolalar orasidan 40 – 50 nafar bola keyinchalik davlatning eng yaxshi universitetlariga o'qishga kirganligi e'tiborga molikdir. Ikkinci va uchinchi usul bilan tanlangan bolalar orasida bunday ko'rsatkich sezilarli darajada past bo'lgan.

Albatta, men oddiy universitetlarga o'qishga kirgan yoshlar eng yaxshi universitetlar talabasiga aylangan tengqurlariga ko'ra yomonroq bolalar bo'lishgan deb o'ylamayman. Ko'pchilik bolaning nufuzli universitetga kirishi uchun uning ta'limi bilan bog'chaga qadar shug'ullanish kerak deb noto'g'ri o'laydi. Unday emas. Bog'chaga qadar bolaga berilgan ona tarbiyasi uning butun hayotiga ta'sir qiladi. Bolaning kelajagi onaga bog'liq – uning mas'uliyati shu qadar buyuk.

## **Ikki yoshga qadar farzand tarbiyasiga ona alohida e'tibor qaratishi lozim**

Agar zamonaviy yosh onalardan nima maqsad-da farzand ko'rghanini so'rasangiz, odatda, mas'uliyatsizlik bilan aytilgan «turmush o'rtog'im xohladi» yoki «oilada farzand bo'lishi kerak» degan mazmunda javob olasiz. Ba'zida hattoki «zerikkandan» degan javoblar ham uchraydi, farzandni «kattalar ermag'i» deb biladigan ota-onalar ham topiladi. Agar buning aksi, farzand ko'rishni atayin xohlamagan ayollardan buning sababini so'rasangiz, «bola ishga xalaqit beradi», «hayot shusiz ham og'ir», «bola hamma vaqt ni olib qo'yadi va o'zimga vaqt qolmaydi» kabi xudbinona mazmunda javob berishadi.

Yapon televideniyesida bir kuni namoyish etilgan «Ayollik sharafi» ko'rsatuvida ellik nafar ishtirokchidan hech biri ularning sharafi farzandlar tarbiyasida ekanini aytmadidi. Ishlayotgan ayol turmushga chiqayotganida bir vaqtning o'zida uchta katta ishni qiliishi: ishlashi, bola tarbiyalashi va uyni saranjom tutishi kerak. Shuning uchun zamonaviy ayollar farzand ko'rishga xavotir bilan qarashlarini tushunish mum-

kin. Ammo ayol kishi uchun farzand tarbiyasidan muhimroq vazifa bormi?!

Bu borada yapon skripkachisi va pedagogi Suzuki Siniti: «Siz turli ishlar bilan mashg‘ulman va bolaga vaqt qolmaydi deysiz. Ammo dunyoda farzand tarbiyasidan muhimroq nima bo‘lishi mumkin? Agar sizda shunday mashg‘ulot bo‘lsa, nima uchun farzandingizni dunyoga keltirdingiz? O‘z «muhim ishlaringiz»ni ellik yoki oltmis yoshgacha qilishningiz mumkin. Tugatganiningizdan keyin farzandi bo‘linglar!» – deydi biroz istehzo bilan. Zerikish natijasida farzand ko‘rgan yoki ishga xalaqit bergani uchun tug‘mayotgan onalar nima deb javob bera oladilar?

Mashhur tanqidchi va essenavis Akiyama Tieko uch vazifani: ish, bolalar tarbiyasi va uy ishlarini boshqarishni ajoyib tarzda uddalaydigan ishbilarmon ayollardan biri sanaladi. Uning fikricha, ongli ravishda farzand ko‘rmayotgan ayollar yalqovdir. Farzand tarbiyasi samarasiz mehnat emas, bu ayol kishi uchun hayotdagi eng muhim ishlardan biri hisoblanadi. Shuni chuqur anglagan Akiyama Tieko o‘z ishi va uy ishlarini yaxshi uddalay oladi.

Shaxsiy tajriba asosida Akiyama uyda o‘tirish o‘rniga ishlashni istaydigan ayollarga: «Hozir hayottingizda eng qiziq davr. Barchasi sizga bog‘liq: tarbiyachi, diyetolog yoki dizayner bo‘lishingiz mumkin. Ammo asosiysi – o‘z farzandingiz tarbiyasiga e’tibor berishingiz shart», – deb maslahat beradi.

Bolaning rivojlanish jarayoni haqida fikr yuritib, ona tarbiyaga ikki yoshga qadar alohida e'tibor qilihi kerak degan xulosaga keldim. Aynan u «namuna davri»da bolaga ijobiy ta'sir ko'rsata oladi.

Tug'ish – ayolning eng muhim ishi deyilar edi. Ammo, ishonch bilan aytta olamanki, asosiy ish tug'ishdan so'ng boshlanadi. Agar ona bolaga to'g'ri g'amxo'rlik qilolmasa va tarbiya bera olmasa, boshqa ishlari ham yaxshi uddalay olmaydi. Fikrimcha, faqat tug'ishning o'zi yetarli emas, uni katta bo'lguniga qadar tarbiya qilish, ojiz va himoyaga muhtoj holatida unga g'amxo'rlik qilish zarur.

Albatta, erkak sifatida to'lg'oqning barcha qiyinchiliklarini to'liq tushuna olmayman. Ammo shuncha qiyinchilik bilan tug'ilgan chaqaloqni to'g'ri tarbiya qilish ham kerak, aks holda, bu qiyinchilikdan ma'no qolmaydi. Dunyoda ko'pgina onalar bola tug'ganidan keyin ish tugadi, endi hayotdan lazzatlanib yashash mumkin degan fikrda bo'lishadi. Ammo ona uchun o'z farzandini tarbiya qilishdan ortiq baxt va xurshandchilik bormi?!

Onada nafaqat tarbiyachi, diyetolog yoki dizayner bo'lish, balki shifokor va ma'naviy murabbiy bo'lish imkoniyati ham mavjud. Shunda ona bu vazifalarni o'zida jamlaydi, bola ulg'ayadi va yaxshi rivojlanadi. Shunday onalar borki, boladagi bu muhim davrni boshqalarga yuklab qo'yadi. Odatda, bunday onalarni mas'uliyatsizlik va yalqovlikda ayplashadi, tanbeh berishadi, hattoki o'z farzandini tashlab ketdi

deyishadi, ya’ni buni tashlab ketishga o’xshatadilar. Bola tug‘ish zerikishdan qutulish usuli emas, bola tarbiyasi ko‘p mashaqqatli ishdir.

Bola ikki yoshga qadar qanday tarbiya qilinishi uning kelajagini belgilab beradi. Shuning uchun bu davrda ona o‘z farzandining tarbiyasiga jiddiy qarashi muhim hisoblanadi. Bu uddalash mumkin bo‘lgan vazifadir.

## Bola tarbiyasi u tug'ilgan zahoti boshlanadi

Aytishlaricha, yangi tug'ilgan kuchuk bolasining yoniga sochiqqa o'ralgan qo'l soati qo'yib qo'yilish, u tinch uxlaydi. Soat urishi kuchukcha uchun ona yuragi tovushini eslatadi. Barcha chaqaloqlar tug'ilgandan so'ng katta stress (zarba)ga uchraydilar. Ona rahmida ular onaning yurak urishini eshitardilar. Ehtimol shuning uchun hayvon bolasi tashqi olamda shunga o'xhash tovushni eshitganda tinchlanadi. Odam bolasi ham bundan mustasno emas.

Tadqiqotchilar shunga o'xhash bir tajriba o'tkazishadi. Chaqaloqqa ona yuragi urishiga o'xshagan tovush eshittirishsa, u tinchlanar edi. Tovushlar tez-hinganida chaqaloq yig'lay boshlaydi. Ushbu tajriba-dan so'ng ona rahmida eshitgan yurak urishi tovushini nata-sekin musiqaga aylantiruvchi audiotasmalar sostishni boshladilar. Bu juda qiziqarli tajriba edi.

Shu bilan birga, yangi tug'ilgan chaqaloqlar xonasida yotgan go'daklar eshikka yaqin yotsalar, turli tovushlarni ko'proq tinglaydilar, odamlar mavjudligini his qilganlari bois xona ichkarisida yotgan go'daklarga nisbatan miyasi yaxshiroq rivojlanadi.

Yangi tug'ilgan chaqaloq rivojlanishi uchun dastlabki bir necha soat yoki bir necha kun muhim, chunki bola tarbiyasi tug'ilishi bilan boshlanadi. Ammo atrofdagilar ushbu muhim vaqtida bola uchun nima qilishmoqda? Gigiyyena yoki onani himoya qilish bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin, ammo bola, odatda, bolalar xonasida bo'ladi, ona va bola faqat emizish paytidagina bir-birlari bilan ko'rishadilar<sup>1</sup>.

Tarbiya haqida gapiradigan bo'lsak, dunyodagi aqli onalar farzandimni qanday yaxshi bola qilib tarbiyalayman deb, darhol bolalar tarbiyasi va psixologiyasi bo'yicha kitoblardan o'rganishni boshlaydilar. Ammo tarbiya uchun dastlab ona va bola o'rtasida tabiiy aloqa bo'lishi zarur. Homiladorlik, tug'ish, tarbiya jarayonlarida tabiiy aloqa muhim sanaladi. Agar ona buni baholay olmasa, eng maqbul «tarbiya vaqt»ni o'tkazib yuborishi mumkin, keyinchalik qancha mashaqqat chekilmasin, bu davrni qaytarib bo'lmaydi.

Ushbu kitobda men ayollarni bola tarbiyasida o'z mas'uliyatini ko'proq his qilishlariga undamoq-chiman. Bu mas'uliyat ongli ravishdagi ona va bola o'rtasidagi tabiiy aloqadan boshlanadi. Go'dak tas-madagi yurak urishi ovozini emas, onasining haqiqiy yurak urishini eshitgani yaxshiroqdir.

---

<sup>1</sup> Hozirda tug'uruqxonalarda ona va bola alohida yotishi amaliyotda qo'llanilmayapti, ammo kitob yozilayotgan paytda bu keng tarqalgan amaliyotlardan bo'lgan. Tug'ilgandan so'ng chaqaloqlarni alohida umumiy xonaga joylashtirganlar, onalariga faqat emizishga olib kelganlar.

## **Ona ko'kragi go'dak uchun eng yaxshi ta'lim xonasidir**

Oxirgi paytda yosh onalarni bir masala o'ylan-tirmoqda, bolani qanday ovqatlantirish afzalroq – emizishmi yoki idishchadanmi? Men diyetolog olim emasman, shuning uchun ilmiy jihatdan bu savolga javob bera olmayman. Ammo ba'zi ayollar ko'krak go'zalligini saqlash uchun bolasini sun'iy oziqlanti-shimi tanlashi meni o'yga toldiradi.

Bola ona ko'kragini ushlaganida, uni so'rganida, onasining yurak tovushi (urishi)ni eshitganida, ona-sining yuzini tomosha qilganida bu unga ijobiylar ta'sir qiladi. Ya'ni shunda u qalban va jismonan sog'lom o'sadi. Bu ona va bolaning haqiqiy aloqasidir. Bolan-ning miyasi rivojlanishiga ta'siri bo'yicha sutni so'ng'ich bilan so'rish va ona ko'kragi orasida katta farq mavjud.

Amerikadagi bir tug'uruqxonada tajriba o't-kazishdi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni ikki guruhga bo'lishdi. Birinchi guruhdagi bolalarni umumiyl sonaga joylashtirishdi. Ikkinci guruhdagi chaqa-loqlarning har birini o'z onasining yoniga yotqizishdi, ularga so'raganlari zahoti ko'krak tutishardi. Ikki va besh yildan so'ng shu bolalarning nutqini tadqiq

qilishdi. Ikkinchi guruhdagi bolalarning nutqiy qobiliyati birinchi guruhga nisbatan ancha afzal edi.

Ko'pchilik bola katta bo'lganida va bog'chaga borganida aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan shug'ullanish mumkin degan fikrni ma'qullaydi. Birroq rivojlanish endi boshlanayotgan davr o'ta muhim. Agar shu payt ona ongli ravishda harakat qilmasa, keyinroq bola ona istagan qobiliyatlarni egallay olmaydi. Bu davrda go'dak qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ona o'z ko'kragi bilan emizishi va qo'li-da ushlashi yetarli bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq uchun ona ko'kragi o'rnini hech nima bilan bosib bo'lmaydigan eng yaxshi tarbiya xonasidir.

Diyetologlarning so'zlariga ko'ra, ko'krak sutini emib katta bo'lgan bolalarning immuniteti sun'iy ovqatlar bilan ulg'aygan bolalardan yaxshiroq bo'la-di. Pediatrlarning aytishicha, sun'iy ozuqalar bilan ulg'aygan bolalar oson shamollaydilar va ko'p kasal bo'ladilar. Men ayollarning o'z go'zalligini saqlashiga bo'lgan intilishiga aralashmayman. Ammo ular ona bola yonida bo'lsa va ko'kragi bilan emizsa, go'dak sog'lom bo'lib ulg'ayishini tushunishlari zarur.

Bir o'y lab ko'ring-a, ayollarga qanday ajoyib qobiliyat berilgan: ularning tanasi o'z farzandlarini emiza olishi uchun sut ishlab chiqaradi!

## **Uch yoshgacha – ota-onalarning «majburlash (o‘z fikrini o‘tkazish)» davri**

Bola tarbiyasida eng muhim narsa nimaligini mutaxassislardan so‘rasangiz, ko‘pchilik bolaning irodasini hurmat qilish, mustaqil qarorlar qabul qilishga ruxsat berish va bola uchun nima muhimligini shoshmasdan aniqlashtirish deb javob berishadi. To‘tiquishdek yodlash va avtomatik qobiliyatlarni egallashini afzal bilmasdan, tushunish orqali ta’lim berish so‘nggi paytlarda mashhur bo‘lgan asosiy tarbiya tamoyili sanaladi.

Tarbiyaga bunday yondashuv bilan nimalarga erishilgani haqida fikr bildirmoqchi emasman, ammo bunday yondashuv uch yoshgacha bo‘lgan bolalarga aslo mumkin emas.

Haqiqatan, bola yangi bilimni egallashi uchun tanni yaxshi tushunishi va uning ma’nosini anglashi kerak. Bunday yo‘l bilan olingan ma’lumot bola tushunmasdan yodlab olgan ma’lumotga nisbatan yuxshiroq esda qoladi. Ammo mazkur yondashuvni bolaning mantiqiy fikrlash qobiliyati shakllangandan so‘ng ishlatish mumkin. 2-3 yoshdagi go‘daklar uchun esa uni qo’llab bo‘lmaydi.

Fikrimcha, uch yoshgacha bo'lgan bolaga ota-onalarni «majburlashi» va yod olish (tushunmasdan yodlash) mos keladi, shu bois ota-onalar bolalarni yo'naltirishi va yaxshilikka o'rgatishi zarur. Bu yoshda bola ko'p narsalarni anglamay, faqatgina takrorlab bilib olishi mumkin.

Yapon tilida endigina so'zlashni boshlagan go'dak bir qarashda bir necha o'nlab mashina markalarini farqlay oladi, reklamadagi kuylarni aniq eslaydi, murakkab iyerogliflarni yodlay oladi. Katta yoshdagi insonlarda yo'q narsa bolada mavjud – bu intuitsiyaga o'xshagan narsaki, uning yordamida bola namuna-larni bir zumda xotirasiga joylab oladi. Shuning uchun uch yoshgacha bo'lgan davrni «namuna davri», ya'ni pattern davri deb nomladim.

Bu davrda bolaning miyasi tanqidiy va tahliliy qobiliyatlarga ega emas, u xuddi yozilmagan oq qo'g'ozga o'xshaydi. Ma'lumotni qabul qilish uchun uni tushunishi yoki anglashi zarur emas. Ammo bu paytda bola o'z holiga tashlab qo'yilsa, u ajratmasdan faqatgina yaxshi ma'lumotni emas, balki yomon ma'lumotni ham qabul qiladi va bu uning shaxsi shakllanishida asos bo'ladi. Shu bois ota-onalar domiy ravishda o'zlari to'g'ri deb bilgan xatti-harakat usulini mustaqil ravishda nima yaxshi, nima yomonligini bilmaydigan yosh bolaning miyasiga singdirib borishlari shart. Bunga esa ota-onaning «majburlashi» ham mos keladi.

## **Tarbiya – bu go'daklikda o'rganilgan hayot tarzi usulidir**

Uch yoshgacha bo'lgan «namuna davri»da bola tarbiyasi uchun ota-onan tomonidan «majburlash» va «o'z fikrini o'tkazish» zarur. Ammo nimani «majburlash» kerak? Ikki yo'l bor. Birinchi yo'lni men birinchi kitobimda batafsil tushuntirib o'tganman, bu miyaning doimiy aqliy ishlashiga asos bo'ladigan umuni qaytarish (til, musiqa, o'qish, rasm chizish). Ikkinciyo'l – bu davrda bola miyasiga inson sifatida yashash qoidalari va odob-axloqni singdirish.

Ko'pchilik inson xulqi uning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi deb o'ylaydi, barcha uchun umumiy qadriyatlarni aniqlash juda qiyin. Bunday holatda ota-onaning hayotga subyektiv qayshlari tanqidiy fikrlashga qodir bo'lмаган go'dakka o'tkazilishi yaxshimi? Fikrimcha, dunyoqarash va qadriyatlar tizimi xulq-atvor va xatti-harakatlarning mosi emas.

Har xil dunyoqarashga ega turli insonlar uchun umumiy xulq va xatti-harakat qoidalari mavjud. Masalan, har bir tirik jonzotni hurmat qilish zarur, taqat o'zi haqida o'ylash mumkin emas, atrofdagi

insonlar haqida o'ylash kerak, barcha ishda boshqa odamlarga suyanmasdan o'z miyasi bilan fikr yuritish va boshqalar. Ushbu qoidalar oddiy va tushunarli tuyulishi mumkin. Biroq bizning murakkab dunyoda bu qoidalarga barcha odamlar astoydil amal qilganlarida, yashash ancha osonroq bo'lardi. Axir bu qoidalar insonning jamiyatdagi xulqi va xatti-harakatlarining asoslaridir.

Bu qoidalarga amal qilishni o'rgatish qiyofalar davrida ota-onalar o'z farzandlariga o'rgatishi mumkin bo'lgan asosiy narsadir. Bu qoidalar nima uchun muhimligini tushuntirishga umuman zarurat yo'q. Bola tug'ilgani zahoti har bir imkoniyatdan foydalanib bu insoniylikning eng kichik qoidalari namuna sifatida o'zlashtirib olishini xohlardim. Bu ota-onaning bolaga ko'rsatgan xulqi, xatti-harakati va nutqi orqali amalga oshiriladi.

Go'dak ulg'ayadi va bu qoidalar nima uchun zarur ekanini anglaydi. Ulg'aygunga qadar qoidalarni o'zlashtirib olsa, ularni tabiiy holatdek qabul qiladi, hatto savol bermasdan tabiiy ravishda bu qoidalarga amal qilishi mumkin. Tarbiya mana shudir.

Go'daklikda o'rganilgan xulq, xatti-harakat va fikrlash usuli bolaning hayoti qanday bo'lishini belgilab beradi va u bilan bir umrga qoladi.

## **Go'daklikda tarbiyaga beparvolik qilinsa, kelgusida tarbiyatagi kamchilikni to'g'rilab bo'lmaydi**

Yuqorida men «tarbiya»ni go'daklikda o'rganilgan hayot tarzi namunasi deb atagan edim. Kimdir bunga: «Bunday emas. Jamiyatdagi hayotning asosiy qoidalari bilan inson asta-sekin o'sish jarayonida tanishadi va o'rganadi», deb e'tiroz bildirishi mumkin. Aslida, men ham ilgari shunday fikrda edim.

Ammo tug'ilganidan boshlab eshitib katta bo'lgan ona tilida so'zlashuvchi inson bilan ulg'aygandan keyin ko'p mashaqqatlar bilan bu tilni o'rgangan inson o'rtaSIDA, baribir, farq mavjud. Asosiy axloq qoidalalarida ham xuddi shunday: bu qoidalarni bolaga etrofdagi hodisalarni anglamasidan avval singdirishi bilan ulg'ayganida katta mashaqqatlar natijasida o'zi o'rganishi o'rtaSIDA sezilarli farq bor deb o'ylayman.

Bu haqda o'ylab, dunyoga nazar solsak, ushbu fikrni tasdiqlovchi ko'pgina misollarni topish mumkin. Eng yorqin misol zamonaviy yaponlar nima ekanini butunlay unutib qo'ygan din masalasıdır. Dinda qayd etilgan kamtarlik, hurmat, boshqalar haqida

qayg'urish kabi sifatlarining inson hayotida foydasi tegmay qolmaydi deb bilaman.

Tug'ilganidan boshlab kundalik hayotida ota-onasining axloqi va oiladagi munosabatlar orqali diyonat, vijdonlilikni «shimib singdirgan» inson va ulg'ayganida katta qiyinchilik bilan o'zini o'zgartirgan va «qiynalib» e'tiqodini topgan insonlar bir narsaga ishonissha ham, har xil bo'ladilar.

Har safar men xorijliklar bilan gaplashganimda ularning dini haqida so'rар edim. Taxminlarim tasdiqlandi. Taqvodor oila va sog'lom muhitda ulg'aygan inson odatiy hayotda e'tiqod haqida o'ylamaydi, ammo mutlaqo tabiiy ravishda boshqa insonlarga hurmat bilan munosabatda bo'ladi va o'zini kamtarona tutadi. Hayot tarziga bolalikdan bunday munosabat favqulodda vaziyatlarda xotirjam xatti-harakat qilish bilan ham namoyon bo'la-di. Go'daklikdan ushbu narsalarni o'rgangan inson hayot uchun xavfli bo'lgan qiyin vaziyatlarda ham muloyimligini saqlaydi.

Boshqa tomondan, inson ulg'ayganidan so'ng din borasidagi tushunchalarini yo'qota olmaydi. Yaxshi tarbiya e'tiqod, vijdonlilik bilan mutlaqo bir xil bo'lib, ularni shoshilinch tarzda o'rganib bo'lmaydi. Sofiya universitetining klinik psixologiyasi faxriy professori Simoyama Tokuzining so'zlariga ko'ra, agar tug'ilishidan to'g'ri, sog'lom muhitda tarbiya topgan insonlar va ulg'ayganida jon-jahdi bilan tarbiyadagi kamchiliklarni bartaraf etgan insonlar

solichtirilsa qiziq xulosaga kelish mumkin. Albatta, ikkinchi guruhdagilar orasida buyuk shaxslar bor, biroq ularning ko‘pchiligi shaxsiy muammolarga ega. O‘z hayotida ham yaxshilik, ham yomonlik ko‘rganlar qayverdadir xudbin fikrlari asosida harakat qiladilar va bu ayanchli oqibatlarga olib keladi. Biroq bular munosib insonlar, ular hamma narsani tushunishi di, anglashadi, ko‘pgina sinovlardan o‘tishadi, nega, xor, bunday yo‘l tutishadi? Chunki ularning tarbiyada o‘zlari ham sezmaydigan muammolar mavjud.

Shuni aytib qo‘ymoqchimahki, yaxshi tarbiya oilaning moddiy holati bilan bog‘liq emas. Qolaversa, jamiyatning tabaqalarga bo‘linishiga ham uning aloqasi yo‘q. Ota-onaning kasbi, ularning ijtimoiy holati yoki irqiy mansubligiga ham bog‘liq emas. Bundan fashqari, avvalgi misol bilan bog‘liq holda aytadigan bo‘lsak, ma’lum bir dinga e’tiqod qilinsa, bu bolaning tarbiyasi kundalik hayot tarzida ham mukammallikka ega bo‘ladi degani emas. Agar shunday bo‘lsa, diniy e’tiqod kuchli bo‘lgan xorijiy davlatlarda, ehtimol, aksariyat oilalarda ko‘p yaxshi insonlar yetishib chiqqan, ular qiyin masalalar va ziddiyatlarni urush-janjalsiz hal qila olardilar.

Atrofdagilar qanchalik munosib, taqvodor va madaniyatli bo‘lmasin, agar ota-onalar bola tarbiyasi haqida, ayniqsa, uch yoshgacha yetarlicha qayg‘urmasa, barcha fazilatlar befoyda bo‘lib qolaveradi. Mening avvalgi kitobim «Uchdan keyin kech» Yevropa va Amerika davlatlarida tarjima qilindi va u

Yaponiyaga nisbatan ko'proq aks sado berdi. Balki bunday munosabat ular hozirga qadar mavjud diniy ta'lif va iqtidorni tarbiyalashning mushkul holatini jiddiy muammo deb hisoblaganlari uchundir.

Oxirgi paytda g'arb jamiyatida diniy tarbiya, inson shaxsini shakllantirishda qanchalik muhim ahamiyat kasb etishiga qaramay, yo'qqa chiqarildi. Nima uchun bunday bo'lgani borasida turli qarashlar bor. Amerika va Yevropada men taklif qilgan uch yoshgacha tarbiyada muammoning yechimini ko'rdilar.

Yana bir bor takrorlayman, odamlar hayotning asosiy qoidalariiga amal qilish zaruratin qanday yo'l bilan o'rganganida (bunga ongli xatti-harakat tufayli erishdimi yoki go'daklikda tarbiya jarayonida singdirib oldimi) farq bo'ladi.

## **Go'dak kattalar tasavvur qilganidan ko'ra ko'proq narsani idrok etadi**

Demak, bolani go'daklikdan yaxshilikka o'rgatish zarur. Biroq bola faqat ota-onan ongli ravishda o'rgatadigan narsalarnigina qabul qilib qolmaydi. Agar ota-onan e'tiborsizlik qilsa, bola umuman nomaqbul narsalarni o'rganib olishi mumkin, axir ular o'ta sezgir va ma'lumotni tez qabul qiluvchi bo'ladilar.

Professor Simoyama Tokuzi quyidagi misolni kelтирди. Bir ayol dastlabki farzandi uch yosh bo'lganida ikkinchi farzandini abort qildiradi. Agar abort haqida uning aytganida bola baribir buni tushunmasdi va ona ozini hech nimani bilmagandek tutmoqchi bo'ladi. Shunga qaramay, bola o'lim degan g'alati qo'rqinch tuyg'usiga asir bo'lib qoladi. Uni bu qo'rquvdan xalos etish uchun ulkan mashaqqatlar chekiladi.

Htimol, go'dakning yonida abort haqida gapirma ham, onaning xatti-harakatlarida bezovtalik yoki qo'rquv sezilgandir. Ota-onan asabiy bo'lib qolgan va uning yonida ko'p janjallahgan bo'lishi mumkin. Asta-sekin uning ongida tug'ilмаган chaqaloqning o'llimi haqida tasavvur hosil bo'lgan edi.

Yana bir misol, sakkiz oyligida qo'shni uyda bo'lgan yong'inni aniq eslay oladigan bir odam bor. U, shuningdek, o'sha paytda bir yoshdan ozgina oshgan bo'lsa ham, kichik ukasining tug'ilganini yaxshi eslay olishini aytdi. Ko'pincha odam keyinchalik ota-onasi aytib beradigan xotiralar bilan o'zining shaxsiy xotiralarini chalkashtiradi, bu kishida esa unday emas.

Tanaka Kakueyning<sup>1</sup> aytishicha, uning murg'ak bolalikdagi taassurotlaridan biri oltin chopondagi, ruhoniylar kiyimini kiygan, yuqori martabali buddaviylik rohibining yo'ldan o'tib ketayotganini ko'rganligidir. Bu manzarani u juda kuchli taassurot bilan eslashini aytdi. Onasi bu uning ikki yoshida sodir bo'lgan voqea, shu bois uni eslay olishi mumkin emas deydi. Biroq bu janob Tanakaning xotirasidan aniq-tiniq joy olgan. Bu taassurot kichik Tanakaga shu darajada ta'sir ko'rsatdiki, uning kelajagini belgilab berdi: u kuchli siyosatchi bo'lishni istadi.

Bu misollardan ko'rinish turibdiki, kichik bolalar kattalar tasavvur qilganidan ko'ra ko'proq narsani idrok qila oladilar. Bu haqiqatan ham ajoyib qobiliyatdir. Ota-onas kichik go'dak hech narsani tushunmaydi deb o'ylab xato qiladi.

Ona bilishi zarurki, uning farzandi kulib tursa-da, atrofida bo'layotgan barcha holatlarni – kattalarning kayfiyatini, oilaviy muammolarni, oila a'zolarining xatti-harakatini va boshqa ko'p narsalarni idrok etadi.

---

<sup>1</sup>Tanaka Kakuey – Yaponiyaning 1972 – 1974-yillardagi bosh vaziri.

## **Uch yoshgacha bola tarbiyasida ma'lum darajadagi qattiqqo'llik unga ziyon yetkazmaydi**

O'yinchoqlar do'konida ko'pincha ikki-uch yashar bolalar o'yinchoqlar so'rab xarxasha qilishayotganini ko'rish mumkin. Oxir-oqibat ona tan beradi va iftar-istamas o'yinchoq sotib oladi. Shu kabi manzarani ko'rganimda har safar ularga shunday deb aytg'im keladi: «Bunday holatlarda bolaga yon berish mumkin emas!».

Menga ikki-uch yashar bola aytganingiz bilan babilir tushunmaydi, shuning uchun idrok qila olish yoshibiga yetganidagina uni ishontirish va tushuntirishdan ma'nio bo'ladi deb e'tiroz bildirishlari mumkin. Yapon onalarining fikricha, uch yoshgacha bolani erkakatish zarur, to'rt yoshdan keyin, shaxs shakllanishi bo'chlaganida uni qattiqqo'llik bilan tarbiyalash kerak. Ammo uch yoshgacha bolaga qattiqqo'l bo'lmasangiz, keyinchalik qanchalik qattiqqo'llik qilmang, buning hech qanday ta'siri bo'lmaydi. Natijada bola o'sub-ulg'ayganida, talaba, keyinchalik jamiyatning te'laqonli a'zosi bo'lganida ham, istaklari bajarilmasa, yoshiblikdagi kabi injiqlik qilaveradi.

Intizom bir shaklga ega bo'lish deganidir, «namuna davri»da bu shaklni qo'shib borish samarali bo'la-di. Aksincha, aytish mumkinki, axloq va insoniylikning ma'nosi nimaligini tushunolmayotganimiz sababli qattiqqo'llik shakl sifatida qolib ketmoqda.

Ba'zi onalar ikki-uch yashar bolalarni qattiqqo'llik bilan tarbiya qilinsa, bu ularga yomon ta'sir qilishidan xavotirga tushadilar. Ammo bolaning axloq usuli boshidan shakllantirilmasa va to'rt yoshdangina qattiqqo'llik bilan tarbiya qilish boshlansa, bola onasiga ishonchszlik bilan qaraydi va bu unga haqiqatan ham yomon ta'sir qiladi.

Malika Mitiko<sup>1</sup> erta ta'limga juda qiziqardi va o'zining uch farzandini, shu jumladan, taxt vorisi shahzoda Naruxitoni juda qattiqqo'llik bilan tarbiya qildi. Sobiq kamerger Minoru Xamaoning so'zlariga ko'ra, malika shahzoda uch yoshga to'lguniga qadar uning orqasiga urgan ekan. Valiahd shahzoda yig'lagan paytda imperator ham, qirolicha ham zinhor negaligini so'ramagan, keyinroq kaltaklangani sabbabi haqida so'rashga odatlanganlar. Valiahd shahzoda voyaga yetgandan keyin bolalik davrida bunday tarbiya olganini umuman eslay olmasligini aytadi. Yapon onalari malikadan o'rnak olib go'daklik davrida o'z farzandlariga ba'zida qattiqqo'l bo'lishlarini istardim.

---

<sup>1</sup> Malika Mitiko – 1989-yildan beri Yaponiya malikasi, amaldagi imperator Akixitoning rafiqasi.

## **Agar bolani har kuni koyisa, u bunga o'rganib qolishi mumkin**

Bola tug'ilganidan uch yoshigacha atrofdan keluvchi rag'batlarga sezgir bo'ladi. Ko'pgina misollar mavjudki, agar go'dak har kuni ayni bir rag'batni olib tursa, bunday munosabatdan ta'sirlanish uning ongi-da mustahkamlashadi va qobiliyatga aylanadi.

Eng yaxshi misol – ona tili. Avval o'z ona tilida gaplashish bolalarda nasliy qobiliyat deb o'ylashardi. Aslida, ular tilni tug'ilganidan keyin o'rganadilar, chunki har kuni kattalar shu tilda gapirayotganini oshitadilar.

Shimoliy Afrikaning eng shimoliy hududlarida yashovchi inuitlar farzandlari tug'ilganidan boshlab har kuni sovuqlik ta'siri ostida bo'lib, ularning tanasi qattiq sovuqqa chidamlilik qobiliyatini hosil qiladi.

Bu davrda bolaga yaxshi omillar bilan ta'sir ko'rsatishning qay darajada muhimligini ta'kidlashimning sababi ham shundandir. Agar qiyofalar yoshida bola «yomon» rag'batlarni olsa, unda «yomon» qobiliyatlar shakllanadi. Masalan, asabiylashgan onaning boladan jahli chiqadi va yig'laganida

har safar uni koyiydi. Bu uning ongiga o'rnashadi va bolani koyishganida umuman e'tibor bermaslik sifati hosil bo'ladi. Agar bola har kuni noto'g'ri ohanga kuylanayotgan ona allasini tinglasa, unda ohang karligi sifati shakllanadi. Yoki bola onasi otasini koyishini ko'rib ulg'aysa, otasiga yaxshi munosabatda bo'la olmaydi.

Bu tarzda tarbiya bergen onalar bolasi bog'chaga boradigan bo'lganida doim: «Bolamni qancha urishsam ham, quloq solmaydi...», deb shikoyat qiladilar. Koyishlarga o'rgangan bola yoki musiqiy qobiliyatsiz va otasiga nafrat bilan qaraydigan bolalar aslo bunday bo'lib tug'ilmagan, bu nasliy ham emas, **onası shunday tarbiya qilgan**. Boshlanishda xato qilsangiz, belgilangan manzilga bexatar yetib bora olmaysiz. Hatto oxirida muammoni ko'rib qolsangiz va yo'nalishni to'g'rilashga qaror qilsangiz, bu kundan-kunga qiyin bo'lib borishini yodda tutishingizni istardim.

Professor Suzuki Siniti buni «qobiliyatlar qonuni» deb nomlaydi. «Qobiliyatlar – bu atrofdagi muhitning takrorlanuvchi rag'batlariga bola ishlab chiqadigan munosabat, bunda bola yaxshilik yoki yomonlik, go'zallik yoki xunuklikni ajratmaydi».

Suzuki Siniti buni qirq yil avval tushungan va skripkada chalishni o'rgatish orqali bolalarga yaxshi qobiliyatlarni singdirish uchun dunyoga mashhur «Suzuki usuli»ni amaliyotga tatbiq etishga bor kuchini sarfladi. Professor Suzuki o'zining maslahati-

ni g'ayrioddiy shaklda tushuntiradi: «Agar har kuni bolani jahl bilan koyisangiz, bu rag'batning doimiy takorlanishi tufayli unda salbiy munosabatga qarhilik ko'rsatish sifati shakllanadi va tez orada gapga omman qulq solmaydigan farzandga ega bo'lasiz. Bunday natijaga erishmoqchimisiz – ikki-uch yashar bolangizda sinab ko'ring».

## **Ortiqcha g‘amxo‘rlik bolani ojiz tabiatli qilib qo‘yadi**

Aytishlaricha, zamonaviy bolalar juda ojiz tabiatli bo‘lib qoldilar va shaxsiy tajribamda bunga amin bo‘ldim. Bir yaxshi do‘srim Soitiro Xonda meni Tokio boyskautlar ligasi rahbari lavozimiga tayinlash mafosimida qatnashishga ko‘ndirdi. Kuzning iliq kunlaridan birida butun Tokiodan uch yarim ming bola Setagaya tumanidagi o‘yin maydonchasiga to‘plandi.

Marosim boshlanganidan bir soat ham o‘tmay cho‘kkalab o‘tirgan va tinglayotgan bolalar charchoqdan yonboshlab oldilar, ularning soni o‘ntaga yetdi. Shundan so‘ng yangi tanlangan beshinchi sinf va undan quyi sinfdagi bolalar pufakchalar bilan o‘yin o‘ynashdi. Bu o‘yinda pufak oyoqqa bog‘lanadi, ishtirokchilar boshqa jamoadagi raqiblarining pufaklarini yorishlari kerak. Bolalar tizilib oldilar va xursand bo‘lib qichqirdilar, biroq hech biri raqibiga faol tarzda hujum qilishga va ko‘proq pufakchalarni yorishga harakat qilmadi. Biz Soitiro Xonda bilan bolalarni rag‘batlantirish uchun o‘yinda ishtirok etishga qaror qildik. O‘yin bizni juda qiziqtirdi, ammo bolalar umuman e’tibor berishmadi, faqatgina yuz ifodasida

• «Bu kattalarni nima shunchalik zavqlantiryapti, axir ular shikastlanishi mumkin» degan ma'no sezilgan holda beparvolik bilan bizni kuzatishardi.

Og'ir mashqlarga o'rgangan bolalar o'zlarini shunday tutsalar, qolganlar haqida taxmin qilish mumkin. Maktab sport tadbirlarida ko'pgina bolalar ellik motriga yugura olmaydilar. Mabodo yiqilib tushsalar, biron joylarini sindirib qo'yadilar, kattalar va tibbiy codimlar ularning atrofida vahimaga tushib yelib-yupradilar. Ko'pgina zamonaviy bolalar turnikka torilla olmaydilar, to'siq ustidan sakrashni eplolmaydilar, daraxtga chiqolmaydilar. O'qituvchi qanday qilish kerakligini o'zi ko'rsatmoqchi bo'lsa, bolalar: • Bu xavfli, to xtaganingiz ma'qul», – deb unga tanboh beradilar.

Nima sababdan bolalar shunchalik qo'rkoq bo'lib goldilar? Ulg'ayganlarida hayotning barcha qiyinchiliklariga bardosh bera oladilarmi? Mardlik – bu boshqalarga yutqazmaslik uchun kurash qobiliyati, kurash esa albatta xavfni nazarda tutadi. Boshidanoq boshqa odamlar bilan raqobatlashishdan chetlashish, xavfli vaziyatlarda ota-ona yoki kattalarga bog'lanib qolish – bunday xulq-atvor nafaqat bolalar, balki yoshlar orasida ham tarqalgan. Bunga ish joyini tanlash eng yaqqol misol bo'la oladi. Yoshlar davlat ishi yoki yirik tashkilotlarga ishlashga boradilar, biron qishda harakat qilmaydilar, professional muvaffaqiyat ychun intilmaydilar. Ular faqat bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishni istaydilar.

Bolalar va yoshlarning bunday ulg‘ayishiga sabablardan birini go‘daklik davrida ularga nisbatan onalarning fe'l-atvori qanday bo‘lganligidan izlash lozim. Bolaga qattiqqo‘lroq bo‘lish kerak bo‘lgan davrda unga ortiqcha g‘amxo‘rlik qiladilar, tarbiyani bog‘cha va mакtabga topshirib qo‘yadilar. Tabiiyki, bunday holatda go‘dak zaif va qo‘rroq bo‘lib ulg‘aya-di. Farzandini o‘z vaqtida qat’iy tarbiyalash o‘rniga unga ortiqcha g‘amxo‘rlik qiladilar, erkalatadilar va bola bunga o‘rganib qoladi.

Bolalar bog‘chasida va maktabda bu odat kuchayadi. O‘qituvchi bolani koyisa, u ota-onasiga shikoyat qiladi, ular maktabga shovqin qilib keladilar. Agar jismoniy tarbiya darsida bola shikastlansa, ota-onas xaratlarni qoplashni talab qiladilar. Shu sababli bolalar-da mustaqillik asoslari va odatlari ham shakllanmay qoladi. Albatta, bu o‘qituvchilarning ham muammosi, biroq faqat ota-onas bolada qat’iyat, qiyinchiliklarga qarshi turish, mardlik kabi hislarini tarbiyalay ola-dilar. Buni uch yoshgacha davrda qilish mumkin.

Atoqli yapon rassomi Meyzi Xasimoto go‘daklikda unga haddan ko‘p g‘amxo‘rlik qilishganini eslaydi va shu tufayli u o‘ta qo‘rroq bo‘lib ulg‘ayganini aytadi. Xasimoto tug‘ilganidan buva va buvisi uni jonidan ortiq ko‘rishgan, o‘n uch yoshgacha buvisi bilan ux-lagan, hamma uni erkalatishar ekan. Og‘ir kunlarda buvasi tayinlagani uchun Meyzining otasi maktabga paxta ko‘rpa olib boribdi. Bu ham haddan tashqari g‘amxo‘rlik qilinganini ko‘rsatadi.

Xasimoto o‘z qo‘rroqligini o‘rta maktabda ham juyquydi va bor kuchi bilan undan qutulishga ha-  
kalot qiladi. Oxir-oqibat o‘zini yenga oldi. U o‘z buvi-  
si va buvasidan ularning mehri uchun minnatdor edi,  
mmo ortiqcha g‘amxo‘rlikdan qutuldi. Xasimoto  
ishlarida yumshoqlik va qattiqqo‘llik uyg‘unlashgan  
ro‘yakrorlanmas olamni yaratadi. Uning badiiy usuli-  
bo‘go‘daklikda olingen tarbiya va rassomning keyingi  
tarakatlari aks etib turadi.

«Oxirgi tomchi piyolani to‘ldirib yuboradi» degan  
soqol bejiz aytilgan emas, hamma ishda me’yorin-  
dan osihgani yomon. Ayniqsa, bolaga ota-onaning  
otiqchisi g‘amxo‘rligi zararlidir. Bola qo‘rroq bo‘lib  
bu oyanida ota-onu bu qo‘rroq va ojiz bolaga yana-  
ko‘proq g‘amxo‘rlik qilishadi, erkalatishadi.

Odmim yosh paytida ko‘p erkalatib o‘stirilgan bo‘l-  
di, u keyin eng ko‘p qiynaladi. O‘zingiz suyadigan  
zolamlarning kelajagi haqida qayg‘uring – buning  
uchun sizga ota-onalik mehr-muhabbati va qattiq-  
qo‘llik kerak bo‘ladi.

## **Go‘daklikda «boladek muomala qilish» mustaqillik kurtaklarini payhon qilishi mumkin**

Chaqaloq o‘sayotganda va rivojlanayotganda ota-onan uning hammasini uddalayotganidan quv nadilar: avval u emaklay boshlaydi, keyin tik turadi so‘ng yurishni o‘rganadi. Tarbiyaning maqsadi bola ga oyoqqa turishga va mustaqil bo‘lishga ko‘mak lashishdir. Bu – ota-onanining asosiy vazifasi sanaladi. Mustaqil bo‘lish asoslari ham bolaga go‘daklikd singdiriladi.

Go‘dak endi yura boshlaganida ota-onan uni qo‘yil yuboradilar, qadamma-qadam yiroqlashadilar, ko‘proq va uzoqroq yurishi uchun unga qo‘l cho‘zadilar Shunday tarzda bola emaklash, turish va yurishi o‘rganadi. Uning aqliy va ruhiy rivojlanishi uchu ham xuddi shunday qilish lozim. Ammo zamonav onalar bola hech narsani anglamaydi deb o‘ylaydila bunday «mashg‘ulotlar»ga beparvo bo‘ladilar va b bilan boladagi mustaqillik kurtaklarini payhon qili qo‘yadilar.

Ota-onanining «u axir yosh go‘dak-ku» degan o‘lashlari bolaning shaxsi rivojlanishiga va unda

mustaqillik shakllanishiga xalaqit beradi. Shuni yana tadorlardimki, qiyofalar davrida bola mustaqillikni (va boshqa barcha narsalarni) xulq-atvor usuli sifatida o'rgunsa, uch yoshgacha uning ongida to'g'ri usul shakllanadi, kelajakda bola o'z oyog'ida mustaqil turadi.

Agar mustaqillik kurtaklari bolaning yumshoq qattiqlashganida ekilsa, undan katta va chiroyli o'smaydi. Hamma bolaning jismoniy rivojlashchi (emaklash – turish – yurish) shartligini tushunarli, biroq ko'p ota-onalar bolalarning aqliy rivojishini teskari tushunadiganga o'xshaydi. Ba'zi onalar o'g'il farzandlariga shunchalik g'amxo'rlik qatladilarki, ularni barcha joyga, hattoki universitet va ishga kirish tadbirlariga kuzatib qo'yadilar.

Zamonaviy onalar «Salom, kichkintoy» qo'shig'i angari farzandi haqida do'st kabi o'ylashlari va shaxs statida mustaqil ekanini yaxshiroq anglashlari lozim deb o'layman.

Zamonaviy jamiyatning katta muammosi – bolalar muktabga borishdan bosh tortmoqdalar. Bu muammoning bir nechta sabablari bor, ulardan biri shundaki, bola muktabga borganida yolg'iz o'zi qoladi. Bundan qo'rqqan onalar nevrozga chalingan holatlar bor deyishadi. Ona o'g'lining mustaqil ravishda muktabga borayotganiga ko'nika olmaydi va uni qo'yib yuborgisi kelmaydi. Shuningdek, yoshlар orasida ishlamayotgan va oila qurmoyotganlar ko'paymoqda. Sababi, onalar o'z farzandlarini «qo'yib yubora»

olmayaptilar. Bunday ona va farzand bog'liqligidan qutulish va bolani mustaqil qilish uchun onaning o'z mustaqil bo'lishi shart. Bolaning mustaqilligi ota ona bolani go'daklikda «qo'yib yubora olish»ga qo'dirligiga bog'liq.

## **Hali gapirishni bilmasa ham, kattalar nima haqida gapirishayotganini tushunadi**

Agar odam bolasi bilan shimpanzening bolasini solishtirsa, shimpanzening IQ darajasi tug‘ilishdan uch yoshgacha bo‘lgan davrda yuqoriroq. Uch yoshdan keyin bolaning IQ darajasi tez o‘sadi va rivojlanishda shimpanzedan o‘tib ketadi. Shimpanze ham o‘nlab muhim so‘zlarni biladi, lekin inson u bilan taqqoslab bo‘lmaydigan darajada ko‘p miqdordagi so‘zlarni qisqa vaqt ichida miyada faollashtiradi va bu IQ darajasi yaxshilanishiga yordam beradi.

Maymun bilan taqqoslanmasa ham, ibridoiy hayot leechiradigan yovvoyi qabilalarni ko‘radigan bo‘lsak, ularning nutqi madaniylashgan insonlarga nisbatan kambag‘al bo‘ladi. Aynan go‘dak eshitadigan va o‘rganadigan nutq uning miyasi rivojlanishida katta ohamiyat kasb etadi.

Biz og‘zaki, ya’ni so‘zlar bilan talaffuz qilinadigan ma‘lumot almashinuvি sifatida muloqotga kirishamiz. Biroq go‘dak bilan u so‘zlashishni boshlagandagina muloqot qilish mumkin degan fikr mutlaqo noto‘g‘ri. Olimlarning aytishicha, hali gapira olmaydigan bola

bilan ota-onas muloqoti uning rivojlanishida juda muhim hisoblanadi.

Yana ta'kidlash joizki, yosh bola gapira olmasa ham, kattalarning suhbatini diqqat bilan tinglaydi va nimanidir tushunadi. Go'dak ona ko'kragini emayotganida ham, biror narsani qiziqib o'ynayotgani-da ham qulqlari hamma narsani eshitadi va miyasi olingan ma'lumotni o'zlashtiradi.

Shveytsariyadagi bir jurnal bu mavzuga doir qator yaxshi tavsiyalar beradi. Ulardan ba'zi birlarini quyida sanab o'tamiz:

- Eshitayotganlarining ma'nosini hali tushunmagani uchun bolani past baholamang. Go'dakning xotirasi u tushunguniga qadar barcha ma'lumotlarni saqlaydi.
- Agar ota-onas nutqida ko'cha gaplari va qo'poliboralar ko'p bo'lsa, bola ona tilining go'zalligini to'g'ri idrok qila olmaydi.
- Bolaning yonida boshqa odamlarni tanqid qilmang. Ayniqsa, u hurmat qilishi kerak bo'lgan shaxslarni, masalan, uning o'qituvchilarini.
- Bolaning yonida oila a'zolari va qarindoshlarni koymang.
- Bolaning yonida boshqa odamlarga uning kamchiliklarini aytmang.
- Bolaga yolg'on gapirmang. Bolalar yolg'ondan nafratlanadilar.
- Bolaga qo'rqinch yoki xavotir singdirishi mumkin bo'lgan so'zlardan tiyiling.

Korrib turganingizdek, kattalarning nutqi bolaga  
Juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'ta ehtiyotkor bo'ling,  
yosh bolalar oldida gaplashayotganda so'z va ibo-  
ralarni tanlab ishlating!

## **Dadil yashayotgan ota-onaning shunday ko‘rinishi ham farzand uchun eng yaxshi ta’limdir**

Turli sohalarda muvaffaqiyatga erishgan insonlardan ularning ota-onalari haqida, ota-onalardan farzandlari haqida so‘radim. Ko‘pgina ota-onalalarini bilan maxsus tarbiya usuli bilan shug‘ullanishmaganini, bolalari yoshlikda g‘ayrioddiy qobiliyatga ega bo‘lishmaganini aytdilar. Hozirda yashas va ta’lim darajasi ularning yoshlik davridagidan yuqoriroq, albatta, shuning uchun bugungi bolalar bilan solishtirish mumkin emas. Avval odamlar faqatirikchilik uchun yashaganlar va bolalar tarbiyasi haqidagi o‘ylashga vaqtlari ham bo‘lmadi. Ammo shunday bolalarning ota-onalari bilan so‘zlashganimda ularning kundalik xulq-atvori bolalar uchun zaru tarbiyani ta’milaganini tushundim.

Masalan, Yosh nasroniy ayollar assotsiatsiya sinining yapon bo‘limi prezidenti Sekii Ayakoninotasi Meyzi davridagi siyosatchi Mori Arinorinin uchinchi o‘g‘li bo‘lgan. U surunkali astma kasalligiga chalinganiga qaramay, butun umr ruhoniyligi bo‘lib ishladi. Pul yetishmas, hattoki ovqatdan ham tejashig

to'g'ri kelardi. Biroq muhtojlar kelib pul so'raganida u rafiqasi oldiga borib qo'lini cho'zar va «50 iyen» deb so'rardи. Ayoli indamasdan unga pul berardi. Bu bolat ko'p takrorlanardi. U paytda bu katta pul edi: to'lyenga bir oila bir oydan ko'proq yashay olardi. Yotinining ota-onasiga juda og'ir bo'lgan va ular har buni bor kuchlari bilan kurashardilar.

Kichik Sekiya ota-onasining bu xulqini ko'rib ulg'ayardi. Albatta, yoshlikda buni anglamasdi, kevinroq ota-onasi to'g'ri ish qilishganini tushundi. Hayotning muhim onlarida ularning siymosi uning o'sinasida aks etardi. O'zini baxshida qilgan cherkov shida bu unga madad berdi.

Bu haqiqiy tarbiya bo'lmay nima? Bunday tarbiya moblag' va mutaxassis yordamini talab etmasa-da, buna qanchalik kichik va uquvsiz bo'lmasin, unga ajoyib ta'sir qiladi. Ota-onaning xulq-atvori bola uchun haqiqiy kitobdir. Bunday tarbiyaning ajoyib ta'siriga misollar juda ko'p. Oddiy ota-onalar qiyin sharoitlarda o'zlarining munosib xulq-atvorlari bilan barzandlariga qimmatli saboq beradilar.

Zamonaviy ota-onalar orasida ham ajoyib insonlar ko'p. Qiyinchiliklarni munosib darajada yenga olmagan ota-onalar hech qachon bolaga kuchli ta'sir ko'rsata olmaydilar.

## **Ota-onaning axloqini kuzatib farzand ularning haqiqatan kimligini tushunadi**

Gazetalarda ba’zida yosh jinoyatchilar haqida hikoyalar chop etiladi. Odatda, ularning ota-onasi: «Biz unga doim bunday qilish mumkin emasligini aytar edik-ku...», degan qabilidagi so‘zlarni aytishadi. Sevimli farzandi uzoqlashib, unga boshqa ta’sir qila olmasligini tushungan onaning og‘rig‘ini begona odam tushuna olmaydi. Ona jon-jahdi bilan bolaning muhabbati va ishonchini qaytarishga harakat qiladi. Albatta, bu juda og‘ir holat.

Ammo har safar ota-onalardan bu kabi so‘zlarni eshitganimda meni bola go‘daklik davrida o‘zlarini uning yonida qanday tutganlari qiziqtiradi. Ehtimol, bola o‘z ota-onasiga qarab ulg‘ayayotganini unutishgandir. Albatta, ba’zida bolaga o‘zini qanday tutish kerakligini aytish juda muhim. Ammo bolalar buyurilgan ishga emas, ota-onaning o‘zini qanday tutayotgанига ko‘proq e’tibor beradilar. Ota-ona ongli ravishda bolaga biror narsa o‘rgatganida bolaning ko‘z o‘ngida o‘qituvchi yoki buyruq beruvchi rahbar siy whole side of the page is covered with a faint watermark of a traditional Central Asian architectural element, possibly a madrasah or mosque facade, featuring intricate geometric patterns and arches.

ravishdagagi tarbiya bilan emas, o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lganlarida esa ular xursand va xafa bo'ladigan, azob tortadigan yoki quvnaydigan oddiy odamlar, bir so'z bilan aytganda, umrguzaronlik qilayotgan insonlardir. Bolaning tasavvurida ham shunday gavdalanadi.

Ota-onaning tabiiy xulq-atvorida (bola uchun yuqorida aytilgani kabi biror-bir mavqeda bo'lmaqda) ularning haqiqiy hayotiy tamoyillari ko'rindi. Bola barcha narsani o'z ko'zi bilan kuzatib turadi. U ulg'ayish jarayonida ota-onanidan aslidan yax-shiroq qilib ko'rsatish uchun o'ylab topilgan shaklerni emas, balki ularning haqiqiy shaklini xolisona baholaydi. Ba'zi ota-onalar hatto o'zlari sezmagandirida ham bolalar uzlusiz ravishda ularni kuza-tishayotganini tushunmaydilar.

Garchi ota-onan farzandining yonida o'zini raso qilib ko'rsatsalar-da, chetdan kuzatuv paytida ularning haqiqiy axloqi bunga to'g'ri kelmaydi va bola o'z ota-onasini hurmat qila olmaydi.

Tubiiyki, o'zining xulq-atvori boshqacha bo'lgani holda, bolaga halol va to'g'ri yashash zarurligini so'z bilan uqtirib bo'lmaydi. Istalgan joyda va vaqtida asl yuzini bolaga ko'rsatishdan uyalmaslik uchun ota-onan o'zlarining hayotini tartibga keltirishlari shart. Qolban qo'llari bilan xudoga sajda qilayotgan ota-onan ko'rinishi, kechalari bilan qattiq ishlaydigan ota-onan ko'rinishi va farzandini himoyalab oldida turgan ota-onan ko'rinishi – bularning bari muhim va go'zal jihatlar sifatida bolaning qalbida qoladi.

## **Ona qo‘rqadigan narsadan bola ham qo‘rqadi**

Bu hikoyani bir tanishimdan eshitgan edim. Tokio yaqinidagi shaharchada balandlikdan qo‘rqadigan bir ayol yashar edi. U shu qadar qo‘rqar edi-ki, uchinchi qavat oynasidan pastga qaraganda ham oyoqlari titrar va ko‘zлari qorong‘ilashib ketardi. Shu sababli ko‘pqavatli uyda yashay olmasdi, er-xotining, noqulay bo‘lsa-da, markazdan uzoqda joylashgan shaxsiy uyi bor edi. Ularning uch qizi bor edi, katta qizga balandlik qo‘rqinchi o‘tgan bo‘lib, daraxtlarga va narvonga qiyinchilik bilan chiqardi. Ona bunda o‘zining mas’uliyatini his etdi va qizi bilan tog‘ga chiqishga qaror qildi. Biroq ular osma ko‘prikan o‘ta olmasdan, kanat arqonlarni qattiq ushlab to‘xtab qolishdi.

Ayol sabab o‘zida ekanini anglab, o‘z qo‘rqinchini ko‘rsatmay, uni jon-jahdi bilan yengib, ikkinchi qizini baland joylarda olib yura boshladi. Bu sa'y-harakat o‘z natijasini berdi, ikkinchi qizi balandlikdan umuman qo‘rqmay qo‘ydi.

Demak, katta qizining balandlikdan qo‘rqishiga sabab onasining qo‘rqinchini ko‘rganligi edi. Osma

o'rnidan o'ta olmay qo'rqinchdan titrab turgan  
masini ko'rgan har bir go'dak baland joylar juda  
qo'rqinchli deb o'laydi. Aytishlaricha, onaning  
o'stingan ovqatlari bolaga ham o'tadi. Xuddi shu-  
ningdek, ona nimadan qo'rqla, bola ham shu narsa-  
ni qo'rqladi, nima onani xursand qilsa, bolani ham  
qonotiradi.

Bu mavzuni AQShda o'n to'rt haftalik chaqaloq-  
lari suzishga o'rgatuvchi Perkins ko'tarib chiqqan  
di. Uning aytishicha, bolaning emas, balki onaning  
qo'rqinchini davolash kerak. Agar onasi qo'rqla, suv  
bo'ypda salbiy tasavvurga ega bo'limgan go'dak suv-  
ton qo'rqlishni boshlaydi, chunki u onasining be-  
sotiligini va qo'rqinchini sezadi.

Onasi tufayli bolaning imkoniyatlari to'liq ochil-  
mosligi juda ayanchli holatdir. Onalar jasorat to'plab,  
dorni ushlab turuvchi bu kabi kishanlarni parchalab  
tashlashini istardim.

## **Tarbiyada onaning o‘z farzandiga odatiy ko‘z bilan qarashi yaxshi emas**

Bola tug‘ilgan zahoti onaning hayotida har kuni nimadir o‘zgaradi va u bu o‘zgarishlarga moslashishi kerak. Ayniqsa, chaqaloq oilada birinchi farzand bo‘lsa, bu jarayon yanada kuchli va ta’sirliroq kechadi. Bola ichadigan sut miqdori, uning uqlash vaqt hojatga chiqishi, yuz ifodasi, yig‘lagandagi tovush – bularning bari bolaning har kungi rivojlanishida dalolat beradi. Albatta, bolaning rivojlanishiga yetirolish uchun onadan katta harakatlar talab etiladi.

Ammo bola 3 oylik, 6 oylik, 1 yashar bo‘lganida tabiiyki, tug‘ilganida darhol yuz beradigan o‘zgarishlar u darajada bo‘y ko‘rsatmaydi. Rivojlanish tezlig sekinlashadi va barqarorlashadi – bu tabiiy jarayon. Shu sababli ona bolaga o‘rganib qoladi va unga bo‘lgan qarashi «xiralashadi».

Odamlar ahamiyatsiz o‘zgarishlarni sezmaydilar va mayda narsalardan hosil bo‘lgan keskin o‘zgarishlarni ko‘rish qiyin bo‘ladi – psixologlar insonning bi xususiyatiga uzoq vaqtlardan beri e’tibor bergenlar Boladagi o‘zgarishlarni uni har kun ko‘rvuchi onemas, ba’zida keluvchi mehmonlar ko‘ra oladilar mana shunday qiziq holat.

Jukuba universiteti professori Xarano Kotaro bu haqida shunday yozadi: «Onaning o‘z bolasiga odatiy qaroshi yomon. Shu sababli ona undagi ijodiy kurtaklarini noziridan chetda qoldirishi mumkin. Hatto bolaning nutqida doimo nimadir yangi narsa paydo bo‘labdi. Itto‘ni bolalarga tabiat, dunyoning ajoyib tuzilishi borchali ta’sir ko‘rsatadi. Bola tajribadan o’tkazadigan borchali yangi narsa xulq-atvorida kichik o‘zgarishlari namoyon bo‘ladi. Bu avval aytmagan, qilmagan va his etmagan narsadir. Ota-onalar, odatda, bu ajoyib o‘zgarishlarni, uning rivojlanishini ko‘rmaydilar».

Hoshqacha qilib aytganda, janob Xarano uqtirganidek, o‘zgarishlar asta-sekinlik bilan yuz bergan tez esa ham, diqqat bilan qarasangiz, bolaning kunda bixiyoti har lahzada o‘zgarib boradi. E’tibor bilan qarasangiz, har doim hamma joyda yangi kashfiyotlar mavjud, ularning har biri bolaning o‘sayotgandan dalolat beradi.

Bu o‘zgarishlarga ona o‘z vaqtida e’tibor qaratishi bolaning kelgusi rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. U biror yanagi narsanga qiziqqan yoki biror narsa qilishni o‘rgangan vaqtida ona uning qiziqishini ko‘ra olmasa, uning muvaffaqiyatiga xushnud bo‘lmasa, bolada qiziqish so‘nali, ko‘ngli qoladi. Ona sabr-toqatli bo‘lishi, farzandini tarbiya qilish borasida o‘ziga ishongani yaxshi. Ammo qiziqishi so‘ngan bola bunday odat bilan sezgirlikni yeqotsa, bu hol uning rivojlanishiga to‘siq bo‘ladi.

Bunday bo‘lmasligi uchun bolaning hozirgi holatini bir necha oy avvalgi holati bilan solishtirish zarur.

## Bola tarbiyasi uchun ota-onaning vazifalari aniq bo'lingani yaxshiroq

Bola tarbiyasi uchun (xuddi uning tug'ilishi kabi) ota-ona ikkovi jamoa bo'lib ishlashi zarur. Bi-roq oxirgi paytda ko'pchilik bu hamkorlikni noto'g'ri tushuna boshladi.

Erta rivojlanishga ota-onalarda qiziqish ortdi. Otalar hozirda farzandlarini «tashlab qo'ymayaptilar» va tarbiya masalalarini butunlay o'z ayoliga qoldirmayaptilar. Fikrimcha, bu ajoyib holat. Ammo hamkorlikda tarbiya qilish ma'nosi noto'g'ri tushunilsa, ota<sup>1</sup> ona o'rnini bosuvchi shaxsga aylanib qolishi mumkin.

Masalan, ba'zi yosh onalar zamonaviy demokratik oilani quyidagicha tasavvur qiladilar: ota va ona bolaga birga g'amxo'rlik qiladilar, ularning o'rniga erkak bolaning tagliklarini almashtiradi, idishchadan sut beradi va hokazo, o'zlari esa dam oladilar va o'z ishlari bilan mashg'ul bo'ladilar. Albatta, birinchi marotaba ona bo'lgan ayolga arning yordami zarur.

<sup>1</sup> Albatta, hozirgi kunda bola tarbiyasida ota vazifasiga kengroq qaralmoqda. Unga muhim vazifa ajratilgan, uning xatti-harakati, oila ishlari da qatnashishi, ruhiy holati va ochiq muloqot qilishga tayyorligi farzand uchun muhim hisoblanadi.

Ammo, fikrimcha, onaning vazifalarini ota bajaradi-  
ni bu tarzdagи hamkorlik noto'g'to'ri yo'lga qo'yil-  
gan hamkorlik, jiddiy xatodir.

Ota ona birgalikda harakat qilganidagina bola  
tarbiyasida ota haqiqatan ishtirok etadi. Har qanday  
haroritda ikkisi ham o'z vazifasini yaxshi bajarishi  
va o'z roldan chiqmasligi muhim hisoblanadi. Faqat  
ona qila oladigan vazifalar borki, bu ishni otaga yuk-  
lab foydasiz va bema'nilikdir. Otaning ham faqat u  
bajarla oladigan muhim vazifalari bor, ammo u ona-  
ning ishlarini bajarishga ko'nadi va o'z vazifalariga  
ba'pyarvolik qiladi.

Uch yoshgacha go'dak miyasida neyron aloqalar  
bo'lib bo'ladi. Shu davr mobaynida onalar farzan-  
ti bilan aloqasini hech kimga bermaslikka tayyor  
ishlilarini xohlardim. Otalar onalarga bolani tar-  
biyalashning bunday muhim vazifalarini bajarishda  
yordam berishlari, bor kuchi bilan onani ham ruhan,  
moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari zarur.

O'n yil mobaynida men yosh bolalar tarbiyasi  
o'z sohasining eng kuchli mutaxassislarini bi-  
tun suhbatlashdim. Ular ham kasb ishida, ham shaxsiy  
tayyorda muvaffaqiyatga erishganlar. Ularning yoshligi  
baqida gaplashib, bola tarbiyasida otaning ahamiyati-  
ni to'g'ri tushunish naqadar muhimligini angladim.

«Ota siymosi» kitobida tanqidchi Kusayanagi  
Deyzo bolalar tarbiyasida otaning o'rniغا quyidagicha  
ba'ho beradi: «Yordam berish, ammo aralashmaslik».  
Donyodagi barcha yaxshi ota-onalar bu tamoyilga

amal qiladilar. Masalan, Suzuki Mitiyoning ota-onasi ana shunday insonlardan edilar. Suzuki – sakki o‘g‘ilning eng kattasi «Mercian Corporation»ning prezidenti, keyinroq maslahatchisi bo‘lgan. Unim barcha ukalari muvaffaqiyatga erishganlar: ulardan biri mashhur universitet professori bo‘lgan, qolganlari yirik kompaniyalar prezidentlari bo‘lganlar.

Suzuki Mitiyoning otasi – Suzuki Tyudi yirik tad birkor edi. U «Azinomoto» kompaniyasini tashkil etgan, «Syova Denko» kompaniyasi prezidenti bo‘lgan. Barcha tadbirkorlar kabi u juda band bo‘lgan, chetdan qaraganda uyi va farzandlari haqida o‘ylamayotgandek ko‘rinardi. Ona esa, aksincha, bolalari uchun hamma narsa qilar, juda mehribon edi, doimo kulih turardi.

Band ekaniga qaramay, ota oilasi bilan kechki ovqatni birga tanovul qilishga intilar va ayolidan farzandlarining ishlari haqida bilib turardi. Oddi holatlarda hech narsa aytmasdi, ammo bolalar xunu qiliqlar qilishsa, onasining aytganini bajarishmasa yalqovlikka yo‘l qo‘yishsa, ota ularni ayab o‘tirmasdi. Ona tarbiyaning mayda muammolariga otani jalb qilmas, ammo muhim paytlarda doim unga suyanardi. Ota-onaning vazifalarni to‘g‘ri taqsimlashi va ham korlikdagi ishlari tufayli barcha farzandlari ajoyil insonlar bo‘lib ulg‘ayishdi.

Farzandlar tarbiyasida ota-onasi ishtirok etish shart, muhimi – vazifalarni to‘g‘ri taqsimlash. Ham korlikda tarbiya qilishning ma’nosini ham shundadir.

## **Obro'sini yo'qotgan onanining farzandi faqat xudbin bo'lib ulg'ayadi**

Onanining hayoti bola atrofida mujassamlan-  
gan bo'indi. Ammo u o'zining onalik obro'sini ham  
saqlashi shart. Ko'pincha onalar bolaga g'amxo'rlik  
savonida (ayniqsa, yosh go'dak bo'lsa) uning barcha  
istohlalarini bajarishadi. Natijada o'zidan boshqani  
o'yinmaydigan xudbin farzandlar ulg'ayadi. Bu hozir-  
da dozarb muammolardan sanaladi.

Ispaniyadan kelgan bolalar tarbiyasi bo'yicha mu-  
tavassus, Yaponiyadagi bolalar bog'chasida o'n yil at-  
rofda rahbar bo'lib ishlagan Antonio Kobos bu haqda  
menga so'zlab bergen edi. Oxirgi paytda yosh yapon-  
dar juda xudbin bo'lib qolishdi, atrofdagi odamlar ha-  
qida o'ylamay qo'yishdi. Kobosning fikricha, bunda  
asosiy sabablardan biri onanining xulq-atvordini.

Yapon onalar farzandlari bilan negadir o'zlarini  
dadil his qilmayotganlari, hamma narsadan doimo  
savotirda bo'lishlarini xorijlik chetdan yaxshi ko'ra  
oladi. Masalan, quyidagi vaziyat: ona bolani bolalar  
bog'chasidan kutib olishga ketyapti. Uyida mehmon-  
lari bor edi va bir necha daqiqaga ushlanib qoldi. Al-

batta, bola xavotirda, kutyapti, ko'zlar namlangan. Ona keladi va: «Bema'ni onangni kechir», – deydil. Xuddi begona kishi kabi o'z farzandi oldida uzoz muddat o'zini oqlaydi. Bunday onaning farzandi barabora agar biror ish o'zi istaganidek ketmayotgan bo'lsa, hamma aybdor – ota-onam, kattalar, boshqa odamlar deb o'ylay boshlaydi.

Bolalar go'daklikdan jamiyatdagi hayotning asosiy qoidalarini uqib olishsa, keyinchalik mas'uliyaligi shaxslar bo'lib ulg'ayishadi va doim mustaqil fik yuritishadi. Bunday bolalarning onalari bolanini ko'z o'ngida onaning obro'si qanchalik muhim ekanini tushunadilar. Kobosning so'zlariga ko'ra, oni boladan ustun shaxsdir. Uyda doim boladan ko'ra ona ulug' degan ruhdagi muhit bo'lishi kerak. Yevropada bolalarni ota-onalari Xudoning qo'llari orqali tarbiyalashadi deb hisoblashadi. Bunday muhim vazifaga ega bo'lgan ona, tabiiyki, Xudoning vakili sifatida hurmat-e'tibor va obro'ga ega bo'lishi zarur.

Yaponiyada bunday diniy qarash mavjud emas, ammo bola tarbiyasiga kelsak, onadan talab qilinadigan narsa Xudo vakiliga yaqin bo'lishda davom etishdir. Onalarga qarata: «Bolalarni tarbiya qila yotganda qanday muhim vazifani bajarayotganingizni unutmang va o'z qadringizni biling. O'zingizg'ishonning, shunda o'z obro'yingizni saqlaysiz», degan bo'lardim.

## **Ilmsiz ota tarbiyalagan bolaning ijtimoiy qobiliyatları rivojlanmaydi**

Aytib o'tganimizdek, go'dak tarbiyasida ota-onalarning ihtirok etishi va ularning vazifalari aniq taqdirlangan bo'lishi kerak. Agar ota o'z majburiyatlariga mas'uliyatsizlik bilan qarasa, bu bolaga qanday ta'sir qiladi?

Deylik, ona bolani emizadi, tagliklarini almashtiradi, unga g'amxo'rlik qiladi. Ko'pchilik ona shu ishlarni bolar, bola otasiz ham ulg'ayishi mumkin deb o'laydi. Psichologik jihatdan, albatta, mumkin. Odam tirik qolish uchun zarur ko'nikmalarni o'rganadi, bunda unga ko'mak beradi. Bolaning ruhiy rivojlanishi va ijtimoiy qobiliyatları mukamallashganida ota-onalarning vazifasi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

O'ziziq fakt: maymunlar guruhining ijtimoiy tuzilishi haqida alfa-erkak vazifasini bajaruvchi bor, ota dekan tushuncha yo'q. Albatta, urg'ochi maymun bola bo'lishi uchun uning yonida erkak maymun bor. Birroq tug'ilgan maymunning otasi qaysi maymunligi aniq ma'lum emas. Ma'lum bo'lganda ham, ota vazifasini, ya'ni ovqat topish va himoya qilish vazifasini bajaruvchi aniq bir erkak maymun yo'q.

Kioto universiteti faxriy professori Kawai Masao ning so'zlariga ko'ra, hayvonlar olamida odamlar tushunadigan ma'nodagi ota tushunchasi mavjud emas. Odamlarning farqli jihat shundaki, biz jamiyat hujayralari – oilalar barpo qilamiz, ular jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta'minlaydi. Ota tushunchasi (bizning tushunchamizga ko'ra) aynan shu sababli paydo bo'lgan.

Inson va hayvon o'rtasidagi eng katta farqlardan biri bizda otalikning mavjudligidir. Yovvoyi qabilalarning oilasi biznikiga o'xshamaydi. Biroq ularda ham ona va ota to'g'risida aniq tushuncha bor. Ona va bola aloqasi har bir hayvonda instinct darajasida – bu ochiq-oydinligi ma'lum. Inson sifatidagi ota ning mavjud bo'lishi esa ijtimoiy tuzilma kabi tizimlar, ya'ni ba'zi kelishuvlar asosida o'rnatilgan aloqalar orqali vujudga kelishi mumkin.

Boshqacha qilib aytganda, oilada ota «jamiyat»ni, uning shaxsi «tizim» va «qoidalar» degan tushunchalarni qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan qaralsa, bola tarbiyasida otaning vazifasi tushunarliroq bo'ladi. Bola tarbiyasiga ota e'tibor qaratganida bola tabiiy ravishda «jamiyat» va «tizimlar» tushunchalarini o'zlashtiradi, ya'ni insoniy jamiyat qonunlari ga asosan yashashni o'rganadi. Agar ota bolasi bilan qiziqmasa, bolada «ijtimoiy instinct» tushunchasini tarbiyalash ancha mushkul kechadi.

## Bola muvaffaqiyatini kutib qilingan turbiya muvaffaqiyatli bo'lmaydi

Ta'lim sohasidagi haddan ortiq raqobat va buning natijasida gullab-yashnayotgan turli tayyorlov burchaları – hozirda ularni faol tarzda tanqid qilyapti – doim qaynoq va bu jarayon davom etmoqda. Birinjihozirda ham ko'pchilik kichik yoshdagи bolalarni qutubini (xuddi universitetga kirish uchun tayyor-qilish kabi) imkon qadar ertaroq boshlash kerak deb saylaydi. Aslida bola obro'li maktabga kirishi uchun balki yaxshi va qobiliyatli inson bo'lishi uchun tarbiyasi bilan shug'ullanish kerak. Ammo bu sayov atrofida tortishuvlar to'xtamayapti. Erta tarbiya tushvishiga tushgan ota-onalar, baribir, obro'li farzandimga eng yaxshi kompaniyalardagi tashrif tа'minlaydi deb hisoblaydilar. Bunday fikrlash tarzi odamlar ongiga qat'iy o'rнashib bo'ldi.

Ota-onalar menga: «Biz axir bola uchun hamma narmani qilamiz, biz unga yaxshilik tilaymiz», – deb javob beradilar. Ayniqsa, meni «bola uchun» degan so'zlar hayajonlantiradi. Albatta, barcha ota-onalar farzandlarning muvaffaqiyatlaridan xursand bo'ladilar, ummo ular haqiqatan ham buni faqat «bola

uchun» qiladilarmi? Ba'zida bu so'zlarda ota-onalarining oshirib yuborilgan istaklari borligi seziladi go'yoki ota-onalar o'zлari erisha olmagan umidlarining amalga oshishiga farzandlarini mas'ul qilish qo'yadilar.

Boshqacha aytganda, ota-onalar farzandlarini katta muvaffaqiyatga erishuvchi qilishga intilib qariganda to'kin-sochin hayotda buning rohatini ko'rishni xohlaydilar – bu fikr ular ongingin qaysidi puchmoqlarida yashaydi. Men eskirgan ma'naviy tamoyillar yoki fidokorona qurbanlik g'oyasini targ'il qilmoqchi emasman. Oddiygina e'tibor qaratmoqch bo'lgan narsam shuki, ota-onalar farzandini qanchalik muvaffaqiyatga erishuvchi qilishni istasa, bung yetish shunchalik qiyinroq bo'ladi.

Bolaning muvaffaqiyatidan foyda ko'rishni ko'zlagan ota-onalar orzusidagi muvaffaqiyat haqida bironaniq tasavvurga ega bo'ladilar. Eng oddiy misol obro'li maktab bola uchun eng yaxshi kompaniyalar da ishslash uchun «yo'llanma»ni kafolatlaydi. Ammo haqiqiy muvaffaqiyat shu bilan belgilanadimi?

Ota-onalar tasavvurida bunga «ha» degan javob bor, axir bu ularga tashvishsiz hayotni ta'minlaydi. Ammo haqiqatan ota-onaning rohatda yashash mumkin bo'lgan kelajakka eltuvchi bola tarbiyas degani ota-onalar tasavvuridagi obraz emas, balki bolaning o'z shaxsiy obrazi orqali erishishi hisoblanadi deb o'ylayman. Mana shunisi haqiqiy muvaffaqiyatdir. Ota-onalar qilishi mumkin bo'lgan eng yaxshi ishl

ularning asosiy maqsadi bolaga ixtiyoriy ravishda bar qanday sohada ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradigan poydevor yaratishdan iborat. Agar bolalar yaxshi tarbiya qilinsa, u o'zi muvaffaqiyatga erishadi. Mabodo avvaldan uni ota-onasiga istagidaganidek bitta muvaffaqiyatga erishuvchi qilish maqsad qilinadi, buning aksi – uning butun imkoniyatini barbosha qilish ham hech gap emas.

## O‘rgatishdan ham ko‘ra taqiqlashni afzal ko‘rsatgan ma’qul

Maymunlar tarbiyasi haqida ko‘p qiziq ma’lumotlarni Kioto universiteti faxriy professori Kavai Masaodan bilib oldim. Maymun bolalari tug‘ilgani zahoti maxsus holatda bo‘ladilar: ularga istagan narsalarini qilishga ruxsat berishadi va jazolashmaydi. Ammo 4-5 oylargacha ular biror yomon ish qila olmaydilar, faqat sut ichadilar. 5-6 oylik paytida maymun bolalari asta-sekin mustaqil bo‘la boshlaydilar. Ammo maymunlar qanday qilish kerakligini ko‘rsatish, nima yaxshi ekanini tushuntirishni uddalolmaydilar, shuning uchun ular bolalarining xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatib, ular biror yomon ish qilmayotganlarini tekshiradilar. Yaqin orada xavf tug‘ilsa, ona bolasi ni oyog‘idan ushlab, qo‘li yetadigan yaqinroq joyga o‘tkazadi. Bolasi uning yonida istagan ishini qiladi. Bolasi ulg‘aygani sari masofa ham kengayib boradi. Bu qoidaga barcha ona maymunlar amal qiladilar.

Inson bolasini maymun bilan solishtirishni bema’nilik deyish mumkin, lekin men hozirga qadar erta ta’lim bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarim nati-

oldan ikki-uch yoshgacha bo'lgan bola tarbiyasini maymun bolalarining holati bilan bir xil qabul qilish mayzuni to'g'ri yoritishda yaxshi tanlangan qiyos deb saylayman. «Ayiku» klinikasi faxriy bosh shifokori Dzyusitironing so'zlariga ko'ra, ikki yoshida ona orbitasi chegarasida harakat qila olishi mumkin bolalar asta-sekin bu hududdan chiqqa boshlaydilar. Bu davrda bola o'z huquqlarini talab qilishni boshlaydit ona «bunday qil» deb aytsa, bola «yo'q» deydi. Bu davrdagi tarbiya siri shundaki, bola ona atrofida qylansin», belgilangan ona orbitasi chegarasidan hujariga chiqishiga ruxsat bermaslik lozim.

Ona va bola o'rtasidagi bu munosabatlar ona maymun va uning munosabatlarini eslatadi. Bu esa maymurlardan o'rnak olish masalasi emas. Ammo ba'zi onalar maqbul xulq hududini aniqlaganda shu chegarada bolaga harakat erkinligini bermaydilar. Bola mustaqil harakatlanishni boshlaganida bir ona ortiqcha xiyotirlanib uni eski orbitasiga qaytaradi, boshqa esa, aksincha, ortiqcha uzoqqa qo'yib yuboradi uning tarbiyasi bilan umuman shug'ullanmaydi.

Bduxsiy irodasi kurtak otayotgan go'dakka o'z xobichiga ko'ra ozgina bo'lsa ham harakat qilishga ruxsat berish kerak, ammo mustaqil yomon ishlar qilishiga yo'q ymaslik zarur, chunki u hali kichkinadir. Ha, kibir bola «buni qil» degan buyruqlarni tushunmaydi, shuning uchun «qanday qilish kerak»ligini o'rgatishdan ko'ra ota-onada bola harakatlarini kuzatishi va no'g'ri harakatlarini to'xtatishi lozim.

## **Onaning vazifasi – cheksiz rag‘batlantiruvchi omillardan eng yaxshisini tanlab olish**

Kichik bola miyasiga imkon qadar tezroq uning rivojlanishini rag‘batlantiruvchi va qobiliyatini ochib beruvchi turli ma’lumotlar berilishi kerak. Hozirgi kunda ko‘pchilik bu fikrimga qo’shiladi. Biroq hali ham go‘daklikda katta miqdordagi ma’lumot berilishiga qarshi bo’lgan insonlar oz emas. Ularning fikricha, ortiqcha ma’lumot berishdan biror yaxshina narsa chiqmaydi. Yana kimdir bola yoshligidan binechta tilda so‘zlashishni o‘rgansa, uning boshida hamma narsa aralashib ketadi deb fikr bildiradi.

Ko‘pchilik psixologlar va miya fiziologiyasi bo‘yicha mutaxassislarning fikriga ko‘ra, yuqoridagi xavfsi-rashlarni tasdiqlovchi biror-bir dalil yo‘q. Buning aksi, go‘daklikdan miyaga keluvchi foydali ma’lumotlar bolaning qobiliyatlarini ochadi va unda mustaqillikni rivojlantiradi. Ko‘p bolalar go‘daklikdan ingliz tilini o‘rgangani va ma’lumot ortiqchaligidan yapon tilida muammoga duch kelganini eshitmaganman.

Biz bu mavzuni Xosey universiteti professori, miya fiziologiyasi bo‘yicha mashhur mutaxassis Tibo

Yonini bilan muhokama qilgan edik. Ilmiy nuqtayi  
ko'ra, inson doim atrofdagi olamdan ko'p  
moglordagi rag'batlarni qabul qilishga mo'ljallan-  
gan bolalar ham bundan istisno emas.

Boshqacha qilib aytganda, istaysizmi-yo'qmi, go'-  
har soniyada atrofdan juda ko'p ma'lumot ola-  
di. Itaq'batlar ortiqcha darajada ko'p bo'lsa, miya  
qayta ishlamaydi, agarda yetarli bo'lsa, bola  
ma'lumotni o'zlashtiradi. Savol shundaki,  
ma'lumotni qandaydir shaklda ajratish kerakmi?  
agar bolani yoqilgan televizor oldida qoldir-  
qanday dastur bo'lmasin, u barcha ma'lumot-  
ni sifodirib oladi. Bu yerda farq bola uchun yaxshi  
dastur tanlashingiz yoki boshqa yaxshi va turfa man-  
tadidan ma'lumot olishida bo'lib, ma'lumotlarning  
kamligi biror muammo keltirib chiqarmay-  
di debi o'ylayman.

Agor ko'p ma'lumotdan birorta zarar mavjud  
zamonaviy odamlar tug'ilgani zahoti  
ortiqchaligidan aziyat chekishardi. Tananing  
biror-bir jismoniy ta'mirda bo'lish holati – bu  
masala. Biz esa miyaning rag'batlantiruv-  
tari haqida so'z yuritmoqdamiz. Albatta, kichik  
miyasi olingan ma'lumotni tanlab qabul  
mumkin. Masalan, bolaga biror narsa yoqma-  
qanchalik majburlamang, uni o'rganmaydi. Ona  
uchun eng yaxshi narsani tanlashi va unga  
ma'lumot sifatini kuzatib turishi zarur.

## **Kichik bolalarni to‘g‘ri rivojlantirish bo‘yicha birorta darslik yo‘q**

Go‘daklikdagi tarbiya haqida gapirganimda menga doim: «Bola bilan qachon nima qilish mumkinligi bat afsil yozilgan biror-bir darslik tavsiya qiling», deyishadi.

Haqiqatan ham, Bolalar erta rivojlanish assotsiasi siyasida (kengash rahbari hisoblanaman) bizning tarbiyachilarimiz ishlab chiqqan o‘quv rejalarini bo‘yicha go‘daklar uchun mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. «Bolning erta rivojlanishi» jurnalida va «Uchdan keyin kech» kitobida turli yo‘nalishlar va tarbiya usullari keltirilgan. Biroq sanab o‘tilganlardan hech biri savolga yetarli darajada javob bo‘lilmaydi. Bunda savollar paydo bo‘lishiga sabab ularga javob yo‘qligidadir. Agar tayinli javob bo‘lganida bu kitobda yozilgan barcha ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqishimga to‘g‘ri kelardi.

Kichkina go‘dak bilan nimani qachon qilish yozilgan aniq reja tuzish mumkinligi to‘g‘risidagi fikr mening prinsiplarimga zid, albatta. Men jon-jahdim bilan shu nuqtayi nazarga qarshi kurashdim va

bolalar ta'lim-tarbiyasiga yangi yondashuv chiqdim. Bola bo'lgani uchun unga ertak ayub berib, chiziqli belgilari kam bo'lgan kana yozuq qorqali o'rgatish g'oyasi noto'g'ri, buni «Uchdan bevin kech» kitobida yozgan edim. Shunga qaramay, darslik» to'g'risida savollar to'xtamayapti, chunki homma yosh bolalar tarbiyasini mакtab ta'limi, ya'ni asdiqlangan darslik va o'quv rejasi kabi tasavvur qiladi.

Hajiqatan ham, mакtab ta'limida o'quv rejalari va surʼ materiallar kerak, biroq men taklif etayotgan yoshdagi bolalar rivojlanish usuli bola miyasini ma'lumot bilan to'ldirishni nazarda tutmaydi. Uchkinma bolalarga faqat yosh bolalar ashulalarini boshqa, balki odatiy musiqani eshittirish yoki ba'zida morakkab so'zli kitoblarni o'qib berish lozim. Shu bolaning miyasiga ko'proq rag'batlantiruvchi surʼlar ta'sir etadi va uning imkoniyatlarini ochishga qo'shadi. Shu tariqa keljakda ko'proq ma'lumot qabul qilishi uchun miyada poydevor (neyron atsja) hosil bo'ladi.

Darsliklar bunga faqat xalaqit beradi. Birinchidan, darslik – bu standart, ma'lumot tanlashda ota-onalarni chegaralaydi va biror qiziq narsa bola nazaridan qolishi mumkin. Ikkinchidan, har bir bola moyobdir, shuning uchun unga ma'lumotlarni faqat tanlashi mumkin. Darslikni (agar mavjud bo'lga) ishlatish bola tarbiyasini boshqasiga topshirib qo'yishni anglatadi. Ta'bir joiz bo'lsa, yosh go'dak

uchun eng yaxshi darslik uning ota-onasidir! Barcha ota-onalar bir-biridan farq qiladilar, shuning uchun qancha ota-onalari bo'lsa, shuncha «darslik» mavjud desak yanglishmaymiz. Shu tufayli ham dunyoda insonlar shunchalik turfa va har birimiz alohida baxtgan egamiz.

*Vodovim!*

Dugun

Qoqt sendan

Bozashim mumkin:

Dolam kasal.

*Tsikava Takuboku*

Ushor yomg'iri

Och kun davomida

Serni gullar bilan bezatdi.

Dolaga qarasam,

Bo'nglim yashnab ketadi.

*Tosano Tekkan*

Dambukning kichik niholi

Qomonga bo'y cho'zadi.

Dolalar, sizlar ham

Dolandlikka o'jarlik ila

Qalb va tanangiz bilan intiling.

*Takayama Bokusuy*

Ko'zlarimni yumaman.

Ilutun kuchim bilan siqaman

Oo llar ila yelkalarimni.

Delayman sog'inib:

Oodak yonimda emas.

*Tsikava Takuboku*

O'z farzandlaringizga  
Yomon nom  
Qoldirmang,  
Aytgandi dadam.  
Kim otasining so'zini tinglamadi?

***Yosano Tekkan***

## IKKINCHI QISM

Go‘dak uchun faqat  
qulay muhitni  
yaratish

*Bola qobiliyatlarini qanday  
ochish mumkin?*



## **To‘g‘ri tarbiya qilingan to‘ng‘ich farzand kichiklariga ijobiy ta’sir qiladi**

Bir muddat avval men rahbarlik qilayotgan Bolalar erta rivojlanish assotsiatsiyasida tadqiqotda ishtirok etish uchun homilasi sakkiz oylik 1000 nafar ayol orasidan 15 nafarini tanlab oldik. Mening tarbiya usulimga rozi bo‘lgan onalar o‘z xohishiga ko‘ra ushbu usulni har kuni amaliyotda qo‘lladilar. Keyinroq ular shu kitobda keltirilgan nuqtayi nazarimni tasdiqlaydigan xulosalarini yozib yuborishdi.

Mening farzandlarim anchayin avval ulg‘ayib bo‘lishgan, shuning uchun bu xulosalarda ko‘pgina ajoyib va kutilmagan kashfiyotlar qildim. Bir necha onalar – tadqiqot ishtirokchilari bilan shaxsan muloqot qildim. Ular go‘dak tarbiyasida akalar va opalar (ayniqsa, eng to‘ng‘ich farzand) ta’sirining ahamiyati naqadar muhim ekanini tushunishimga yordam berishdi. Qaysidir ma’noda oiladagi katta farzandlar go‘dakka ota-onadan ham ko‘proq ta’sir ko‘rsatadilar. Bu ta’sir yaxshi ham, yomon ham bo‘lishi mumkin.

Bir ayolning aytib berishicha, katta qizi tarbiyasi ga ko‘p kuch sarf qilgan, keyingi farzand tarbiyasi esa

jablonarli tarzda oson kechibdi. Opasi kichigi haqida yamxo'rlik qilgan va hamma ishni birga bajariish olib. Sayrdan qaytishganida kattasi singlisining qolini yuvdirib, stol yoniga o'tqazgan, ovqatlanishidan keyin o'ynatibdi. Onasi kichik farzandiga buni qil, uni qil» deb aytishiga hojat ham qolmabdi. U doim opasining ortidan takrorlab, hech bir mabsutatsiz ko'p narsalarni o'rganib olibdi.

Itareha onalar bir ovozdan akalar va opalarning turbiyasiga ta'siri naqadar katta ekanini e'tirof ettilar. Agar to'ng'ich farzand yaxshi tarbiya ko'rsa, uchig'l ham tabiiy ravishda ota-onaning maxsus hajmi siz yaxshi tarbiyani o'zlashtiradi.

Bu masalaga avval qanday munosabatda bo'lishgan? «To'ng'ich farzand – aqli kam» degan ibora odatda, birinchi bolani ota-onalar va buvi-buvalar ortiqcha erkatalishadi. Buni tushunishganda uch kech bo'ladi – bola taltayib ulg'ayadi. Shunda ona o'z xatolarini takrorlamaslik uchun kichigini qattiqqo'llik bilan tarbiyalashga qaror qiladi, ammolardir ularda o'xshamaydi. Kichik farzand kattasining xulqini ko'radi va adolatsizlikni his qiladi: «enga menga qattiqqo'llik qilishadi, unga esa yo'q?» degan fikrda bo'ladi. U hasad qila boshlaydi va onasining uni «to'g'ri» tarbiyalash borasidagi urinishlariga qarshilik ko'rsatadi.

Kichik farzand kattasiga ta'sir ko'rsata olmaydi, kattas esa, aksincha, ukasining xulqini nazorat qila-

di va uni boshqaradi. Bu katta farzandni mas'uliyat qiladi va unga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot ishtirokchilaridan xulosalarni olib o'zim tuzgan «Ona tarbiyasi» kitobidagi sobiq Oliy sud raisi Yokota Masatosining maqolasini esladimi. Bu maqolada Yokota o'z onasining tarbiya qoidalari haqida yozadi, bu haqda unga xolasi aytib bergen edi. Ushbu qoidalarga ko'ra, to'ng'ich farzandning tarbiyasiga alohida e'tibor berish zarur. U fikrini shunday asoslaydi: «Ko'pchilik aytadiki, birinchi bol «o'xshamadi» – xudbin bo'lib ulg'aydi, ikkinchi o'xshaydi. Bunda kim aybdor? Albatta, ota-onanini o'zi. Birinchi farzand qanchalik yoqimli va yaxshi bo'lmasin, ota-ona kelajak haqida o'yashlari va un to'g'ri tarbiya qilishga juda e'tiborli bo'lishlari kerak. Shunda kichkinasini tarbiya qilishga o'rtiqcha kuch sarflashga hojat qolmaydi, axir u hamma narsadan kattasiga taqlid qiladi. Agar to'ng'ich farzandni o'zin yaxshi tutishga o'rgatsalar, kichkinalari bilan hech qanday muammo bo'lmaydi». Bu fikrning to'g'riliiga bizning ona-tadqiqotchilar o'z tajribalarida to'loamin bo'lishgan edilar.

Ishga ketayotganimda Kokugakuin universitet faxriy professori Xiguti Kiyoyuki radioda Tokugava Ieyasuning<sup>1</sup> farzandlari tarbiyasiga munosabati haqidagi gapirganini eshitdim. Ieyasu katta farzandini ortiqcha erkalatishlarini va bu uni buzishini yaxshi

---

<sup>1</sup>Tokugava Ieyasu (1543 – 1616) – diplomat va qo'mondon, Tokugava syogunlar sulolasi asoschisi.

bilardi, shuning uchun boshidayoq ikkinchi o'g'lini  
yurib etib tayinlashga qaror qildi. Bu misol to'ng'ich  
farzandni yaxshi tarbiya qilish qanchalik qiyin eka-  
nini tasdiqlaydi.

Albatta, to'ng'ich farzandni to'g'ri tarbiya qilish  
bog'tgina keyinchalik kichik farzandlar tarbiyasiga  
ba'miroq vaqt ajratish niyatininga bildirmaydi. Agar  
boldalarни ortiqcha erkalatmasdan, ularga turli tarzda  
kelayotgan ma'lumotlarning sifati haqida qayg'uril-  
sa, kelajakda ular bir-biriga ijobiy ta'sir qiladilar.  
Bu oiladagi barcha farzandlarga ota-onada tarbiyasi-  
ning ta'sirini kuchaytiradi. Kichkintoy uchun aka va  
qulur ota-onadan ko'ra ta'sirliroq murabbiylardir.

## **Katta farzandingizni mashg‘ulotlarga yetaklaganda imkon qadar kichigini ham birga olib boring**

«Uchdan keyin kech» kitobi chiqqanidan buning bir fikrni doim takrorlayman: ota-onaga qiziq bo‘lgan narsa bolani jalg qiladi. Aka yoki opaning sevimli mashg‘ulotlari va qiziqishlari go‘dakda katta taassurot qoldiradi. Agar to‘rt yoshli aka avtomashina modellarini yaxshi ko‘rsa, uning ikki yoshli ukasi ham shunga qiziqa boshlasa, buning ajablanadigan yeri yo‘q. Kichigiga hali erta deb unga to‘sinqinlik qilmang, aksincha, u akasi yoki opasining dunyosiga asta-sekin ko‘nikishiga shart-sharoit yaratib bering. Bu bolaning miyasi rivojlanishi uchun kuchli rag‘bat bo‘ladi.

Ba’zi onalar professor Suzuki Sinitining skripka bo‘yicha mashg‘ulotlariga uyda bir o‘zini qoldira ol-maganlari uchun kichigini ham birga olib borishardi. Bunday holatlarda kichik farzandining skripkaga qiziqishi kattasidan ko‘ra ertaroq boshlangan. Yapon maqoli bor: «Darvoza oldidagi buddaviy bola o‘rganmasdan ham sutralarni o‘qiydi». Xuddi shuni skrip-

chalishni o'rganish haqida ham aytish mumkin. Suzukining sinfidagi eng yaxshi o'quvchilar va singillar – oiladagi ikkinchi yoki uchinchi farzandlar bo'lishadi. Bu ham «ibodatxonadagi bola qurishi» aynan o'xshaydi.

Bu ta'sir faqat skripka chalishni o'rgatishdagina hamaydi. Bolalar erta rivojlanish assotsiatsiyasi ulotlarida biz bu usulni qo'llaymiz.

Birinchi qismda keltirilgan Kobe shahridagi bolalar chasi direktori Doi Yosiko tadbirlarga ona-tuning o'zları bilan kichik farzandlarini ham bir-olib kelishini tavsiya qilardi. Doi boshida kichik farzandini ham olib kelishganida bolasi shovqin-suhu qilganni va tashvishlanishiga to'g'ri kelganini aytdi. «Kichik farzandlaringizni olib kelmang», – deb tilgunga qadar ham kichik bolasini ko'p olib bo'lmas edi.

Uyigirma yil avval Ta'lim vazirligi dasturi bo'yicha o'quvpuiga o'quv safarida ishtirok etgan vaqtida cherkeda yakshanba xizmatlarida qatnashdi va ota-onalar jutta farzandlari bilan birga jajji bolalarini ham olib kelishganiga e'tibor berdi. Bu kichkintoylar bu xizmat davomida kattalar bilan tinch o'tirishar, omili kitoblar varaqlashar yoki kubiklar o'ynashishi ko'rib Doi nima qilishni tushundi. Shundan u yosh bolali ota-onalarga nafaqat turli tadbirlar payti, balki imkon tug'ilishi bilan: «Iloji boricha kichik farzandlaringizni olib kelinglar. Ular o'zlarini tutishni o'rganishadi. O'zingiz bilan shirinliklar

emas, rasmli kitoblar, bo'yoq kitobchalari yoki rasm uchun albomlar – boshqalarga xalaqit bermasdan mashg'ul bo'lish mumkin bo'lgan narsalarni olib kelinglar», deb tayinlay boshladi.

Yana shuni aytmoqchimanki, jajji kichkintoylarini alohida xonada qoldirmanglar, akalari va opalari bilan birga bo'lishga o'rgansinlar. Bu ularning tarbiyasi va rivojlanishi uchun juda muhim hisoblanadi.

## **Tengqurlar bilan o‘ynash ona uddalolmaydigan aqliy o‘sishga subab bo‘ladi**

Yaqinda bir ayol o‘z farzandini bizning Bolalar  
ivojlanish assotsiatsiyasi mashg‘ulotlariga olib  
va bunga nima sabab bo‘lganini aytib berdi.  
Albatta, bola kichikligida ona uning qobiliyatlarini  
qilantirish uchun barcha narsalar qilishni xohlar-  
di. Ammo asosiy sababi boshqa narsada edi – rostini  
iganda, ayol farzandining do‘stlari paydo bo‘lishini  
taridi.

Oaning xizmati tufayli ularning oilasi yaqin-  
da Tokiodagi ko‘p qavatli uyga ko‘chib o‘tishibdi. U  
yerdagi yushash qulay va tinch edi, ammo ayol yosh  
birorta oila yo‘qligiga e’tibor qaratadi. Ba’zida  
yaqin-atrofda joylashgan istirohat bog‘ida  
qildirardi, ammo u yerdagi ham ikki yashar o‘g‘li-  
ning tengqurlari uchramadi, faqatgina kichik sinfdagi  
bolalar bor edi. Shuning uchun bola har kuni vaqtini  
onasi bilan o‘tkazar va onasisiz biror ish qila ol-  
masdi. Ayol bu yaxshi emasligini tushunardi, ammo  
ing‘chuga berish hali erta edi, shuning uchun uni  
mashg‘ulotlarga olib kelishga qaror qilgan edi.

Men uni qo'llab-quvvatladim. Hozirda nuklear oilalar ko'payib bormoqda, unda insoniy munosa batlarning «vertikal» iyerarxiyasi (buvi-buva – ota ona – bola) mavjud emas. Shu bilan birga, bunday oilada bolada o'z tengqurlari bilan «gorizontal muloqot qilish uchun imkoniyat kam. Ota-onalar aka va opalar yaqinlikda yashovchi qishloq joylarda qarindoshlarning farzandlari bir-biri bilan har kuni so'zlashadilar, bir-birinikiga mehmonga boradilar. Shahardagi ko'p qavatli uylarda oilalar jamiyat ha yotidan ajralib (izolyatsiyada) qoladilar, bog'cha va maktabga borgunicha bolalar o'z tengqurlari bilan kam muloqotda bo'lishadi.

Axir odam bolaligida o'z tengqurlari bilan muloqot orqali faqat o'zini emas, balki boshqa odamlar borligini anglay boshlaydi. Xuddi shu vaqtida o'zlik «men»ni himoya qilish orqali boshqalarning «men»ini tan oladi va qabul qiladi. Bunday o'zaro ta'sir yordamida u jamiyatdagi keyinchalik hayotda zarur bo'ladigan tushunchalarni o'zlashtiradi.

Ona-bola munosabatlarida vazifalar aniq belgilangan, ya'ni ona – himoya qiluvchi, go'dak – himoya qilinuvchi. Agar bola faqat onasi bilan muloqotda bo'lsa, boshqa bolalar bilan teng ravishda suhbat qila olmaydi. Shuning uchun imkon qadar o'z tengqurlari bilan muloqot qilishi zarur.

---

<sup>1</sup>Nuklear yoki er-xotin oila (ingl. nuclear family) – ota-onalar yoki faqat er-xotindan iborat oila.

Professor Kavai Masaoning so'zlariga ko'ra, hatto'maymun bolalari ham guruhlarga birlashadilar. Shundan keyin ularda «isyonkor» davr va o'zini surʼiqil tutish shakllana boshlaydi. Natijada ular o'sasiga kamroq bog'liq bo'ladi. Faqat onasi qilgan bolalar bilan o'z tengqurlari jamoasida muloqot tajribasiga ega bolalar solishtirilsa, ikkinchi surʼihilgillarda muloqot bilan bog'liq muammolar kamroq ekani ayon bo'ladi.

Shu ma'noda jazzi kichkintoylarning iloji boricha tengi bolajonlar bilan ko'proq aloqa qilishlarini bilar edim.

## **Ota-onal kelishmovchiliklari bolaning fiziologiyasiga yomon ta'sir ko'rsatadi**

Yoshi ulug' kishilar yosh er-xotinni janjallash gani uchun koyiydilar va: «Bola kichikligida bemalol janjallashinglar, u baribir tushunmaydi. U katta bo'lganida va hamma narsani tushuna boshlaganida nima qilasiz? Agar urishsangiz go'dakligida urishing ulg'ayganida o'zingizni sipo tuting!» – deydilar.

Men bu fikrga qo'shilmayman. Agar siz haqiqata bolalha qayg'ursangiz, «kichikligida mumkin deb o'ylamasligingiz kerak. Aksincha, hali kichik shuning uchun mumkin emas!

Ko'p bor takrorlaganimdek, kichik bolaning (ay niqsa, uch yoshgacha) oilasidagi muhit uning kelajagini belgilab beradi. Ota-onaning kelishmovchiliklari bundan mustasno emas. Katta yoshdagilar bola hali gapira olmasa, u kattalarning murakkab muammo larini tushunmaydi deb o'ylab qattiq adashadilar. Ba'zi ota-onalar shu darajaga yetadilarki, bolani ikki tomonidan siqadilar va uning qarshisida bir-birlarini qattiq haqorat qiladilar. Bu janjallar muntazam qaytarilib turadi va oilada tushkunlik muhiti hukmron-

00 qiladi. Ota-onalar – bola uchun tayanch, janjallar bo‘ayli bu tayanch bo‘shashadi. Go‘dak so‘zlarni tu-  
shunmaydi, ammo uydagi notinch muhitda azobla-  
nadi va bezovtalikni his qiladi.

Mashhur pediatr Ogato Tomioning so‘zlariga  
ba’ra, agar ota-onan doimo janjallahsha, bolaning tili  
chuchuk bo‘lishi yoki uyquda siyib qo‘yishi ehtimoli  
tatta ekan. Bola so‘zlashni boshlagan bir yoshdan  
bu yoshgacha bo‘lgan davr juda muhim sanaladi.  
Bu yoshda bolalarning tili hali yaxshi chiqmagan  
bo‘ladi, chunki ularning so‘z boyligi juda oz. Agar  
bu davrda ota-onan muntazam janjallahsha, bolada  
ili chuchuklik o‘tib ketmaydi, aksincha, kuchaya  
boshlaysa.

Asaxikava universitetida o‘tkazilgan tadqiqot-  
da oshqozon og‘rig‘idan azob chekuvchi bolalar-  
ning ko‘pchiligi ota-onasi ko‘p janjallahshadigan yoki  
bir-biri bilan kam gaplashhadigan oiladan ekanligi  
iniqlandi.

Bolaning ruhiy holati yomonlashayotganini ota-  
ona chetdan ko‘rmaydi. Keyinchalik bu ruhiy zarba  
ning jismoniy holatida namoyon bo‘ladi. Albatta,  
ona oiladagi kelishmovchilikdan azoblanadi,  
ammo bu ularning o‘z aybi va bunga o‘zlari mas’ul-  
dir. Afsuski, kelishmovchiliklar ularning asl ishti-  
chilariga emas, hech qanday aybi yo‘q go‘dakka  
eng katta zarar keltiradi. Unutmaylikki, ona va ota-  
onasi muhabbat, bir-birlari haqida g‘amxo‘rlik  
qilishlari bolalar uchun juda muhim!

Bola kichik paytida ota-onada uning yonida janjal lashishi mumkin deyish bema'nilikdir. Er-xotin bar cha kelishmovchiliklarni go'dak tug'ilishidan avval hal qilishi kerak.

## **Ona tovushi yozib olinsa ham, go'dak bilan aloqani kuchaytiradi**

Uch yoshgacha bo'lgan davrda go'dakka, ayniqsiz, onaning g'amxo'rligi muhimligini hamma yaxshidi hishunadi. Ilmiy isbotlangan: bola sog'lom rivojlanishi uchun ona ko'proq vaqtini iloji boricha u bilan qo'shishishi, so'zlashishi, qo'lga olishi, quchoqlashi, shaxsiga nytib berishi kerak. «Uchdan keyin kech» kitobida aytganidemdek, bola qo'lga o'rganib qolishidan valom ko'tarishni so'rashidan qo'rmaslik lozim.

Ma'zi onalar turli sabablar – ishda juda bandlik, hodisa yoki kasallik tufayli bu muhim davrda bolanining yonida bo'la olishmaydi. Boshqa onalarga bela doim qo'lda bo'lishga o'rganib qolishi injiqlikligi tuyuladi.

Mir do'konda tik turib ishlayotgan ayolning jajji bolaliga munobatini kuzatgan edim. Uning ishi ko'p emas, ammosa har safar bolasi yonidan o'tayotganda u bilan gaplashar, yoniga kelar va quchoqlar edi. Hatto qolalik g'amxo'rligining shu kabi mayda ko'rinishlari bolanining ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

Bund onalarning ibratli namunasini, birinchi qisimda Sekiya Ayako misolida aytib o'tgan edik. U

jkkinchi farzandi tug'ilganidan keyin ham uyigodamlarni to'plab, mashg'ulotlar o'tkazishda davom etadi. Kichkintoy bir o'zi qolib zerikar va mashg'ulotlar o'tayotgan xonaga kirardi. Shunda Sekiya ertaklari o'qib kassetaga yozib oldi va mashg'ulotlar davomida bolasi qolgan xonada kassetani qo'yib qo'yadigan bo'ldi. Bola onasining ovozini eshitar, onasi yoni dadek his qilar va xonada tinchgina bir o'zi qolardi.

Ma'lumki, malika Mitiko valiahd shahzoda hali ki chikligida xorijiy safarlar vaqtida o'zi o'qigan ertaklari yozilgan audioyozuvar yordam berardi. Shahzodagi o'qib berayotgan ertagi uzilib qolmasligini nazarda tutib, malika o'zi safarda bo'ladigan kunlari uchun yetarli audioyozuvar tayyorlardi. O'zi yo'qligida o'g'li haqida ana shunday g'amxo'rlik qilardi.

Agar ertakning faqat mazmuninigina oladigan bo'lsak, do'konlarda sotilayotgan ko'plab ovozli ertaklar, kassetalardan foydalanish mumkin. Ammo gap bu ertaklarning mazmuni xususida emas, balki uni aynan kim o'qiyotgani haqida bormoqda. Ona ning ovozi jaranglayotgan joyda kassetalarning qiymati yo'q. Bola ertak tinglash bilan bir vaqtida ona mehrini ham tuyadi.

Muxtasar aytganda, ona qanchalik band yoki qanday sharoitda bo'lmasin (masalan, sog'lig'i bilan bog'liq), baribir, u o'z farzandi bilan aloqa qilishning yo'lini topishi mumkin deb o'ylayman.

## **Bolalarga yuklatilgan hayot qonunlarida hech nimani istisno qilmang**

Bolani uch yoshgacha davrda tarbiya qilishda muhim – ota-onaning izchil xatti-harakati deb sayman. Ko‘pincha ota-onalar farzandimizga orqali qattiqqo‘lmiz deb o‘ylaydilar, unga achinib, «xir kichkina» deb bolaning aytganini qiladilar. Ota-onaning bunday xatti-harakati bola tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Hech qanday fikr-mulohazalarni tushunmaydigan bolaga ko‘p marotaba takrorlash orqali to‘g‘ri tvorni singdirish haqida aytgan edik. Bola nega o‘zini shunday tutish kerakligini anglamaydi, g‘ayrishi shuningda tarzda atrofda to‘g‘ri misollarni insoniylikning asosiy qoidalarni o‘rganadi. Shu ota-onalarni hissiyotga berilib, qoidalarni istisno qilish, bolaning ongida chalkashliklar paydo bo‘ladi.

Yoshi kattaroq bolaga nima uchun ma’lum bir haroritlarda istisnolar qilish mumkinligi tushunib berilsa, u anglab yetadi. Hech qanday tushunishlarni anglamaydigan murg‘ak go‘dak – boshqa manala. Ota-onalarni unga achinishadi, aytganini qili-

shadi va qoidalarda istisnoga yo'l qo'yishadi. Bu o'z bolaning keyinchalik boshqa sharoitda hech muammosiz, tabiiy ravishda qabul qilish mumkin bo'lgan ishlarni o'zlashtirishiga xalaqit beradi.

Sobiq kamerger Xamao Minoru bu borada quyidagilarni aytib bergen edi. Valiahd shahzoda bosh yoshdan ozgina oshgan va gapirishni endi boshlagan edi, ota-onasi uni ovqatdan avval «yoqimli ishtahar» ovqatdan keyin «rahmat» deyishni va doim soat salkizda yotishni o'rgata boshlashdi. Ular qoidalarga izchil ravishda amal qilishar va hech qachon istisnoga yo'l qo'yishmasdi. Istisno qilinmasa, bola qodalarga amal qilishi oson bo'lishi, «bugun maxsus kun, shuning uchun soat to'qqizda uplash mumkin» degan yengilliklar erta yotishni xohlamasligi va kelajakda ko'proq yengilliklar so'rashiga sabab bo'lishi mumkinligini ota-ona yaxshi tushunardi.

Lekin valiahd shahzoda barcha bolalarga o'xshali doim ham gapga qulq solavermasdi, bunday paytlar da Xamao Minoru uning orqasiga urgan paytlar ham bo'lardi. Tabiiyki, bola yig'lagan, lekin bunday paytda imperator va qirolicha hech qachon bu ishga aralashgan emas, hatto vaziyatni surishtirib o'tirmay: «Nega janob Xamaoga qulq solmayapsiz?» – deyishardi.

Turli sharoitlar vujudga keladiki, ota-ona qoidaga to'liq amal qilishi va istisnoga yo'l qo'ymasligi qiyin bo'lib qoladi. Biroq bolaga achinish sababli yengilliklar berishdan saqlanish kerak, chunki bu uning o'ziga yomon ekanini unutmang.

## **Biror narsani qilish mumkin emasligini bola o‘z shaxsiy tajribasida tushunishi muhimdir**

Nima to‘g‘ri, nima noto‘g‘riligini ajrata olmaydigan go‘dakka to‘g‘ri axloq qoidalarini singdirish ligini ta‘kidlagan edik. Ammo shunday narsalar bo‘lib, ularni tushunish uchun ota-onam namunasi yoki tushuntirishlari bolalarga yetarli bo‘lmaydi. Bolaning bo‘z harakatlari jiddiy oqibatlarga: shikastlanishlar, hoidisalar, yong‘inlarga olib kelish ehtimoli ham bor. Har daqiqada bola xavfli sharoitga tushib qolishi mumkin, shuning uchun ota-onam tarbiyaning bu muhim davriga beparvo qaramasligi shart, albatte. Bolaga oddiygina to‘g‘ri misol keltirish va itoatsiz uchun bir necha marotaba jazolash bilan tushub olishiga umid qilmang.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun «Nemu» maktab-internatini tashkil etgan aktrisa Miya Marikoning kitobida shunday bir misol keltiriladi. Miya falaji oqibatida autizmga uchragan bir bola yuvinish xonasidagi suv isitgichning ochqichini buroganida gaz hidi chiqib, bolalar o‘rtasida jiddiy tarbiyalizlik boshlanadi. Albatta, o‘qituvchi agar juda ko‘p

gaz chiqsa o'lish mumkinligini va olov yoqilsa portlash yuz berishini tushuntiradi. Shundan so'ng hol pushaymon bo'lgandek bo'ladi, ammo yana o'ynash uchun qo'lini o'sha ochqichga cho'zadi, xavf tushun chasi unga begona edi. Shunda o'qituvchi uni katta gaz qozoni ishlayotgan kir yuvish xonasidagi qurilgichning yoniga olib boradi va olovni yoqadi. Ehtimol yuvinish xonasidagi suvisitgichniki bilan solishtirtil bo'lmaydigan darajada olov katta bo'lib yongandu. Bola bundan juda hayratlanib, o'qituvchining gaplari ga bir necha bor bosh irg'aydi. Bola o'z ko'zlarini bilan suvisitgichning ochqichni o'ynash qanday oqibatlarga olib kelishini ko'radi va hammasini tushunadi.

Xuddi shu haqida yozuvchi Komatsu Sakyo ham yozgan edi. Bola olov bilan o'ynashga juda qiziqadil, afsuski, bu juda xavfli edi. Shu bois Komatsu bolal kichikligida olov qanchalik xavfli ekanini ko'rsatish uchun ota-onasi har bir imkoniyatdan foydalanishi kerak degan fikrni ilgari suradi. Bola o'z shaxsiy tajribasida sinab ko'rishi muhim sanaladi. Masalan ota-onasi go'dak bilan tajriba o'tkazishi mumkin: bolaga qog'oz berib yoniga yoqilgan gugurt tutiladi qog'oz yonadi, olov kattalashadi va bola olovdagisi siqlikni his qiladi.

Aikukai kasalxonasining faxriy direktori doktor Jushichiro Naito «achichi education» nomli ta'limida xuddi shu narsaga ahamiyat qaratadi. Ona dazmol qilayotganda bola ehtiyyotsizlik bilan issiq dazmolga qo'l cho'zadi. Agar unga qo'l tegizsa kuyadi. Bu vaqt

ning qo'lini ushlab, «bu achichi» deb yengil bo'rishiga qo'yib bering. Bola barmoqlarining alni paytga qadar sezmagan keskin og'riqni darhol qo'lini tortib oladi.

Tajrik bolaga «bu xavfli, og'riydi» deb qancha bontirmang, u baribir tushunmaydi. Eng yaxshi tajribada uning harakati qanday oqibatlarga qolishini ko'rsatishdir.

Shaxsiy tajribasida o'rganishi uchun bunday usulida hech narsani maxsus rejalahtirish emas. Buning uchun atrofda imkoniyat yetarli. jo'dak «u yer xavfli» degan gapga tushunmaydi, bois qulay sharoit bo'lishi bilan u yerga borishga harakat qiladi. Ota-onha har safar uni to'xtatsa, muhim tajribaga ega bo'lmay qoladi va xavfliroq qattiq shikastlanishi mumkin.

Dakka axloq qoidalarini doimiy takrorlash orqali singdirish mumkin, ota-onaning tushuntirish orqali uning to'liq mohiyatini anglay olmaydi. Revontu jismoniy xavf tug'diruvchi narsalarni o'zida ko'rishi kerak – buni u jismoniy reflekslar daqida eslab qoladi.

Bunday tajriba yordamida nafaqat e'tiborli bo'lish o'zini himoya qilishni, balki boshqa odamlarni hujunishni va ularning hissiyotlarini o'ziniki bilan shahritirishni o'rganadi. Bolaligida pichoq o'ynab barrog'ini kesib olgandagi og'riqni bilgan odam boshqalarning jonini og'ritish jinoyat ekanini yaxshi tushunadi.

## **Farzandga o'rgatish kerak bo'lgan birinchi so'zlar – «rahmat» va «kechirasiz»**

Bola salomlashish va tashakkur bildirish man munidagi so'zlarni ma'nosini tushunmasa-da, bularni unga o'rgatish haqida gapirsam, doim e'tirozla paydo bo'ladi. «Agar bola bu so'zlarni aytishni men xanik tarzda o'rgansa, doim takrorlasa-da, bu so'zlar qalbdan chiqmaydi», deyishadi.

Haqiqatan ham, bola sovg'a olib «rahmat» deb jahob bersa, unga o'rgatilgani uchun emas, balki qalb dan aytdi deb bo'lmaydi. Men bunga butunlay qo'shilaman, ammo baribir gapirishni boshlayotgan bolaga imkon qadar tezroq tashakkur va salomlashishga doir so'zlarni o'rgatish kerak deb hisoblayman.

Albatta, buning uchun asoslar mavjud. Go'dal endi gapirishni boshlaganida talaffuz qilayotgan so'zlarning ma'nosini qanchalik tushunadi? Atrofda gi predmetlar va insonlarni ifodalovchi oddiy so'zlar mavjud (ona, ota, vov-vov, xam-xam). Bola biror narsani xohlasa yoki og'riq sezsa yig'laydi va onasiiga bu haqda xabar beradi. Lekin bolaga murakkab hissi yotlarni ifodalovchi so'zlarni tushuntirishga haraka-

masalan, shukronalik yoki boshqa insonga formatni, u buni anglamaydi, chunki uning ruhiyati hissiyotlarga hali qodir emas. Shu bois bola so'zlarni qalbdan ayta olmaydi. Ammo ularni qilishni qancha erta boshlasa, bu so'zlar bi bog'liq tushunchalar uning ongida shuncha tez shakllanadi.

Notalar «ahmoq» va «la'nat» so'zlarining ma'nosi tushunmay ularni yod olishadi. Demak, jiddiy ayhamma, bu so'zlarni istaganicha takrorlashi mumkinmi? Aftidan, bolaning salomlashish va tashakkur bildirish mazmunidagi so'zlarini «mexanik» talaffuz qarshilik bildiruvchi kishilar shunday fikr bo'lular kerak. Men zinhor bunday deb o'ylamayman. Avval haqoratli so'zlar ma'nosini tushunmay, tulaffuz qilayotgan bola keyinchalik odamlarni haqorat qilishidan va har ikki gapning birida o'linishidan ota-onada qo'rqa boshlaydi. U holda shukronalik va achinish hissiyotiga qodir emas, umum «rahmat» va «kechirasiz» degan mazmundagi ularni o'rgatish befoyda deb aytuvchilarning bunday da'volari asossizdir.

Avval maktablarda, ma'nosini umuman tushunmasakda, bizlarni xitoy mumtoz adabiyotini ovoz bilgariib o'qishga majbur qillardilar. Masalan, «bola yotadli»<sup>1</sup> iborasini men «olovli pufaklarni yeyman»<sup>2</sup> tushunar edim. Ulg'ayganimda va uning haqiqiy

<sup>1</sup> «notamavaku» deb talaffuz qilinadi.

<sup>2</sup> «ki no tama kuu» deb talaffuz qilinadi.

ma'nosini tushunganimda uni yoshligida umuman o'qimaganlardan ko'ra chuqurroq qabul qildim deb o'ylayman. Oddiy bilish va chuqur anglash o'rtasida gi farq mana shundadir.

## **Bolaga televizor kanallarini o'zgartirishga ruxsat bermang**

Televideniye paydo bo'lishi va uning keng tarqalishi bilan zamonaviy madaniyat keskin o'zgardi. Televideniye bola hayotiga, ayniqsa, uning rivojlanshi va tarbiyasiga ta'sir qiladi. Bunda nima qilish kechkligini tushunish zarur.

Televideniyening afzalliklari va kamchiliklari haqidagi ko'p aytildi, ammo negadir undan qanday qilib to'g'ri foydalanish haqida kam gapiriladi. Nemis tilidagi «Beshinchi devor: televideniye» nomli kitob bilan tanishib chiqdim. Unda hayotimizda hozirgi kungi qadar mayjud bo'lgan to'rtta devordan tashqari yangi – televizor deb ataluvchi beshinchi devor bilan bog'liq muammolar qurshovidagi televideniye davri haqida so'z yuritiladi. Odamlar kuni bo'yli devor-televizorga qaraydilar, shu sababli ular o'rtasidagi tirik muloqot kamayib bormoqda.

Oq qog'oz holatidagi yosh bolalarning miyasi televizor benihoya katta ta'sir ko'rsatadi. Televideniyeden qanday foydalanishi bu ta'sir qanday bo'lislini belgilaydi. Nima uchun biz hanuzgacha hingga e'tiborsizlik qilmoqdamiz? Axir ota-onan-

lar bolalarning o'zlariga kitob-jurnallarni tanlash va sotib olishga ruxsat bermaydilar, chunki ulardu xuddi televideniyedagi kabi turli ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Kanallarni o'zgartirish oson va bepul bo'lgani uchun bolaning o'ziga tanlash huquqini berish va tomosha qilishiga ruxsat etish mumkinmi axir? Qimmatbaho buyumlar bolaga oson topiladigan va pul to'lash talab etilmaydigan narsalarga nisbatan kuchliroq ta'sir qiladi deb hisoblash bema'nilikdir.

Men ko'pincha shunday holatni kuzataman: gapirishni bilmaydigan go'dak televizor qarshisida kanallarni almashtirib, hamma narsani ko'rib o'tiradi. Bunday holatlarda men doim so'rayman: «Godzilla» va reklamadan tarbiya topgan bola nima bo'ladi – bolani nima qilmoqchisiz?». Bolaning bu holatda o'tirishi kishini u qadar xursand qilmaydi.

Televideniyening tarqalishiga aloqasi bor inson siyatida ham bu masala meni qiziqtiradi<sup>1</sup>. Televizor bola uchun enaga vazifasini bajaruvchi oilalarda bolalar ko'proq autizmga moyilligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud. Iyeroglis ta'limi bo'yicha mashhur o'qituvchi Isi Isao shunday yozadi: «Agar bola gapirishni o'rganish va nutqni idrok qilish davrida faqat televizorga andarmon bo'lsa, uning miyasi inson nutqini o'ng yarim tomoni bilan xuddi musiqa yoki boshqa mexanik tovushlar kabi qabul qilishni boshlaydi.

---

<sup>1</sup> Masaru Ibuka «Sony» korporatsiyasi asoschilaridan biridir, korporatsiya birinchi bo'lib ixcham hajmdagi televizorni yaratgan va bu televideniyening keng ommaga yoyilishiga sabab bo'lgan.

Ota-onalardan farzandlarining televizorda nima ko'ra  
bolg'anini nazorat qilishi shart, chunki tashqi rag'bat-  
lari takrorlash bolaning kelajakda nimani yoqtirishi  
va nimani yomon ko'rishini belgilab beradi.

## **Farzandingizni faqat rasmlar va musiqa bilan cheklamang**

Agar yangi tug'ilgan chaqaloqlarning jismoni rivoji haqida gapirsak, ularga kattalar tanovul qiladigan narsalarni berib bo'lmaydi. Avvalo, ona bolasini emizadi, keyin u bolalar ozuqasiga o'tadi. Ularning aqliy rivojlanishi-chi? Ona bolaning aqliy qobiliyatlarini ma'lumotlarni tanlash bilan rag'batlantiradi. Bunda ham ovqat kabi faqat bolalarga mo'ljallangan narsalardan fodalanish zarurmi? Bolaga yosh bolalar qo'shiqlari va ertaklari yetarlimi?

Fikrimcha, bola miyasini «bolalar ozuqasi» darajasida ushslash kerak emas. Aql rivojlanishi uchun sifatli va rang-barang ozuqalar zarur. Bolalar uchun musiqa yoki rasmgina mavjud emas deb o'ylayman. Bolani faqat «bolalarga mo'ljallangan»lari bilan chegaralab, ularning qobiliyatini yetarlichcha baholay olmaymiz. «U hali kichkina, tushunmaydi», deb ona bolaning rivojlanishini to'sib turadi.

Atoqli yapon pediatri Nayto Dzyusitiro ham «yosh shuning uchun tushunmaydi» degan qarash faqatgina kattalarning jaholati deb o'laydi. Kasalxonadagi tibbiy tekshiruv paytida bola onasining qo'lida tinch

birishi mumkin, ammo uni shifokor qo'liga olishi bilan yig'lay boshlaydi. Bunday fe'l-atvor bola kattalarning kayfiyatini va ularning bolalarga munosabatini juda yaxshi tushunishini ko'rsatadi. Naytoning o'zlariga ko'ra, uning qo'llarida bolalar hech qachon yig'lashmaydi, chunki ularga xuddi mehribon omasidek munosabatda bo'ladi. Shifokor ularning ma'lumotni qabul qilish qobiliyatini inobatga olib muomala qiladi, shuning uchun bolalar unga ishonishadi va tinchgina o'zlarini ko'rikdan o'tkazishga ruxsat berishadi.

Ona o'z farzandiga ishonishi kerak. Agar bola uchun faqat ibtidoiy rasmlı kitoblarni tanlasa, bola miyäsining neyron tizimi shunday shakllanadiki, bu tizim ana shunday oddiy rasmlardan boshqa narsalarni qabul qila olmaydigan bo'ladi. Shu sababli uylg'ayganida qiyinchiliklarga duch keladi. Albatta, kattalarga mo'ljallangan ma'lumotni kichik go'dak qabul qila oladi demayman. Ammo bolalar kattalar o'ylaganidan ko'ra ko'proq narsalarni tushunadilar. Shu bois bolaga biror narsani so'zlab berayotganda yoki ko'rsatayotganda unga nima tushunarli bo'lishi haqidagi shaxsiy tasavvurlar bilan chegaralaniib qolmaslik lozim.

Tushunadimi-yo'qmi – albatta harakat qilib ko'rish kerak. Kichik go'dakning miyasi qabul qilishi mumkin bo'lgan barcha narsani shimib oladi. Shunday yo'l bilan uning aqli rivojlanadi. Ko'plab olimlar bu fikrga qo'shiladilar. Ona oson va oddiy narsa-

larni emas, sifatli va chinakam narsalarni tanlashi zarur. Agar ota-onalar stereotiplar ta'sirida bolan baholay olmasalar, demak, uning qobiliyatlariga ishonmaydilar.

## **Go'dak tug'ilishi bilan atrofini o'rab turgan narsalarni tabiiy ravishda seva boshlaydi**

Men turli sohalardagi mashhur insonlardan bolaligi haqida so'rab-surishtirdim. Bu insonlar o'z qobiliyatlarini maksimal darajada ishga sola bilganlari uchun ularda qandaydir umumiylit bo'lsa kerak deb qiziqib qoldim.

Oldindan ayta olamanki, birinchidan, bolalar atrofida sodir bo'layotgan narsalarni tushuna boshlash yoshiga yetganida kelajakda muvaffaqiyatga erishgan sohasi bilan u yoki bu tarzda shug'ullanar edilar. Ikkinchidan, buning uchun anglash yoshiga qadar barcha shart-sharoit mavjud edi.

Misol tariqasida go xon'imbo<sup>1</sup> bo'yicha mashhur professional o'yinchi Takagava Kaku haqidagi hayotiy misollarni keltirib o'taman. Uch yosh atrofida ekanida u go o'yinini o'ynashni boshlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, boshqa tanish go ustalari ham go'daklikda o'ynashni boshlaganlar va osongina o'rganganlar.

<sup>1</sup>Xon'imbo – go o'yini professional o'yinchisining nufuzli unvoni, muhim turnirlar g'oliblariga topshiriladi. Go – hududlarni zabt etish bo'yicha qadimiy taxta o'yini.

Professional o'yinchilar orasida o'n, hattoki o'n besh yoshda boshlaganlar ham bor. Ular o'yinda takomilashib boradilar, ammo mohirlik cho'qqisiga yetishlari juda mushkul.

O'yinchilar orasida boshidan maxsus o'qitilganlari kam. Ko'pchilik atrofdagi odamlar qanday o'ynayotganini kuzatib, asta-sekin o'zлari o'ynay boshlaganlar. Takagava uchun ham shunday bo'lgan, u doim go o'yinini tomosha qilish uchun kerakli muhit mavjud edi. Takagavaning otasi go o'yinini juda yaxshi ko'rav va bo'sh vaqt topishi bilan shu o'yinga mashg'ul bo'lardi. Uning otasi ajoyib inson edi. U qirq yoshida qishloqqa ko'chib o'tgan, kuni bo'yi go o'ynar, she'rlar ham yozardi.

Bir kuni otasi o'g'lining o'yin davomida taxtaga tikilib qarayotganiga e'tibor qiladi va: «Balki, u hamma narsani tushunayotgandir? U bilan bir o'ynab ko'ray-chi», deb o'playdi. Ular o'ynay boshlaydilar. Kichik Takagavaga imkoniyatlар berilgan bo'lsa-da, bu uning birinchi o'yini edi. Shunga qaramay, otasi uni yuta olmaydi! Shundan keyin bola o'yinga qiziqib qoladi, mактабга qatnay boshlaganida uning qiziqishi yanada ortadi, buni qarangki, mактаб direktori ham go o'yinining ishqibozi edi. Shu bois Takagavaning yonida doim o'yinchilar va o'yin taxtasi bo'lar edi.

Tasavvur qiling, go'dak otasining o'yinini kuzatib o'yin mohiyatini tushuna boshlaydi, «jettonni olish», «o'lik jeton» nima ekanini o'rganadi. Bu bolaning qi-

sohalarni tanish borasidagi hayratlanarli qobiliyatiga obod bo'la oladi. Takagava yonida doim o'yin taxtasi birga o'ynash uchun sherik borligi tufayli pirovarida muvaffaqiyatga erishdi va obro'li xon'imbo holdi. Bunday muntazamlik yo'rig'i boshqa sohalarni shaxlitirishda ham to'g'ri keladi.

## Ko‘p emaklaydigan bolalarda nutq qobiliyati yaxshi rivojlanadi

Ba’zi onalar, bola turish yoki yurishni muddatidan keyin boshlasa, qattiq xavotirga tushadilar. Ular: «Balki unda biror muammo bordir», deb o‘laydilar. Shu bilan birga, «Meniki o‘n oydan yurishni boshladi», deb maqtanadiganlar ham bor. Albatta hamma ota-onalar farzandining ulg‘ayayotganini tomosha qilib xursand bo‘lishadi. Avvaliga faqat emishni biladigan chaqaloq asta-sekin odam uchun odatiy harakatlarni bajarishni o‘rganadi. Ota-onalarning turishini, keyin esa yurishini intiqlik bilan kutadilar. Shuning uchun ularning hissiyotlarini tushunish mumkin. Deylik, farzandi tengqurlaridan kechroq yurishni boshlasa, ular xavotirlanadilar, muddatidan ertaroq yursa, maqtanish uchun sabab topiladi.

Agar bu hissiyotlar ota-onada bolani emaklashdan tezroq to‘xtatib, yurishni o‘rgatish niyatiga o‘zgarsa – ana shunisi juda yomon. Hodisalarni shoshiltirmaslik kerak. Agar ota-onalarning majburlash yo‘liga o‘tsa, bola bir muhim rivojlanish davridan mahrum bo‘ladi. Ota-onada esa mag‘rurlanish o‘rniga xavotirlanish uchun jiddiy sabab paydo bo‘ladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloq boshini ko'tara olmaydi, shuning uchun kattalar bolani qo'lga olganlarida uni ushlab turishlari zarur. Buning sababi shundakki, bolaning bo'yin mushaklari hali rivojlanmagan bo'ladi. Taxminan uch oyligida chaqaloq boshini tik tutishni boshlaydi. To'rt oyligida boshini ko'tarish va o'girishni uddalaydi. Pediatriyada bunday rivojlanish sur'ati me'yoriy hisoblanadi. Emaklash uchun bola boshini ko'tara olishi zarur, bu ikki ko'nikma zaro bevosita bog'liq hisoblanadi.

Go'dak emaklaganida butun kuchi bilan boshini ko'tarishga va ushlab turishga harakat qiladi. Bu harakat bola orqa tomonida yotganida boshni ko'tarishidan farq qiladi. Chunki emaklash uchun, xuddi uni orqaga otishga chog'langan kabi, bola boshini ko'kragidan ko'tarishi kerak. Emaklash miya rivojlanishini va bo'yin mushaklarini faollashtiradi, bu bosqichni «sakrab» o'tkazib yuborish mumkin emas.

Zamonaviy tibbiyotda qayd etilishicha, emaklash bosqichini o'tkazib yuborgan yoki tez o'tkazgan bolalar o'z tengqurlaridan nutqning rivojlanish darajasi bo'yicha ancha orqada bo'ladilar. Amerikadagi «Inson imkoniyatiga erishish instituti» nomli tashkilot asoschisi, professor Glenn Doman emaklamasdan yurishga o'tgan bolalarning nutq qobiliyati emaklash bosqichini o'tgan bolalardan farqlanishi haqidagi indiqotini e'lon qildi. U emaklash odam miyasiga naqadar ta'sir qilishiga e'tibor qaratadi. Olim hattoki nafliy zaiflik, ensefalopatiya va insultdan so'ng qisman

shollikni davolashda emaklashdan foydalanishni taklif qildi. Domanning so'zlariga ko'ra, tirik organizmlar evolyutsiyasi ularda emaklash ko'nikmasi paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Sudralib yuruvchilar miyasining rivojlanish darajasi sodda hayvonlarnikidan ancha yuqori bo'ladi. Demak, chaqaloqlarda uchraydigan ensefalopatiya xastaligini davolashda nega emaklash samarali ekanligini tushunish mumkin.

Qayd etilganidek, emaklaganda boshni ko'tarish va ushslash kerak bo'ladi, bu esa miyaning rivojlanishiga yaxshi ta'sir qiladi. Shuning uchun bu bosqichning tezroq o'tib ketishini emas, balki bolaning emaklash istagini qo'llab-quvvatlash kerak. Bir paytlari bolani qorni bilan yotqizish kerakmi degan mavzu qizg'in muhokama qilingan edi. Yaponiyada bu usul salbiy oqibatlarga olib kelgani uchun tanqidga uchradi. Biroq yangi tug'ilgan chaqaloqni qoringa yotqizish emaklash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Emaklashni bilmaydigan go'daklar kichik toshbaqalar kabi boshini ko'tarishni o'rganishlari uchun ularni atayin qorni bilan yotqizishadi. Ammo o'rinn yumshoq bo'lsa, bola bo'g'ilib qolishi mumkin, bunga e'tibor berish lozim.

Emaklash miya rivojlanishidan tashqari bo'yin mushaklarini chiniqtirishi uning asab tizimi, ruhiyatni uchun ham foydali sanaladi. Kobe universitetining psixiatriya bo'yicha faxriy professori Kuromaru Systaro pediatr-shifokorlar bolaning rivojlanish darajasini u yurishni va so'zlashni qachon boshlaganiga

qarab baholashiga e'tibor qaratadi. Ammo bolaning  
ba'ini tutib tura olish ko'nikmasi shakllanishiga  
ham e'tibor berish zarur.

Professor Kuromaruning so'zlariga ko'ra, oyoqqa  
tutib yurish uchun bola rivojlanish jarayonida tug'i-  
shidan boshlab tortishish kuchiga qarshilik ko'rsatish  
kerak. Bunday qarshilik ko'rsatish boshni ushlab  
yurishni o'rganishdan boshlanadi. Ikki oygacha bola  
ba'pat orqasi bilan yotadi va dunyoni ikki o'lchamda,  
yani tekis ko'radi. Chaqaloq narsalarga tepadan qa-  
ny olmaydi, shuning uchun bu paytda unda makon  
hissi bo'lmaydi.

Bola boshini ko'tarishni va ushslashni boshlagaga  
da makon uch o'lchamli ko'rinadi: boshini pastga  
tushirsa o'ziga eng yaqin narsani, boshini ko'tarsa  
uzoqdagi narsani ko'radi. Shunday qilib, makonning  
buqurligini anglay boshlaydi. Shundan so'ng go'dak  
masi yaqinda yoki uzoqdaligini tushuna boshlaydi,  
moqda bo'lsa, unga yaqinlashishga harakat qila-  
di. Shu tufayli bolada atrofdagi narsalarga qiziqish  
oyg'onadi va ularni o'rganish istagi paydo bo'ladi.

Demak, emaklash bosqichi nafaqat yurishdan av-  
valgi «mashq qilish», balki rivojlanish uchun muhim  
jarayon sanaladi. Shu bois bola istaganicha emakla-  
shni ma'quldir.

## Bola so‘zlarni ham eshitib, ham ko‘rib yaxshiroq eslab qoladi

Kichik bolalar murakkabroq narsalarni kattalar o‘ylaganidan ko‘ra yaxshi farqlay olishga qodir bo‘lishadi. Bu fikr uning so‘zlar va harflarni farqlashiga ham taalluqli sanaladi. «Uchdan keyin kech» nomli kitobimda bolalarning yozma belgilarni tanishdek ajoyib qobiliyati haqida yozgan edim. Xususan, ular «kabutar»<sup>1</sup> iyeroglifini «to‘qqiz»<sup>2</sup> iyeroglifidan ko‘ra tezroq yodlab olganliklari keltirib o‘tiladi.

Isii Isao bu qobiliyatga e’tibor qaratadi va kichil bolalarga iyeroglifikani o‘rgatishga kirishadi. Godaklar osongina yuzlab iyerogliflarni yodlab olishadi va kitoblarni qiyinchiliksiz o‘qishadi. Har bir bola bu qobiliyatga ega, shuning uchun Isii ularni gapirish va yozishga alohida o‘rgatishga hojat yo‘q deb ta’kidlaydi. Bu fikrga to‘liq qo‘shilaman. Bola bir vaqtning o‘zida so‘zlarni eshitib, ularning yozilishini ko‘rganda tovushlar yozma belgilar bilan to‘ldiriladi, belgilar esa tovushlar bilan, shu zaylda ular bir-birini kuchaytiradi va esda yaxshiroq qoladi. Shunga qara-

<sup>1</sup>鳩 – kabutar iyeroglyph

<sup>2</sup>九 – to‘qqiz soni iyeroglyph

may, katta yosdagilar negadir endi gapisishni boshlangan go'dakka harf o'rgatish hali erta, bola uchun juda qiziq degan fikrni bildirishadi.

Bolalar bog'chasini olaylik. Tarbiyalovchilar: «Kelinglar, qo'limizni yuvaylik», – deyishadi, bolalar buni faqat eshitadilar. Isii bu holatlarda doskaga «Qo'llarni yuvish» deb yozishni taklif qiladi. Bunda ma'lumot (so'zlar va ularning yozilishi) miyaga eshitish va ko'rish orqali bir vaqtida yetib boradi. Bola besh-olti marotaba takrorlashi bilan uni yaxshiroq o'lashtiradi. Mazkur usulni uyda ham qo'llash mumkin. Go'dak yangi so'zlarni o'rganganida unga imkon qadar so'zlar qanday yozilishini ko'rsatish kerak. U so'zlarni yozilishi bilan to'g'ri eslab qoladi va boshqa so'zlar bilan chalkashtirmaydi.

Masalan, yapon tilidagi «xola» («obasan» deb o'qiladi) va «buvi» («obaasan» deb o'qiladi) so'zlari olaylik. Bolalar ko'pincha talaffuzini chalkashtirishadi, lekin ular yozilsa, darhol hammasi tushunarli bo'ladi. «Vatakusi va» («men»), «boku va» («men»: eraklar uchun) va «chikuva» («baliq tayoqchalari») – bu so'zlarning oxiri bir xil talaffuz qilinadi, ammara xil yoziladi. Kichik go'dakka buning sababini mantiqan tushuntirish imkonsiz, albatta. Agar bola bir necha marotaba bu so'zlarni ham ko'rsa, ham eshitsa, har birining yozilishini eslab qoladi va ularni farqlay oladi.

O'tmishda Yaponiyada og'zaki va yozma yapon tilini birlashtirish harakati olib boriladi. Hozirda

bunga deyarli erishib bo'lindi. Men esa hozirda bola larga nutqni o'rgatganda so'zlarning talaffuzi va yo'zilishini birlashtirishni taklif etaman. Bu ona tilimi o'rgatishdagi ba'zi muammolarni oson hal qilishiga va umumiy savodxonlik darajasini oshirishga yordam beradi.

## **Go‘dak o‘z ona tilida gapirishni boshlaganidan so‘ng chet tilini o‘rganishni boshlashi kech hisoblanadi**

Agar bolalar rivojlanishining hali miyada neyron aloqalar shakllanishi tugallanmagan yoshi haqidagi gapirsak, erta rivojlanishning samarali namunasini chet tillarni o‘rgatishda kuzatish mumkin. Uch yoshgacha bolaga bir vaqtning o‘zida son jihatidan intalgancha chet tillarini o‘rgatish mumkin, u barchasini o‘zlashtiradi. Albatta, bunday fikrga ko‘pchiilik qo‘silmaydi.

Odatda, bu masalada bir e’tiroz bildiradilar. Ya’ni:  
• Agar yapon tilida ham yaxshi so‘zlasha olmaydigan kichik go‘dakka ona tili singa umuman o‘xshamaydigan chet tili o‘rgatilsa, yapon tilini to‘g‘ri o‘zlashtirishiga ziyon yetadi. Ikki quyonni quvlasang, hech birini tuta olmaysan. O‘z tilini o‘zlashtirgandan so‘ng chet tilini o‘rganishga o‘tish lozim», deyishadi.

Ehtimol, go‘daklikda chet tilini o‘rganishga qarshi bo‘lganlar ulg‘ayganda chet tilini o‘rganish qanchalik qiyin ekanini bilishsa kerak. Yoki televizorda ko‘pincha turli chet elliklar yapon tilida xato gapirishlarini

ko‘rishadi va buni tasavvur qila oladilar. Chet elliklari yapon tilida g‘aroyib talaffuz bilan so‘zlashsa, albattra, yaxshi. Ammo bola tillarni bir vaqtida o‘rgangani va boshida hammasi chalkashib ketgani uchun oni tilida chet ellik kabi ajabtovur gapirsa-chi? Ba’zi ota-onalar soddadillik bilan shundan xavotirga tushadilar. Oxirgi paytlarda yosh yaponlar hatto ona tilida xatoliklar bilan so‘zlayotganligi bunday tashvishlanishiga yana bir sabab bo‘lsa kerak.

Bemalol aytish mumkinki, «ona tilida chet ellik kabi ajabtovur gapirsa-chi?» – deb tashvishlanish umuman asossizdir. Ota-onalar chet tillarini maktabda qanchalar mashaqqat bilan o‘rganishganini eslaydilar. Ammo til o‘rganishda qiynalganining sabbabi ular o‘sha paytda ulg‘ayib bo‘lishganidir. Bu holatning yosh bolalarga umuman aloqasi yo‘q. Yapon tilida g‘alati gapiruvchi xorijliklar ham ulg‘ayganda mashaqqat bilan til o‘rganishgan, bu ham yuqorida keltirilgan holatga o‘xshaydi.

Yapon bolalari o‘z ona tilini buzib gapiradilar, ammo bu yapon tili o‘qitilishi bilan bog‘liq muammo hisoblanadi. Demoqchimizki, mazkur muammoning ona tili va chet tillarini bir vaqtida o‘rganishga aloqasi yo‘q. Aksincha, boshqa tilni o‘rganayotganda bola o‘z ona tili bilan solishtiradi, shu tufayli ona tili haqidagi tasavvurlari kengayib, uning o‘ziga xos xususiyatlari yaxshiroq tushuna boshlaydi.

Tug‘ilishidan keyinoq bir nechta xorijiy tillar o‘rgatilgan odamlar ko‘p, bunga istagancha misollar

keltirish mumkin. Ular tillarni ajoyib tarzda o'rgan-dilar, boshlarida hech qanday «chalkashlik» bo'lma-di. Gavayida tilshunoslik bilan shug'ullanuvchi Sini-ha xonimning o'g'li Satosi chet tillarini ana shunday tarzda o'zlashtirganini misol qilib keltirsak. Tug'il-gan kunidan boshlab Satosi ingliz, fin, yapon tillarini o'shitib katta bo'lgan edi. U to'rt oyligida bu tillarni tarqlaydi, uchta tilni boshqa bolalar faqat bitta tilni o'rganganidan ko'ra tezroq o'zlashtirib oladi.

Erta rivojlanish assotsiatsiyamizda o'tkazilgan qidqiqotda ishtirok etgan bir onani ham misol qilib keltirish mumkin. Turmush o'rtog'i bilan ikkovi o'n yildan ortiq ingliz tilini o'rganishlariga qaramay, o'g'ilganidan inglizcha muloqotni tinglab o'sgan o'g'lining talaffuzi ularning talaffuzidan ancha yax-shi. Uni qiynaydigan birdan-bir muammo shundaki, bo'p yaponlar inglizcha so'zlarni maxsus «yaponcha» talaffuz qiladilar. Masalan, sinfda kimningdir tug'il-gan kunida «Happy birthday to you»ni kuylashganda «birthday» so'zidagi «birth»ni hamma yaponcha ta-laffuzda «baasu» desa, u ham shunga «moslashishi»-ga to'g'ri kelardi.

Bolaga chet tillarini o'rgatishni qanchalik erta boshlasangiz, shuncha yaxshi, chunki yosh go'dak-lar misolida «ikki quyonni quvlasangiz, ikkalasini hum tutasiz». Ammo avvaldan miya faqat bir tilga «moslashtirilsa», keyinchalik boshqasini o'rganish qiyin bo'ladi, zero, neyron aloqalar shakllanishi o'sha paytga kelib yakunlanadi. Demak, bola o'z ona

tilida so'zlasha boshlaganidan so'nggina xorijiy tilni o'rganishga kirishsa, bu kech hisoblanadi.

Erta yoshda boshlash nafaqat xorijiy tillarni o'rganishda, balki boshqa sohalarni o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Iyeroglifika murabbiysi Isii Isaoning so'zlariga ko'ra, birinchi sinfda iyerogliflarni o'rganishni boshlagan bolalar hayratlanarli darajada yaxshi o'zlashtirishardi. Ular uchinchi sinfga yetg'anida iyerogliflarni oltinchi sinfdagilardan ham yaxshiroq o'qishar, ham yaxshiroq yozishardi. Ta'limgazalining o'quv rejasiga binoan maktabda bolalar avval kanani<sup>1</sup> o'rganishlari kerak, shundan so'ng iyerogliflarga o'tishadi. Ammo bola avval yod olgan kananing ta'siri shu qadar kuchliki, iyerogliflarni o'zlashtirish juda qiyin bo'lib qoladi. Albatta, bolalar testlarni yaxshi yechadilar, ammo bayon yoki ma'ruba matnlarini yozishga kelganda ular iyerogliflardan foydalana olmaydilar – kananing ana shunday bir ajabtovur ta'siri bor.

Ba'zilar bola iyerogliflarni hali o'zlashtirmadi, agar yetarlicha mashq qilsa, hammasi joyida bo'ladi deyishadi. Biroq bu boladan qo'shimcha harakatni talab qiladi. Axir ular kanani o'zlashtirganlar, undan foydalanishga ko'nikanlar, endi bu ko'nikma iyerogliflarni o'zlashtirishda ularga xalaqt beryapti.

AQShda bir tadqiqot o'tkazishdi, tadqiqotchilar yurishni endi boshlagan kichkintoylarga konkida

---

<sup>1</sup> Kana – yapon bo'g'inli alifbosi, iyerogliflar bilan birga yozuv uchun ishlataladi.

uchishni o'rgatishdi. Ular konkida yurishni yaxshi  
o'r ganjan bolalarga nisbatan tezroq o'zlashtirishdi.

Bir so'z bilan aytganda, temirni qizig'ida bos, qot-  
qanida undan hech narsa chiqmaydi.

## **Turli tillardagi allalar kichkintoyga xorijiy tillarni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi**

Savdo kompaniyalari xodimlari ish tufayli ko'pincha xorijga ko'chishiga to'g'ri keladi, shunda o'zi va oilasi uchun til muammosi paydo bo'ladi. Katta yosh dagilar qo'lida lug'at bilan qiyntsalar, ularning kichik yoshdagagi farzandlari mahalliy tilga tez ko'nikadilar, uni o'z ona tili bilan birga oson o'zlashtiradilar. Ammo ota-onalari uchun til bilish nega bu qadar qiyinligini tushunmaydilar. Avvalgi qismda yozganimizdek, go'daklarning tilni o'zlashtirish qobiliyatini inobatga ol sak, bu tabiiy hol ekanini anglaymiz.

Ularning xorijiy mamlakatlarda yashamagan tanish-bilishlarida havas (ba'zan hasad) uyg'onadi «Qanday yaxshi, sizning farzandingiz ikki tilni bila di», deyishadi. Bunga ota-onaning javobi kutilmagan tarzda bo'ladi: «Qani endi shunday bo'lsa. Yaponiyaga endigina qaytgan paytimizda bolamiz ikki tilda oson gaplashardi. Ammo bu yerda chet tilidan hech foydalana olmadi. Tilni juda yaxshi bilsa-da, bir muddat o'tib uni butunlay unutdi». Shunday qilib, ajoyib qo-

hiliyati tufayli xorijiy tilni o'rgangan go'dak ulg'ayadi va kerak bo'lganida bu tilda so'zlasha olmaydi.

Bunday hikoyalarni ko'p odamlardan eshitganchi. Haqiqatan ham, kichik go'dak tilni tez o'zlashtidi, ammo undan bir muddat foydalanmasa, haqiqatan ham o'sha tilni tezda unutib qo'yadi. Ammo bu haqiqatning bir tomoni bo'lib, uning ko'rinxmayilgan boshqa tomoni ham bor.

Bir qarashda bola chet tilini unutgandek ko'rinsa ham, aslida, miya hujayralarida bu tilni qabul qilish uchun yetarli neyron o'tkazgichlar qoladi. Bunga isbotlar talaygina. Masalan, NHK kanalida ingliz tilini o'rgatish bilan shug'ullanuvchi boshlovchi Kammak yuqori sinfgacha o'qimagan bo'lsa-da, fransuz tilini ham yaxshi egallagan edi. U fransuz tilini o'rganishni boshlaganida juda oson o'zlashtirdi, o'qituvchi go'zal tilaffuzi uchun uni doim maqtardi. Nima sababdan til o'rganishi bunchalik oson bo'lganini muallim uning onasidan so'rab-surishtirdi. Shunda Kammak uch yoshigacha yarim yil fransuz rohibasi boshqaradigan bog'chaga borganligi ma'lum bo'ldi.

Bu kabi hikoyalar meni chet tillarini o'rganishning yangi samarali usullari bo'lishi mumkinligi haqidagi o'nya toldiradi. Masalan, butun dunyo bo'ylab so'zlarni talaffuz qilish elementlari 70 turni tashkil qilsa, ularning barchasini bir allaga birlashtirishning iloji yo'q. Ammo turli tillardagi allalarni yozib olib, bolaga tug'ilishidan boshlab qo'yib berish mumkin. Bu ehtimoliy usullardan faqatgina biri, albatta.

## **Grammatikani 5 – 6-sinfdan o‘rganish mumkin, go‘daklikda esa to‘ti kabi takrorlash yetarli**

Qadimgi Gretsiyada ona tilida so‘zlashish qobiliyati nasldan o‘tadi deb o‘ylashardi. Bunga ishonish qiyin, ammo XX asrda ham ba’zilar bu afsonaga ishonadilar. Agar ona tili nasldan o‘tganida, xorijda tug‘ilgan yapon bolalari Yaponiyaga qaytganidan so‘ng yapon tilini o‘rganishi oson bo‘lardi. Ammo ular yaponchani qiyinchilik bilan o‘zlashtiradilar, chet tilida (oddiy yaponlarga, odatda, qiyin tuyuladi) esa, aksincha, bemalol so‘zlashadilar.

Bola so‘zlay boshlaganida ona tilini atrofdagilar so‘zlashganini har kuni eshitgani uchun o‘zlashtiradi. Bolaning miyasida ona tili tayyor namuna shaklida mahkamlanadi. Masalan, «xayrli kun» jumla sini olsak, bu so‘zlar alohida harflab emas, bolaning xotirasida butun bir shaklida muhrlanadi. Bolalar so‘zlarning ma’nosini ulardan foydalanish jarayonida asta-sekin anglaydilar. Agar gapirish uchun so‘zlarning ma’nosini tushunish majburiy bo‘lganida go‘dak hech qachon gaplashishni o‘rganolmasdi.

Agar bolaga qiyofalarni anglash qobiliyati eng yaxshi ishlaydigan davrda turli ma’lumotlar berilmasa,

uning aqli rivojlanmaydi. Kattalar xorijiy tillarni o‘rganishi juda qiyin, chunki ularda bu qobiliyat zaiflashadi, ular biror narsani xotirada saqlashi uchun avval tahlil qilishi va tushunishi zarur. Shu bois avval chet tilining grammatikasini o‘rgansangiz, keyin unda so‘zlashish qiyin bo‘ladi. Bu bizga tanish og‘riqlli nuqtadir.

Grammatikani 5 – 6-sinfdan o‘rganish kerak, go‘daklikda to‘tidek oddiygina takrorlash lozim. Chunki qiyofalar yoshida bola rivojlanishi uchun eng kerakligi tashqi rag‘batlarni doimiy takrorlashdan iborat.

Yosh go‘daklar ta’limida tahlil va nazariyaga darhol o‘tish, chuqur tushunishga harakat qilish kerak emas. Tushunish – ta’limning bu yoshdagি asosiy maqsadi deb hisoblash xatodir. Bola qiyofalar yoshidan o‘tganidan keyin va mantiqan fikrlash qobiliyliga ega bo‘lganida tahlilga o‘tish darkor.

Bu davrda bolaga turli tashqi rag‘batlar orqali ta’sir qilish kerak deganimda «shu orqali ota-onal bolaga bosim o‘tkazadi va unga ma’lumotni zo‘rlab tijishtiradi», deb menga e’tiroz bildirishdi. Fikrimha, tarbiyaga bo‘lgan zamonaviy yondashuv zararli, chunki bolaga ota-onal bosimi kerakli paytda u yo‘q, majburlash kerak bo‘lmagan paytda esa ota-onal bolaga bosim qila boshlaydi. Natijada eng ko‘p aziyatni bola chekadi. Men atayin «juda kech» deb aytaman, chunki tarbiyada tahlil qilish qobiliyati va tayyor usullarni anglaydigan qobiliyatga mos ta’lim usullarini aniq ajratish zarur deb hisoblayman.

## **«Qayerdadir eshitganman» degan tajriba keyinchalik bola qobiliyatlarini rivojlantirishga turtki bo‘ladi**

Dunyoga mashhur dirijyor Oomati Yoitiro men-  
ga qiziq bir voqeani aytib bergen edi. Bir safar u Ger-  
manianing Dortmund shahrida «Rigoletto» ope-  
rasiga dirijyorlik qilgan. Opera tenor qo’shiqchilar  
an'anaga ko‘ra o‘z ariyalarini bezaklar – o‘ziga xos  
ohangdor figuralar bilan tugatadilar. Mashg’ulotda  
Oomatiga tenor zarur sur’atda kuylamayotgandek  
tuyuladi: ariyaning shu joyida boshqacha bo‘lishini  
eslaydi. U tenorga tezroq kuylashni aytib ko‘rsatadi.  
Oomati «Rigoletto»ga birinchi marta dirijyorlik qil-  
gan, ammo ariya oxirida bu bezaklar qanday kuyla-  
nishini aniq eslagan edi.

Orkestr bosh rahbari Oomatining ko‘rsatmalariga  
ishonadi va dirijyorlik qilishiga rozi bo‘ladi. Orkestri  
sozandalari Oomati bu musiqaga birinchi marta di-  
rijyorlik qilganini eshitib hayron bo‘lishadi va ariya  
oxirida zarur sur’atni qayerdan bilganini so‘rashadi.  
Oomatining o‘zi ham buning sababiga tushunmay  
boshini qimirlatib qo‘yadi, xolos. Keyinroq u uyidagi

esti plastinkalarini oladi va ularni eshita boshlaydi. Shunda hammasini tushunib yetadi.

Oomati oilada yolg'iz farzand edi, yoshligida tinglashi uchun musiqa qo'yib qo'yishardi. U kuni bo'yil plastinkalarni tinglar, ular orasida «Rigoletto»dan ariya bor edi. Bu Enriko Karuzo ijrosidagi mashhur «Go'zallar qalbi xiyonatga moyil» ariyasi edi. Karuzo ijrosi Oomatining xotirasida muhrlangan va birinchi marta operada dirijyorlik qilganida bu xotiralar miyasida jonlangandi. Shuning uchun sur'at sekinligini darhol sezib qoladi. Ammo ushbu ariyani tinglaganida Oomati bir yoshda edi! Demak, uning miyasi bu ma'lumotni 40 yil mobaynida saqlab kelibdi. Hatto men ham ajablandim.

Oomatining hikoyasiga batafsil to'xtalishimga sabab shuki, u men qiyofalar xotirasi deb nomlagan fenomenni tasdiqlaydi. Bolaning xotirasida mexanik ravishda kiritilgan ma'lumot ulg'ayganida ham u tilan qoladi va qayerdadir unga asqatadi. Shunday raponlar borki, chet tilida ona tilida so'zlashuvchilardan ham yaxshiroq gapiradilar. Gap shundaki, go'daklikda ular shu til asosiy til bo'lgan mamlakatda bir muddat yashaganlar. Ko'p yillar o'tadi va imkoniyat tug'ilganida yoshlikdagi xotiralar jonlanadi, xorijiy so'zlar tildan chiqadi. Shunda bunday so'zlar ozlariga tanish bo'lgan chet elliklarni bu holat juda tanjublantiradi.

Bu haqda gapirib berganimda hamma hayratga tushadi, aslida ajablanadigan yeri yo'q. Agar go'dak-

likda bola doimo takrorlanuvchi rag'bat olsa, qiyofalar fa xotirlash sodir bo'ladi, ya'ni miya hujayralarida ma'lumot muhrlanadi, natijada bu hujayralar kera bo'lganda harakatga keladi. Shu bois qiyofalar davrida bola o'ziga kelayotgan ma'lumotni tushunishi muhim emas, asosiysi, katta hajmdagi ma'lumot bilan uni qamrab olish ekanini ta'kidlashdan charchamay man.

Ayniqsa, til va musiqa ta'limida – bu yerda hissiv qabul qilish mantiqiy anglashdan muhimroq hisoblanadi. Agar go'daklikda zarur ma'lumot miyada qiyofalar shaklida muhrlanmasa, boshqa o'r ganilgani ma'lumotni idrok qilish qiyinlashadi va til yoki musiqa hissiyotini singdirishning iloji bo'lmay qoladi.

Masalan, ko'plab yaponlar ingliz tilidagi «r» va «l» tovushlarini talaffuz qila olmaydilar. Biroq ulan ni yaxshi farqlaydigan va go'zal talaffuz qila oladiganlar ham bor. Ehtimol, ular yoshligida qayerda dir buni eshitgandir, zarur paytda bu tajriba ularga yordam beradi. Men uyalaman, chunki «r» va «l» tovushlarini deyarli farqlay olmayman. Ayniqsa, bu tovushlarning ikkalasi ham qatnashgan so'zlardan yanada qiyin. Masalan, «New Orleans», axir yapon tilida bu «nyuyu orurii ndzu» deb talaffuz qilinadi. Bu va boshqa tovushlarni farqlay olmaslik – o'ziga xos kamchilik sanaladi. Shuning uchun ogohlantirish ma'nosida men: «Bolada kamchiliklar bo'lishimi istasangiz, unga tillarni kechroq o'rgatishni boshlang», deb doim aytaman.

Albatta, erta tajriba faqat tillar va musiqa o'rganishdagina zarur deb bo'lmaydi. Aytish mumkinki, bu yoshda to'plangan tajriba qaysidir darajada inson qanday yo'nalishda rivojlanishini ham belgilab beradi.

Oxirgi paytlarda nafaqaga chiqqan kishilarning latta muammosi «ikkinchi hayot»dagi ish va umr inzumunini topishdan iborat bo'lmoqda. Ammo bunum umrga daxldor ish tug'ilishdan boshlab aniqlanadi. Go'daklikda bolani qanday tarbiya qilishgani va rivojlantirishgani odamning «ikkinchi hayoti»ni qanchalik yaxshi o'tkazishini ham belgilaydi. Bu bir qarashda g'ayritabiyy eshitiladi. Ammo insonning qandayligi asosan chaqaloqlikda hal bo'ladi, shuning uchun go'daklik va qarilik umuman bog'liq emas deb aytolmaymiz<sup>1</sup>. Hayotning to'kilish onlari u endigina boshlanayotganida aniqlanadi – go'daklikdagi tarbiya odamning butun hayotiga shu qadar muhim ta'sir ko'rsatadi.

«Qayerdadir eshitganman» tajribasi jamlangan ta'lim bolaga kech bo'lmasidan avval qo'llanishini oshlardim.

<sup>1</sup> Yapon maqolida shunday deyiladi: «Qalb uch yoshda qanday bo'lsa, bu yoshda ham shunday bo'ladi».

## **Agar go‘daklikda oliy darajali ong singdirilsa, «oliy darajadagi ongli shaxs» ulg‘ayadi**

Zamonaviy onalar farzandlari obro‘li universitetga qabul qilinishi, keyin obro‘li kompaniyaga ishga kirishini istashadi. Buni amalga oshirish juda oddiy. Tug‘ilgani zahoti chaqaloqqa oliy darajali ong namuna sifatida singdirilishi kerak. Albatta, «oliy darajali» tushunchasiga odamlarda har xil qarashadi. Ammo ona oliy darajali borasidagi qarashlarini shu holicha bolaga o‘tkazadi.

Nima yaxshi va oliy darajali ekaniga hozir aniqlik kiritmaymiz. Bir narsa aniq: ulg‘ayganda insonning shaxsi va xulq-atvori qanday bo‘lishi onaning go‘dal tarbiyasiga ongli yondashuviga bog‘liq. Farzandlari faqat obro‘li universitetga qabul qilinishi va obro‘li ishga joylashishini istaydigan ota-onalar esa o‘z majburiyatlariga beparvolik qiladilar. Agar ota-onalar farzandlarining muvaffaqiyatga erishishini istasalar tarbiyani mustaqillik kurtaklari va shaxsiy «men»ini anglashidan avval boshlashlari kerak.

Hozirgi kundagi turli o‘quv muassasalariga kirish uchun tayyorlov kurslari bo‘yicha hayajonlar, ehti-

mol ota-onaning o‘z farzandini muvaffaqiyatga erishuvchi qilish istagi bilan bog‘liqdir. Obro‘li universitetga kirish uchun obro‘li mакtabda o‘qish kerak, bu yerga kirish uchun obro‘li o‘rta maktabni tugallash zarur va hokazo. Nufuzli bolalar bog‘chasiga kirish uchun eng yaxshi tayyorlov mакtabi – bu oila.

Zamonning buyuk insonlari hikoyalarini eshitsak, ularning barchasi shu ajoyib tayyorlov maktabining «bitiruvchilari»dir. Ehtimol ularning ota-onalar buni o‘ylab farzandlarini tarbiya qilmagandirlar, bitiroq har kim pirovardida oliy darajali shaxsga aylanishi uchun tarbiyalanadi. Oliy darajali bo‘l deb alohi-da aytishmasa ham, oiladagi muhit va ota-onsa xulqi tutayli bolada tabiiy ravishda oliy darajali ong tarbiyalanadi va kelajakdagi muvaffaqiyat uchun zarur qobiliyatlar rivojlanadi.

Yaponiyada mototsikllar qiroli deb atalgan marhum Xonda Soitiro umrining dastlabki yillarida bobosi ko‘pincha uni yelkasiga opichtirib yaqin atrofdagi guruch tozalanadigan joyga olib borganini aytib bergen edi. U yerda har kuni tozalash uchun apparatga ishlatiladigan benzin isidan nafas olardi. Yillar o‘tib Xonda mototsikllar bilan qiziqib qoladi. Bo‘lajak «mototsikllar qiroli» uchun buvasining yelkasi har qanday badastir jihozlangan sinfdan ko‘ra yaxshiroq tayyorlov mакtabi bo‘ldi. Albatta, yoshlikda benzin hididan nafas olgan har bir odam «mototsikllar qiroli»ga aylanmaydi, ammo buvasi bilan birga

bo'lgan sayrlar, shubhasiz, Xondaning muvaffaqiyati  
tida katta ahamiyat kasb etdi.

Hozirda biz ta'larning keskin o'sishini kuzatmoqdamiz, chunki ota-onalar ta'lim g'oyasi va tarbiyani noto'g'ri tushunadilar, oilada bola rivojlanishi uchun eng muhim bo'lgan «tayyorlov maktabi»ni yaratish uchun esa hech nima qilmaydilar.

## **Jajji kichkintoyga eng yaxshi narsalarni ko'rsatish va berish kerak**

Avvallari oilalar katta bo'lardi. Ko'pincha buvi  
va buvalarning nevaralarini, masalan, teatr yoki  
biror-bir mashg'ulotga<sup>1</sup> olib ketayotganlarini ko'rish  
mu'mkin edi. Albatta, bu bolaning rivojlanishiga yax-  
shi ta'sir qilar edi va bunday ezgu amallardan bah-  
ramand bo'lganlar keyinchalik atoqli insonlarga  
aylanishdi.

Bu haqda so'z ochganimning sababi, zamonaviy  
bolalar bunday imkoniyatdan mahrum va turli  
mu'lumotlar bilan duch kelishlari kam kuzatiladi.  
Oldinlari buvi va buvalar yaxshi narsalardan zavqla-  
nirdilar va nisbatan bo'sh edilar, shuning uchun ne-  
vuralari bilan vaqt ni xushnud o'tkazar va ularni tur-  
li joylarga olib borardilar. Ular bolalar juda yosh va  
biror narsani tushunmaydi deb o'ylamasdilar, buvi  
va buvalarga nevaralar bilan birga bo'lish va ularni  
olib yurish yoqardi. Natijada bola yaxshi, qiziq nar-

<sup>1</sup> Yaponiyada nafaqaga chiqqanlar ko'pincha an'anaviy madaniyat  
bog'liq mashg'ulotlarga: syamisene (yapon musiqa asbobi)ni cha-  
huni o'rganish, yapon shirinliklarini tayyorlash, an'anaviy qo'shiqlarni  
buylashni o'rganishga boradilar.

salar qurshovida bo'lar va bu ma'lumotni o'ziga sing dirib ulg'ayardi. Men buni yaxshi ta'sir deb atayman.

Ota-onaning «shirin taom beraman yoki qiziq narsa ko'rsataman, u esa baribir hech narsani tushunmaydi» degan badbin fikrlari bola uchun juda zararlidir. Ba'zi lar farzandlarini oliv darajali restoranga olib borganda bola to'polon qilsa, atrofdagilarga noqulaylik tug'iladi deb bezovtalanadilar. Ammo bola oliv darajadagi restoranda va ikkinchi darajali tamaddixonada o'zini qanday tutish kerakligini tushunadi.

Yaxshi tayyorlashni o'rganish uchun mazali taom larni tanovul qilish kerak. Ammo zamonaviy tarbiya aslida quyidagi ko'rinishga ega, ya'ni: «biz senga bemaza ovqat beramiz, keyin sendan bosh oshpar bo'lishingni talab qilamiz», degan kabitdir. Aniqki, ota-ona farzandini «ikkinchi darajali» tamaddixonalarga olib borishar ekan, uni «oliv darajadagi» joy larda bo'ladigan «oliv darajali» xulq-atvorga o'rgatish qiyin bo'ladi.

Yosh go'dakni eng yaxshi narsalar bilan qamrab olish zarur, chunki u murg'ak jon. Axir yosh bolalar juda sezgir bo'ladilar va to'g'ri tarbiya usulini tez o'zlashtiradilar. Odatda, ishga qabul qilayotganda va nikoh tuzilayotganda nomzod qaysi oiladan ekaniga doim e'tibor beradilar. Ammo ijtimoiy holati va oila farovonligi asosiysi emas. Inson yoshlida ulg'aygan muhit, ota-onaning uni eng yaxshi va qiziq narsalar bilan qamrab olishga intilishi ancha muhim o'rinn tutadi.

Ko'plab odamlar boy va mashhur bo'limganlar, amma yaxshi muhitda ulg'ayganlar. Tajribaga boy buvi va buvalar ham go'dakning rivojlanishi uchun munosib muhit yaratishda o'z vazifalarini bajaradilar. Agor ota-onada pul bo'lmasa, bolaga to'laqonli rivojlanish uchun sharoit yaratib bera olmaydilar deb o'yash xatodir. Go'dak tarbiyasida eng muhimi pul mas, balki ota-onaning uni yaxshi narsalar bilan qamrab olishga intilishidir.

## **Farzandingizni imkon qadar tez-tez sayrga olib chiqing**

Endigina qarashni boshlagan yangi tug'ilgan chaqaloqni o'rab turuvchi dastlabki narsalar shi qildoqlar va belanchagi ustidagi aylanadigan o'yin choqdan iborat. Chaqaloq qiziqish bilan o'yinchosqa qaraydi, shiqildoq tovushlarini eshitadi, ammo bu unga yetarlimi? Har safar belanchakda o'yinchog'ini kuzatib yotgan chaqaloqlarga qaraganimda meng'uuddi bu ularga kamlik qilayotgandek tuyuladi.

Go'daklikda bolalar atrofdagi barcha narsalarga juda katta qiziqish bilan qaraydilar: hatto uchib ketayotgan pashshani qiziqib tomosha qiladilar. Agar polda chumoli ko'rib qolsalar, «nihoyat, qandaydir qiziqarli narsa» degan ma'noda uni kuzatadilar. «Rag'batlarga tashnalik»ni qondirish uchun bolan «tashqi dunyo»ga: nafaqat pashsha va chumolilarni balki mashinalar, kuchuklar, mushuklar, hattoki qushlar va samolyotlarni ko'rishi mumkin bo'lgan ko'chaga ko'proq olib chiqish kerak.

Biroq oxirgi paytlarda onalar chaqaloqlari bilan ko'chada kam ko'rindilar. Albatta, buning sababini hozir qisman ko'pchilikda shaxsiy mashina borli-

gi bilan izohlanadi. Ammo, eshitishimcha, ko'proq vosh onalar farzandlarini ko'chaga olib chiqishni istamaydilar, chunki sayr uchun yo'llarning holati yaxshi emasligi, ko'chalarda tozalik yo'qligidan yoki bola kasal bo'lib qolishidan qo'rqaqadilar. Sovuq bo'lsa, shamollab qoladi, issiq bo'lsa, qizib ketadi deb o'ylaydilar. Onalar go'daklarni maksimal toza yerlarga joylashtirishga harakat qiladilar va bu bilan atrofdagi barcha qiziq narsalarga yo'lni to'sib qo'yadilar. Bu bolaning aqliy rivojlanishiga yomon tu'sir qiladi.

Tabiat bolaning rivojlanishi uchun xazinadir deb bejiz aytishmaydi. Atrof-muhit go'dak qiziqishini uyg'otadigan narsalarga to'la. Farzandini kam sayr-gi olib chiqadigan ona o'z majburiyatlariga beparvollik qiladi. Albatta, ko'chada bola shamollab qolishi va shikastlanishi mumkin. Biroq ona uni to'rt devor ichiga qamab, rivojlanishi uchun go'zal imkoniyatlar-dan mahrum qiladi.

Jajji kichkintoylar ko'chada kuchuk va mushuklarni hayrat bilan tomosha qiladilar. Ularni mashinalarni kuzatishdan to'xtatish qiyin. Baqqolchilik do'konidagi rang-barang sabzavotlar va mevalar instasi ularda haqiqiy qiziqish uyg'otadi. Ko'chada bolani uyda bo'limgan rag'batlar qamrab oladi, bu uning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga turtki bo'ladi. Axir ko'cha xavfli deb yangi aqliy tajribaga ega bo'lishning ajoyib imkoniyatini qo'ldan chiqarish mumkinmi?

Onanining mas'uliyati – bolaning salomatligi haqidagi qayg'urish va uni xavf-xatarlardan saqlash, rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum qilish emas. Tabiat esa jismoniy va aqliy faoliyatni eng yaxshi rag'batlanuvchi hisoblanadi.

## **Go‘dakning har bir «agu-agu»siga ona faol javob berishi kerak**

Ikki ayol tug‘uruqxonada tanishib qolishdi, ularning farzandlari deyarli bir vaqtida tug‘ilishi ayon edi. Ikki chaqaloq ham baquvvat va sog‘lom tug‘ililar. Bir necha oydan keyin biri ikkinchisining uyig‘u mehmonga bordi va chaqaloqning xulq-atvoridan quttiq ajablandi. O‘zining farzandiga nisbatan u faoliyoq tovush chiqarardi. Chaqaloq yaxshi gaplasha olmasa-da, doim onasi bilan so‘zlashgandek bo‘lardi.

Ayol bunday farq qayerdan paydo bo‘lganiga qiziqdi. U o‘rtog‘idan surishtirdi, qizig‘i, ular deyarli barcha narsani bir xil qilishar ekan. Ammo shu payt bog‘chadan chaqaloqning opasi qaytib keldi va hammasi darhol oydinlashdi. Qizcha uyga kirgani zahoti chaqaloqning oldiga bordi va uning bijirlashiga nimadir deb javob berdi. Onaning so‘zlariga ko‘ra, qizcha ukasi tug‘ilganidan juda xursand ekan, bungacha u qo‘g‘irchoqlar bilan gaplasharkan, endi esa bor e’tiborini chaqaloqqa qaratadigan bo‘libdi. Ona qizcha ni bu odam bolasi ekanini bilyaptimi yoki «qo‘g‘irchoq»ni o‘ynatayaptimi tushunolmayotganini aytib kulib yuboribdi.

Albatta, bola tug'ilgani zahoti yig'idan tashqari «aaa» yoki «agu-agu»ga o'xshash tovushlar chiqradi, qisqasi, agulaydi. Bu tovushlar yig'idan, qorni och yoki tagi ho'l bo'lganida onasini chaqirishidan farqlanadi. Odatda, bola kayfiyati yaxshi bo'lsa va o'zini yaxshi his qilsa agulaydi, shuning uchun yoni ga tezda yugurish shart emas. Birmuncha vaqt u o'zi ga agulaydi, keyin uxbab qoladi.

Ammo bolaning rivojlanishi atrofdagilar uning «agu-agu»siga faol javob berishiga qarab har xil bo'ladi, yuqoridagi misolda buni ko'rish mumkin. Psixologiyada bunday «ovoz chiqarish» xuddi yig'i va kulgi kabi ma'lumot uzatish vositasi hisoblanadi. Bu tovush bola atrofdagilarga o'zining mavjudligini bildirish, o'z istaklarini yetkazishga harakat qilayotganini ifodalovchi ishoradir. Agar tovushlarga tezda javob berilsa, bu ishorali xatti-harakatlar ko'payadi. Bu faqatgina ovoz chiqarib javob berish degani emas, balki go'dakni silash, erkalatish, tebratish ham shu vazifani bajaradi. Istalgan usul to'g'ri kela veradi.

Muhimi, boladan kelayotgan tovushga darhol javob bo'lishi kerak. Radioalmashinuvda «shu odam aloqada, iltimos, javob bering» degan tovush berilganida, agar javob tezda kelmasa, yuboruvchi «javob yo'q» degan tovushni qabul qiladi va radioaloqa to'xtaydi. Xuddi shunday, chaqaloqdan kelgan tovushga darhol javob berilmasa, u bunday tovush ishlamaydi deb o'laydi.

Agar o‘z vaqtida javob berilsa, bola sekin-asta aloqaga qanday ishlashini tushunadi va murakkabroq tovushlarni ishlatib ko‘ra boshlaydi. Bu uning aqli rivojishiga xizmat qiladi. Psixologlar, shuningdek, ona bola o‘rtasidagi faol aloqa ular o‘rtasida hissiy muhabatlarni ham vujudga keltirishini ta’kidlaydilar.

Ma’lumot ayirboshlash – ikki tomonlama jarayon, uning javoblari, o‘z navbatida, bolada yangi tovushlarni qo‘zg‘atadi. Bola tinch yotgan bo‘lsa ham, imkon qadar uni ana shunday gapirtirishi zarur. Shunday tovushlar almashinushi go‘dakni bosiq qiladi va ulg‘ayganida unda odamlar o‘rtasidagi masalalarni oson hal qilish qobiliyati shakllanadi.

Agar bolaning tovushlariga gohida javob berilsa, nima bo‘ladi? Xonada yolg‘iz qoldiriladigan bolalar juda kam agulaydilar.

«Uchdan keyin kech» kitobida men Amerikada maxsus uy o‘qituvchilari orasida o‘tkazilgan tadqiqot huqida yozgan edim. AQShdagi bir shaharda ota-onai ikkisi ishlaydigan va bola ona bilan kam vaqt o‘tkazadigan oilalarga ish kunlari maxsus o‘qitilgan shaxsiy tarbiyachi kelib, bir soat bola bilan suhbatlashar edi.

Bir yildan so‘ng uy o‘qituvchisi kelib turadigan oilalardagi go‘daklarning IQ darajasi xuddi shu oilaviy sharoitda bo‘lgan va hech kim kelmagan bolalarga nisbatan yuqori bo‘lganligi aniqlanadi. Ayniqsan, nutq qobiliyatida farq seziladi. Mana shuning uchun ham bu yoshda bola har bir «agu-agu»siga javob olishi kerak.

Mavzu boshida men aytgan qizcha esa onasi band bo‘lganida kichik ukasi uchun maxsus o‘qituvchi va zifasini a’lo darajada bajardi. Ehtimol u endi go’daklik davridan o‘tgani uchun chaqaloqning barebu «aaa» va «agu-agu»larini xuddi oddiy nutq sifatida qabul qilgandir.

## An'anaviy o'yinlar bolada mustaqillikni tarbiyalaydi

Yapon tilida «tarbiyalash» («sitsuke») va «yuklash» («ositsuke») so'zлari o'xshash talaffuz qilinadi, shuning uchun beixtiyor tarbiya qiluvchi va tarbiya oluvchilarda bu o'xshashlik biroz noxush o'ylarni paydo qiladi. Ammo tarbiya olmasdan bola kelajakdagi mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikmalarni olishi mumkin emas. Ko'p bor takrorlanganidek, go'dak tarbiyasida asosiy vazifa onaning zimmasida, buning uchun eng muhim davr qiyofalar yoshidir. Ota-onaning tarbiya usuli sifatida «majburlash»dan foydalanishi to'g'risidagi savol ochiq qolmoqda. Fikrimcha, qiyofalar yoshida ota-onaning «majburlashi» go'dakka salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bundan imkon qadar unga bosim o'tkazish kerak degan ma'no kelib chiqmaydi. Gap qiyofalar yoshidagi o'yinlar haqida bormoqda. Ona bilan o'yinlar bolalning kelajakdagi ijtimoiy mustaqilligi uchun tayanch bo'ladigan asosiy mashqlar hisoblanadi.

Odamlar uzoq yillar oldin bolalarni o'yin shaklida tarbiyalash uchun ona va bolaga mo'ljallangan ko'plab o'yinlarni o'ylab topishgan. Mashhur tan-

qidchi Yasuda Takesining so‘zlariga ko‘ra, hattoki «ku-ku» o‘yini ham bolada mustaqillikni rivojlantiradi. Onaning yo‘qligi bolalarni juda qo‘rqitadi: ona ketgani zahoti ular yig‘lay boshlaydilar va uni chaqiradilar. «Ku-ku» o‘yini bolalarga ona yo‘qligiga asta-sekin o‘rganishga yordam beradi, u go‘dakning hayotidagi birinchi mashqidir.

Ona bekinganida bola qo‘rquvni his qiladi, keyin u paydo bo‘ladi va bola tinchlanadi. Qo‘rquv-tinchlanish hissiyotlarini almashtirish bola ongida «ona ketdi, ammo tezda qaytadi» degan tushunchani mustahkamlaydi. Asta-sekin, onasi yonida bo‘lmasa ham, bola xavf va qo‘rqinchni his qilmaydigan bo‘ladi. Bu orqali unda o‘z-o‘zidan mustaqillik hissiyoti yuzaga keladi va kuchayadi.

Haqiqatan ham, an’anaviy o‘yinlarda ona va bola uchun juda ko‘p tarbiyaviy lahzalar mavjud. Ota-oni bola bilan «bu yerga kel» o‘yinini o‘ynashganida u na-faqat yurishni mashq qiladi, balki bu o‘yin o‘z kuchi bilan maqsadga erishishni o‘rgatadi. Agar har kuni mashq qilinsa, bolada asta-sekin o‘ziga ishonch paydo bo‘ladi.

Qadim zamonlarda odamlar yosh bolalar tarbiyasini yaxshi bilishgan. Har bir odam o‘tmishda qandaydir yangi va dolzarb narsani kashf qilishi mumkin. Zamonaviy onalar an’anaviy o‘yinlarga e’tibor qaratishlari va bola tarbiyasi uchun ba’zi narsalarni qabul qilishlari mumkin. Tarbiyaning eng yaxshi usullari – ularning zamonaviylaridan iborat deb hisoblash o‘zini boshqa usullar tanlovida chegaralash demakdir.

## Xorijiy tilni o'rgatayotganingizda tabiiy sur'atda gapiring

Men ingliz tilini o'rganishni o'rta maktabga o'tganimda boshladim<sup>1</sup>. Biz sinfdoshlar bilan o'qimvchi juda sekin talaffuz qilganida, «It – is – a pen» deganidagina tushuna olardik. Har bir so'z ma'nosini alohida tahlil qilgandagina nima haqida gap ketayotganini tushunardik. Sur'at shunchalik sekin bo'lgani tushunarli.

Deylik, bunday shaklda tilni o'rgangan katta yoshlagilarning tabiiy sur'atda gaplashadigan xorijliklar bilan so'zlashishiga to'g'ri kelib qoldi. Shunda ular tabiiy sur'atda gapi rayotgan xorijliklarning har bir so'zni tahlil qilishga ulgurmaydilar, oqibatda gap nima haqida ekanini umuman tushunmaydilar. Chet tilida biror narsa aytish kerak bo'lsa, kattalar har bir so'z haqida o'ylaydilar, nutq sur'ati shu qadar sekinishadiki, suhbatdoshlar asabiylasha boshlaydilar. Yaponlarning ingliz tilida muloqot qilishdagi qo'rquvi shu tarzda eshitgan ma'lumotni tahlil qilishga intilish va so'zlashish sababli sodir bo'ladi.

<sup>1</sup> Yaponiyada ingliz tilini, odatda, o'rta maktabda o'rganish boshlanishi (bizning maktablarga solishtirganda 7-sinfdan boshlab). Hozirda bu bolat asta-sekin o'zgarib bormoqda.

Yapon tilida hali bemalol so'zlashishni o'rganma-  
gan bolalar esa xorijlik qo'shnilarining bolalari bilan  
tezda do'stlashadilar va tez orada ularning tilida o'  
ona tilidek so'zlasha boshlaydilar. Uddasidan chi-  
qishlariga sabab shuki, ular hali so'zlarni tahlil qi-  
lishni bilmaydilar. Bolalar alohida so'zlar ma'nosini  
emas, balki to'liq gapning ma'nosini anglaydilar,  
shuning uchun kattalar bitta so'zni o'ylab ko'rguni-  
cha to'liq gapni ayta oladilar: «It is a pen».

Biz kompaniyamizda «Gapiruvchi kartochkalari»  
qurilmasini ishlab chiqdik. Kartochkalarda rasm chi-  
zilgan va so'z yozilgan bo'ladi. Bola kartochkani quril-  
maga kiritganida avvaldan yozilgan audioyozuvni  
ya'ni so'zni kartochkadan o'qiydi. To'g'risini aytgan  
da, ingliz tilida so'zlarni o'qish tezligi asosiy muam-  
mo bo'ldi. Kimdir so'zlarni maksimal darajada sekin  
sur'atda yozishni taklif qildi, chunki kartochkalardan  
yapon tilini hali yaxshi tushunmaydigan yosh bola  
larga ingliz tilini o'rgatish uchun foydalanish nazarda  
tutilgan edi. Bolalarning qiyofalar (shakllarni)ni ilg'ash  
qobiliyatini hisobga olish kerakligini aytib ularga e'ti-  
roz bildirildi, sababi, odatiy tezlikda talaffuz qilingan  
so'zlarni bola osonroq tushunadi. Biz ikkita fikrni  
ko'rib chiqdik, ko'pgina tajribalar o'tkazdik va bolalari  
juda yosh bo'lganlari uchun ham audioyozuvni odatiy  
(tabiiy) sur'atda yozdirish zarur degan xulosaga keldik.

Aminmanki, bu bolalarda ingliz tili ko'nigmalarini  
rivojlantirishga yordam beradi. Bir onaning aytishi  
cha, sur'at qanchalik tez bo'lsa, uning farzandi so'zlarni

tezroq yodlab olar ekan. Uch yashar bola kattalarga juda tez tuyulgan sur'atda yozilgan «Ona g'oz qo'shiqlari»ning barchasini ikki hafta ichida yodlab olibdi.

Bolalar «tabiiy» ma'lumotni tezroq va osonroq qabul qilishadi. Ota-onada bola ma'nosini tushunishini istaydilar va bu ma'lumotni sun'iy ravishda o'zgartirdilar. Ammo teskari natija kelib chiqadi, ya'ni kichkintoyning miyasida hamma narsa chalkashib ketadi. Yosh bolalar ingliz tilini o'rganganlarida ular odatiy sur'atdagi nutqni tezroq eslab qoladilar. Shu orqali bolalar xiragana va katakanadan<sup>1</sup> ko'ra iyerogliflarni, ayniqsa, qiyinlarini tezroq o'zlashtiradilar, qiyofalar davrida bolaning iyerogliflarni tanishi osonroq, chunki kichkintoy uchun ular tabiiy narsadir. Bolaga avval xiragana o'rgatib, keyin iyerogliflarga o'tish unga noqulaylik tug'dirishdan boshqa narsa emas.

Bundan tashqari, agar go'dak nutqning tabiiy tezligiga o'rgansa, bu uning miyasida qiyofalar shaklidu muhrlanadi va kelajakda uni o'rganishga harakat qilib qiynalishiga hojat qolmaydi. U «toza qog'oz» holatida bo'lganida miyaga ma'lumotni yozib olish ancha osonroqdir. Miyaga o'rashib bo'lgan narsani to'g'rilash uchun esa ko'p mashaqqat chekiladi.

Agar odam go'dakligida biror-bir shevada gaplashishni o'rgansa, ulg'ayganida albatta rasmiy yapon tilini o'rgana oladi va unda gaplasha biladi, ammo bu unga oson bo'lmaydi. Ba'zilar esa shevadan butun

<sup>1</sup> Xiragana va katakana – yapon bo'g'inli alifbolari, ularni iyerogliflardan avval o'rganadilar, ularda yosh bolalar uchun kitoblar yozilgan.

umr qutula olmaydilar. Kimlardir inson biror shevada gapiriladigan joyda yashasa, o'sha sheva «standart» sheva bo'ladi, shuning uchun normativ yapon tilim o'rganishga harakat qilmasa ham bo'ladi deb o'yashadi. Ammo agar kelajakda bolaga «standart» til kerak bo'lsa, ota-onas uning go'daklikda tilni o'rganishi haqida qayg'urishlari zarur. Shundagina bola ulg'ayganida uning bu borada muammolari bo'lmaydi.

Erta rivojlanish bo'yicha keng tarqalgan noto'g'ri bir tushuncha bor, ya'ni kattalarga to'g'ri keluvchi narsalarni go'daklar qabul qilishi mushkul deyishadi. Shuning uchun bolalar bilan maxsus bolalar tilida so'zlashadilar va ular tushunishi uchun so'zlarni sekin talaffuz qiladilar. Ammo «faqat bolalar uchun qo'shiqlar, ertaklar va qo'shiqlar orasida bolaning rivojlanishiga to'siq bo'ladiganlari ham ko'p. Bolalarga mo'ljallangan va g'ayritabiyy ravishda qayta ishlangan qo'shiqlar va ertaklar bola miyasida chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Eng yaxshi qo'shiqlar va ertaklar haqiqiylari bo'lib, ular uzoq vaqtidan beri mashhurligi sababli kattalarga ham, bolalarga ham birdek tushunarlidir.

Yaponiyada xorijiy tillarni «It – is – a – pen» shaklida o'qitish usuli ustunlik qilganligi sababli bi, yaponlar, ingliz tilida muloqot qo'rquvidan qutula olmaymiz. Biz boshqa tilda o'z ona tilimizdek o'qish, eshitish, so'zlashish va yozishga harakat qilishimiz kerak. Buning uchun eng qisqa yo'l bolalarga go'daklikdan «tabiiy» xorijiy tilni o'rgatishdir.

## **An'anaviy yapon tatamisi<sup>1</sup> – bola rivojlanishi uchun ajoyib maydon**

«Xotin bilan tatami qanchalik yangi bo'lsa, shuncha yaxshi» degan qo'pol gap bor. Bu gapda bizga muhimi tatamida yosh bola rivojlanishi uchun ko'pgina ijobjiy jihatlar mavjudligini aytishdir. Somon va qamishdan tayyorlangan tatami polining qalinligiga qarab qadimda insonning jamiyatdagi mavqeyi bilinar edi deyishadi. Hozir esa bunday bema'ni odat yo'q, hamma uyda bir xil tatami ishlataladi. Tatamini tayyorlayotganda somonni zich joylashtirishadi va vigirilgan kanop ipi bilan mustahkam qilib tikishadi. Bu qattiqlik bolaning harakatlarini o'rtacha darajada rag'batlantiradi va miyaning rivojlanishiga yordam beradi. Avvalroq aytib o'tganimdek, yosh bola maklaganida uning miyasi faol ishlaydi. Tatami esa maklash uchun mukammal maydondir, u poldagi kabi juda qattiq ham, yotoqdagi kabi juda yumshoq ham emas.

Oxirgi paytlarda ko'pgina uylarda yapon usulidagi tatamilardan foydalanishmay qo'yishdi. Bu, albatta, kattalar uchun qulay, ammo yosh bolalar a'llo da-

<sup>1</sup>Tatami – Yaponiyada polning ustiga yopiladigan to'shama.

rajadagi sport maydonchasisiz qoladilar. Yumshoq yotoqda bola qimirlay olmaydi, hatto ayrim hollar da nafas ololmaslikdan o'limga ham sabab bo'lishi mumkin.

Shaxsiy qulayliklarini o'ylagan katta yoshdagilar tatamining afzalliklari va bolaning rivojlanishidagi ahamiyatini inkor qiladilar. Keksa insonlar yashaydigan uylarda albatta yapon usulidagi tatami bo'ladi. Axir bu nafaqat buvi va buvalarga, balki yosh bolalarga ham yaxshi ekanligini tushunishimiz kerak. Yaponiyada boshqa mamlakatlardagi kabi bola tarbiyasiga mo'ljallangan ko'pgina an'anaviy narsalar (o'yinlar, o'yinchoqlar va boshqa narsalar) mavjud, ularga e'tibor qaratish, ularga munosabatni o'zgartirish zarur. Tatami – shunday narsalardan biri.

Yaponlarning vaqt sinovlaridan o'tgan o'yinlari va jihozlaridan mahrum bo'lib bola qanday yaxshi yashashi mumkin? Zamonaviy onalar ko'krak sutini sun'iy bo'tqalarga, tatamini esa yotoqqa almashtirayptilar. Ammo bola to'laqonli rivojlanishi uchun uning onasi ilg'or emas, oqila bo'lishi kerak. Gap faqatgina tatami haqida emas. Yosh onalar vaqt sinovidan o'tgan narsalarga munosabatini o'zgartirishlari va bola tarbiyasida buni hisobga olishlari darkor.

## **Bola yosh bolalar tilidan kattalar tiliga o‘z kuchi bilan o‘tishi shart**

Bolalarning erta rivojlanishida ikkita asosiy maqsad – aqliy qobiliyatni rivojlantirish va mustaqillikni tarbiyalash hisoblanadi. Bunga erishish uchun, birinchidan, atrof-muhitdan jismoniy rag‘batlarni olishi uchun imkoniyat yaratish, ikkinchidan, go‘dakning shaxsiy qiziqishini rag‘batlantirish va qabul qilishi uchun ma’lumotni tanlashiga ruxsat berish kerak. Bir qarashda bu ikki usul bir-biriga zid, ulardan bolaning rivojlanish bosqichlariga uyg‘un tarzda foydalanilsa, ular bir-birini taqozo qiladi va birgalikda ajoyib natija beradi.

Masalan, yosh bolalar bijirlashini olaylik. Go‘dak tilini endi o‘rganayotgan paytda u yosh bolalar tili deb taluvchi tilda so‘zlashadi. Shu sababli kattalar yosh bolalar tilida gapirmasak, ular tushunishmaydi deb o‘ylab chuchuk tilda gaplashadilar. Bola ulg‘ayadi, ota-onasi u bilan yosh bolalar tilida gaplashmay qo‘yadi va kattalar kabi gaplashishini talab qilishni boshlaydi. Go‘dak oddiy tilga o‘tadi. Buni uddalashiga sabab, u har kuni atrofida kattalar suhbatini tinglagan edi. Agar kattalar o‘zaro suhbatlarda yosh bolalar ti-

lidan foydalanganlarida, go'dak hech qachon odatiy tilda so'zlasha olmasdi.

Nima uchun onalar hamma vaqt go'dak bilan yosh bolalar tilida muloqot qiladilar? Aminmanki, hatto ki chik bolalar bilan ham kattalar tilida gapplashish mumkin. Bola atrofdagilar suhbatidan o'rganib olishini kutmasdan, u bilan odatdagidek gapplashish kerak shunda kattalar tili ham uning miyasida qiyofa shaklidek muhrlanadi. Shu tufayli bola tezroq gaplasha boshlaydi. Men buni jismoniy rag'bat deb atayman.

Agar bunday shaklda kattalar tili bola miyasida mustahkamlansa, bu uning tillarni o'rganish qobiliyatini kuchaytiradi. Qolaversa, bu holatda go'dak o'zi harakat qiladi va yosh bolalar tilidan voz kechadi. Agar ota-onas bu haqda qayg'urmagan bo'lsa, bolani odatiy tilda gapirtirish uchun ko'proq vaqt va kuch sarflash talab qilinadi. Bola ota-onas aralashuviziz o'z irodasi bilan yosh bolalar tilidan voz kechganida u rivojlanadi. Rivojlanish uchun asosni ta'minlash bolada mustaqillikni tarbiyalash demakdir.

Bunday nuqtayi nazardan qaralsa, aqliy qobilayatlar rivojlanishi va mustaqillikni tarbiyalash bir-biriga zid bo'lмаган тушунчалар. Улар бир-билини то'лдиради ва иккি мақсадга ерішішга юрдам беради. Мен «rag'bat» со'зини ішлатаман, ко'pincha уни салбиятта оғындауда көз атаман. Аммо айнаң тұрақташып, rag'batlar боланинг mustaqil rivojlanishi uchun asosni shakllantiradi.

## Mushaklar ishlasa – miya ham ishlaydi

Bir fransuz pediatri shunday degan ekan: «Yaxshi mактабни singan joylar soniga qarab bilish mumkin». Buni noto‘g‘ri tushunmanglar! U sinishlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, maktab shunchalik yaxshiligini nazarda tutgan edi. Aftidan, Fransiya va Yaponiya o‘sish davrida juda ko‘p ovqatlanadigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har kuni «o‘qish»dan qochib, sport maydonchasida mashq qilish, yugurish uchun bo‘sht vaqt topolmasliklari masalasida bir xildir. Bunday maktablarda bolalar o‘qishdan boshqa hech narsa bilan shug‘ullanmaydilar, o‘quvchilar hech qanday shikastlanish olmaydilar. Bu yoshdagi bolalar uchun tezroq o‘qishni tugatib, o‘ynashga yugurish va choppish tabiiydir, bu jarayonda bitta yoki ikkita suyani sindirish – odatiy hol. Fransiya yoki Yaponiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har kuni o‘qish bilan juda band bo‘lishadi.

Albatta, gap boshlang‘ich maktab haqida, ammolu yerda ikkita jihat juda yosh bolalar tarbiyasiga ham taalluqlidir. Birinchidan, bunday aqlni rivojlan-tirishga qaratilgan darslarga ustunlik berilishining sababini go‘dak tarbiyasiga munosabatdan qidirish

kerak. Ikkinchidan, faqat aql mashg'ulotlariga e'ti bor qaratib, tana mashg'ulotlariga beparvolik qilin sa, hech narsa chiqmaydi. Bu har qanday yoshdag bolalar uchun ham ayni haqiqatdir.

Masalan, men bir necha bor aytib o'tgan xorijiy tillarni o'qitish amaliyotiga nazar solsak, «ustunlik»ning sababi oydinlasha boshlaydi. Agar qiyofal davrida tilning bola miyasida muhrlanishini ta'minlasak, maktabga borganida ma'lumotni o'zlashtirishi qiyin bo'lmaydi. Xuddi shunday, bola yaxshi tarbiy olsa va jamiyatdagi axloq qoidalarini tushunsa, turli hayotiy vaziyatlarda xatosiz harakat qila oladi.

Keling, endi jismoniy mashqlar haqida gaplashaylik. Qanday qilib bola miyasini faol ishlatishiga maj burlash mumkin? Ba'zilar: «Biz faol harakat qilganimizda tanaga qon quyilishi oshadi, shu sababli miyada qon aylanishi sekinlashadi», – deb o'ylaydilar. Ehtimol ular tana va miya rivojlanishi boshqa-boshqa narsalar va bir-biriga aslo bog'liq emadegan fikrdadir. Bunday emas, albatta.

Sport psixologiyasi bo'yicha mutaxassis olim bir tajriba olib bordi. Bolalar bog'chasida bolalarning aqliy faolligini o'rganish uchun u muayyan vaqtida Krepelin testini o'tkazdi. Sport tadbirlari mavsumida bolalarning test topshirish tezligi sezilarli darajada oshdi. Gap shundaki, jismoniy mashqlar miya hujayralari ishini rag'batlantiradi. Oddiy qilib aytganda, agar siz faol harakat qilsangiz, miyangiz ham faol ishlaydi.

Xuddi shu tana harakatlari orasida so'nggi yillarda oyoq-qo'l harakati, ayniqsa, barmoqlar harakatini e'tibor qaratmoqdalar. Barmoq uchlarini mashq qildirish miya hujayralari ishini yaxshi rag'batlanti-udi, shuning uchun skripka yoki pianino chalishni katta o'rganganlar orasida aqlli bolalar juda ko'p.

Inson yuksak aqlni rivojlanitira oldi, bu uni tabiat qiroliga aylantirdi, zero, u ikki oyoqda yurishni va ikki qo'lida erkin harakat qilishni o'rgandi. Odamlar murakkab ishni qo'llari bilan bajara boshladilar, hayvonlar bunga qodir emas. Shu bilan birga, odam miyasi ham taraqqiy etdi.

Qo'llar va yuz mushaklarini nazorat qiluvchi misumiz bo'limi tana harakatlariga javob beruvchi boshqa bo'limlarga nisbatan ancha katta. Bu yerdan miya rivojlanishi mayda motorika bilan qanday bog'liq ekani oydinlashadi.

Tug'ilganidan so'ng yosh go'daklar qo'li bilan qila oladigan ish onasining barmog'ini ushslash va uni qishdir. Asta-sekin ular qoshiq ushslash, tugmacha taqishdan poyabzal ipini bog'lashgacha o'rganishadi. Ularning miyasi ham yanada faol ishslashga o'tadi.

Misol tariqasida poyabzal ipini olsak. Bu jarayonni so'z bilan ta'riflashga harakat qilib ko'ring: siz qanday uddalaysiz? Harakat shu qadar murakkabki, juda ko'p so'zlar bilan ham to'liq tasvirlab bo'lmaydi. Bolalar ipni bog'lashni kattalarning harakatlarini kuzatib o'rganadilar. Avvaliga o'xshamaydi, ammolar qayta-qayta harakat qilib ko'radilar, shu paytda

ularning miyasida yuqori tezlikda neyron aloqalari hosil bo'ladi.

Mayda motorikaning (barmoqlar harakati) aha miyatini tushungan holda shifokorlar, masalan, barmoqlarning mayda va aniq harakatlari go'dak miyasingning rivojlanishini rag'batlantiruvchi origami va ayatori<sup>1</sup> mashg'ulotlarini tavsiya qiladilar. Oddiy bo'limgan ishni to'g'ri bajarish uchun harakatlar tartibiga rioya etish kerak, bu esa boladan fikrni bish joyga jamlashni talab qiladi. Mayda motorika bo'yicha bunday murakkab mashqlar go'dakda chidamlik va diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Krepelin testlarining natijalari ko'rsatishicha, bu nafaqat mayda motorika, balki butun tana bo'yicha mashg'ulotlarga tegishlidir. Haqiqatan ham, sog'i tanda sog'lom aql.

---

<sup>1</sup>Ayatori – yaponcha yosh bolalar arqonli o'yini: barmoqlarga kiritilgan ipdan har xil shakllar yasash kerak. Origami – qog'ozdan shakllar yasash san'ati.

## Bolani o'rgatishmaydi, u o'zi o'rganadi

Hozirda butun Yaponiya bo'ylab bolalar arifmetika bo'yicha KUMON o'quv markazlariga qatnaydilar, har yili o'quvchilar soni faqat ko'payib hormoqda. Mazkur o'quv markazlarini tajribali matematika o'qituvchisi Kumon Toru ochgan. Men uning o'qitishga bo'lgan munosabati haqida eshitganimda taajjublandim, chunki bu men bir necha yildan beri gapirayotgan narsalarga to'g'ri keladi va ujoyib natijalar ham beradi.

Kumon yigirma ming bola orasida o'tkazilgan tadqiqot natijalarini keltiradi. Ulardan faqat 6 foizi boshlang'ich mакtabda olti yil mobaynida arifmetika darslarida o'rgatilgan butun ma'lumotni tushunihibdi. Men Ta'lim vazirligidagi mansabdor shaxs bilan uchrashdim, u bu ma'lumotni tasdiqladi. Bunday sharoitda Kumon o'quv markazlariga yordam so'rab murojaat qilgan bolalar soniga qarasak, bu o'quv markazlari Yaponiya ta'lim tizimining ajralmas qisimiga aylanganligi tushunarli bo'ladi. Ammo qiziq tomoni bor. Bunday o'quv markazlarida o'qituvchilar qandaydir maxsus malakaga ega deb o'ylaysiz. Aslida

barcha markazlardagi o'qituvchilar farzandlari bor oddiy uy bekalaridir.

Matematika o'qituvchilari, pedagogika mutaxassislari emas, balki oddiy onalar g'ayritabiyy shahda mo'jizaga erishadilar. Ya'ni ular maktab dasturidan uch yilga ortda qolayotgan bolalarga bir yilda o'zlashtirish, hatto o'zib ketishga yordam beradilar. Hamma gap ma'lumotni taqdim etishda, chunki unda har bir bola o'ziga mos va samarali bo'lgan shaxsiy tezlikda shug'ullanadi. Kumon o'quv markazlarida yosh bolalarga ortiqcha tushuntirmaydilar: masalan, son yoki qo'shish amaliyoti nimaligi tushuntirilmaydi. Usul quyidagidan iborat: bolaga oson arifmetik misollarga avtomatik tarzda, ketma-ket ravishda javoblar berib, qayta-qayta mashq qildiradilar, xolos

Bir necha bor ta'kidlaganimdek, o'qish boshida bola tushungunicha bitta narsani mexanik ravishda qaytarish kerak, bu qiyofalar shaklida miyasida muhrlanib qoladi. Bu bola rivojlanishi uchun teva oson kalitdir. Bolalar muammosiz bajara olishi mumkin bo'lgan mashqlar ularda stressni keltirib chiqarmaydi. Bunday mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qituvchidan maxsus malaka talab etilmaydi.

Yaponiyada qiyofalar shaklida o'qitishga karra jadvali eng yaxshi misol bo'la oladi. «Besh karra besh - yigirma besh», «olti karra olti – o'ttiz olti» – bunday ritmik iboralar avtomatik ravishda miyada muhrlanadi va yosh bolaga nima sababdan oltiga oltini ko'paytirsa, o'ttiz olti chiqishini tushuntirish kerak bo'lmaydi.

di. Kumon usuli xuddi karra jadvali kabi ishlaydi, uni barcha hisob-kitoblarga ishlatish mumkin.

Go'daklikda o'rganilgan karra jadvali katta odam uchun xuddi so'rashish yoki tashakkur mazmumidagi so'zlar kabi miyada mustahkam o'rnashadi. Bu yaxshigina yordam beradi. Shuningdek, boshqa hisob-kitoblar, xususan, asosiy misollarga javoblar avtomatizm darajasiga yetkazilsa, ancha qiyin hisob-kitoblarni yechish osonroq bo'ladi. Albatta, xonijiy tildan farqli o'laroq, arifmetikani tug'ilishdan o'rganib bo'lmaydi, biroq qiyofalar usuli yordamida hozirda amal qilinayotganidan ertaroq o'rganishni boshlash mumkin.

Kumon va Suzuki Sinitining o'qitish usullarida ko'p o'xshashliklar bor. Suzuki doim: «Har bir bolaning rivojlanishi tarbiya usuliga bog'liq», deydi. Suzuki usulining muvaffaqiyat siri shundadir. Kumon usuli o'qituvchilar maxsus tayyorgarligini talab etmaydi, boshidanoq bolada o'zi rivojlanishi, o'qishi va o'sishi uchun sharoit mavjud. Suzukining mashg'ulotlida akalari va opalarini kuzatuvchi go'daklar o'zları ista-sekin skripkada chalishni o'rganadilar. Kumon markazidagi darslarda bolalar oson misollarni yechadilar, so'ng o'zları qiyinroq masalalar berishni so'rashadi.

Na Kumon, na Suzuki texnikaga o'rgatishni taklif qiladi. Mashg'ulot davomida bola biror qiyinchilikka duch kelsa, «bu yerda bunday bo'lishi kerak, shuning uchun bunday qilganimiz to'g'ri» qabilida istagancha

tushuntirish mumkin. U, albatta, xatosi nimadaligini tushunadi, ammo keyingi safar ham o'sha joyda qoqiladi. Bunday holatlarda ham Kumon, ham Suzuki bir xil yechim taklif qiladi, bu: osonroq misollar qaytish va ularni takrorlashdan iborat. Shu tariq bola o'zi bilmagan holda qiyin joydan ham o'tadi. Suzuki shunday yo'l tutadi, bunda o'quvchi avvalbosidan qoqilmasligi uchun har bir mashg'ulot eng oddiy kuydan boshlanadi. U bu usuldan nafaqat o'quvchilari bilan mashg'ulotda, balki boshqa musiqa o'qituvchilari uchun master-klasslarda ham foydalananar edi.

Kumonning har bir mashg'uloti yengilroq bosqichga qaytishdan boshlanadi, keyin misollar qiyinlashtirib boriladi. O'quvchilar haqida bunday ajoyib g'amxo'rlikdan maqsad ularga ma'lumotni singdirishga emas, balki bolalar o'zlari ta'lim olishlari uchun sharoitni ta'minlashga qaratiladi.

Biz tarbiya deganda faqat bolani tashqaridan biron narsaga o'rgatish jarayonini tushunamiz. Kitobda bu qismning oxirida aytmoqchi edimki, «tarbiya qilish» «o'rgatish» degani emas, balki bolaga o'zi o'rganishi ga ruxsat berishdan iborat. Chunki «o'rgatish» kattalarda bo'lgan ma'lumotni bolaga o'tkazib qo'yishdi.

O'rgatish emas, balki bolani turfa ma'lumotlar va takrorlanuvchi rag'batlar bilan qamrab olish kerak shunda uning o'zi o'rganadi va rivojlanadi. Busi bola ota-onasi va boshqa kattalardan yaxshiroq inson bo'lib ulg'aymaydi. Bu insonning shaxsiy sifatlari va qobiliyatlariga ham taalluqlidir.

Kuladi  
Go'dak o'ynab.  
Men uchun  
Butun olamda  
Bundan go'zalroq narsa yo'qdir!

### ***Sayto Mokiti***

Muvaffaqiyat cho'qqisiga  
Kuraiyama<sup>1</sup> tog'i bo'ylab  
O'g'il ota izidan bormoqda,  
To'g'ri yo'lni tanladimi?  
Javob berishga jur'at eta olmayman.

### ***Sutimikado Naydaydzin***

Ahmoqona ko'rinoqda  
Ota bola haqida  
Ortiqcha qayg'urib  
Nima qilishni bilmaydi,  
Arzimagan narsalardan xavotirda.

### ***Yosii Isamu***

Bolalar,

<sup>1</sup> Kuraiyama – Xonsyu orolidagi tog' nomi (Takayama va Gero shaharlari orasida), bu yerda: mansab pillapoyasidan ko'tarilish ma'nosini bildirmoqda.

Bolalikingizcha qolinglar!  
Maymunchalarga o'xshab  
Qiyshayib,  
Kattalarga taqlid qilmanglar.

***Vakayama Bokusuy***

Bolani  
O'zingizcha siz  
Tarbiya qildingiz.  
Unda nimaga(da)  
U aybdor?


***Ryokan***

Bolaning  
Kulgili bijirlashi  
Qalbni quvontiradi.  
Hattoki xafa bo'lganda  
Eshitsam kulaman.

***Simaki Akaxiko***

## UCHINCHI QISM

Bolani qiziqish  
rivojlantiradi:  
muvaffaqiyatli  
tarbiya motivatsiya  
yaratishdir



**Ota-on a go'dak uchun  
mashg'ulot tanlaydigan vaqt  
asta-sekin shaxsiy qiziqishlar  
shakllanishi davri bilan  
almashinadi**

Qiyofalar davrida (2-3 yoshgacha) ona o'z farzandini yaxshi va to'g'ri bo'lgan narsalar bilan doimo qamrab olish orqali unga ta'sir ko'rsatishi shart. Bu davrda bolaning yoqtirgan narsalari yo'q, uning ongi toza qog'oz kabidir. Unda to'g'ri qiziqishlarni shakllantirish uchun takrorlanuvchi mexanik (yoki jismoniy) rag'batlar bilan ta'sir etish zarur. Hali didlari shakllanmagan paytda bola bunga qarshilik ko'rsatmaydi: quruq shimgich suvni shimib olganidek, uhamma narsani shimib olishi mumkin.

Vaqt o'tgan sari u yoqtiradigan narsalar paydo bo'ladi: bola nimanidir yengil qabul qiladi, nimanidir og'ir. Bu asta-sekin sodir bo'ladi va go'dak shaxsiy «men»ini anglay boshlaganini ko'rsatadi. Albatta, bu davrda ona o'z xohishiga binoan bolani rag'batlar bilan qamrab olishni davom ettirish kerak, ammuno buning uchun ba'zi hiylalar ham zarur. Ona xohishi

asosan shakllangan istaklardan tashqari onadan mustaqil ravishda o'rganilgan boshqa istaklar ham ko'zga tashlanadi. Tabiiyki, ota-onal «bosimi» va bir myldagi takrorlashning o'zi yetarli emas.

Masalan, avvalroq qayd etilgan «So'zlovchi kartochkalar»ni olsak. Ikki yoshda bola ularni katta qiziqish bilan o'ynaydi va zerikarli bo'lmaydi. 3-4 yoshda esa unday emas, bu yoshda qiziquvchan va harakatchan bola hatto bir joyda uzoq vaqt o'tira olmaydi.

Bolada shaxsiy iroda paydo bo'ladi, xususan, u o'zi qiziqarli bo'lgan narsani qiladi va qiziqish uyg'otmagan narsani darhol tashlaydi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarga boshqacha munosabatda bo'lish zarur. Albatta, ta'kidlaganimdek, o'tish bir soatda sodir bo'lmaydi. Kattaroq (3-4 yoshdagi) bolalarga munosabat ikki yoshgacha bo'lgan go'daklarni tarbiyalashdan keskin farq qiladi.

Masalan, tarbiya yoki qobiliyatlar rivojlanishini olsak, avvalambor, qiyofalarni takrorlash orqali bola ongida usulni mustahkamlash zarur. So'ng bolada ota-onal hisobga olishi, nazorat qilishi zarur bo'lgan qiziqishlar va istaklar asta-sekin shakllana boshlaydi, ota-onal yaxshi va to'g'ri bo'lgan narsalar bilan bolani qamrab olishda davom etishi kerak. Bu bobda bolada shaxsiy qiziqishlar paydo bo'lganida nima qiliш mumkinligi haqida so'z yuritamiz.

## **Qiziquvchanlik kurtaklari bolada ota-on «bosimi» davrida shakllanadi**

Yuqorida aytib o'tganimdek, yosh go'dak tarbiyasida ikki davrni ajratish mumkin – ota-on «bosimi» yoki «singdirish» davri va shaxsiy qiziqishlar shakllanishi davri. Ammo bu birinchi davrda bolada qiziqishga o'xshash narsa umuman yo'qligini anglatadimi? Albatta, chaqaloq tug'ilganidan keyin ota-on a bir muddat zarur deb bilgan narsalarni hech qanday tushuntirishsiz unga «uqtirishi» shart. Biroq bolada shaxsiy qiziqishlar va qiziquvchanlik bir zumda paydo bo'lmaydi, balki uning ilk kurtaklari bolning eng erta rivojlanish davrida yuzaga keladi.

Aytishlaricha, tug'ilganidan keyin birinchi kuni bolalarning ko'rish qobiliyati past bo'ladi. Avval kel tirganim amerikalik psixolog, professor Brunerning so'zlariga ko'ra, hatto yangi tug'ilgan chaqaloqlar o'zlarini qiziqtiruvchi obyektlarga diqqatini jamlashlari mumkin. Tadqiqotchilar tug'ilgan kunining ertasiga bolaga oq qog'oz ko'rsatilsa, bu uning diqqatini jalb qilmasligiga e'tibor berdilar. Agar rasmli uchburchak qog'oz ko'rsatilsa, yangi tug'ilgan chaqa-

loqning diqqati rasmga qaratiladi. Go'dakning biror narsani ko'rishga harakat qilishi va biror narsani oshlab olishga intilishini tahlil etib olimlar yosh bola o'zidan uzoq va yaqin bo'lgan obyektlarni farqlay olishini aniqlashdi.

Hammaga ma'lumki, yosh bolalar yaltiroq predmetlarga e'tibor beradilar va atrofdagi tovushlarni eshitish uchun boshlarini o'sha tomonga buradilar. Albatta, bu tashqi rag'batlarga munosabatdir, buni bolada qiziqish uyg'onishi yoki yoqtirish belgisi deb qubul qilib bo'lmaydi. Ammo bu hatto yangi tug'ilgan haqaloqda ham qiziquvchanlikka o'xshash nimadir borligiga ishoradir. Bunday fiziologik reaksiyalar kehajakda qiziqishlar shakllanishi bilan bevosita bog'liqidir.

Albatta, go'dakda yetarli darajada qiziquvchanlik hali rivojlanmagani sababli bu sifatni o'quv jarayonida samarali ishlatib bo'lmaydi. Ammo ko'plab rag'batlardan qaysi biri bolaga yaxshiroq ta'sir qilishiga e'tibor qaratish kerak. Avvaliga nimani eshitursak ham, aslo ta'sirlanmaydigan go'dak kunlarning birida ota-onasi har kuni qo'yib beradigan musiqaga javob qaytara boshlaydi. Bu esa bolada qiziqishlar, yuxshi ko'rish va yomon ko'rish sifatlari shakllana boshlaganining birinchi belgisidir.

Shuning uchun «singdirish» va bolaning qiziqishlariga e'tibor berishni bir vaqtning o'zida amalga oshirish kerak, asta-sekinlik bilan birinchisini kamaytirish, ikkinchisini esa, aksincha, ko'paytirish

zarur. «Singdirish» davrining xususiyati shundakki, yosh bolada qiziqishlar yo'q, shuning uchun u qarshilik ko'rsatmaydi. Ota-onan unda biror narsaga zarracha qiziqishni sezsalar, darhol javob berishlari va bu qiziqishni qo'llab-quvvatlashlari kerak.

## **Qiziqish bildirishni boshlaganida bunga xalaqit bermanglar**

«Singdirish» davrida bolaning qiziqishlari va haxsiy irodasining eng kichik ko‘rinishlariga ham e’tibor qaratish zarur. Boshida bu yoqimli va yoqimiz narsalarga reaksiyasida namoyon bo‘ladi. Har bir ona bolada kechadigan fiziologik o‘zgarishlarga darhol e’tibor qaratadi, u qachon ovqatlanishni istashi yoki tagligi ho‘l bo‘lganini biladi. Lekin onalar negadir psixik (ruhiy) o‘zgarishlarni (chaqaloq o‘zini yaxshi his qilyaptimi yoki, aksincha, unga biror narsa yoqmayaptimi) sezmaydilar.

Shi ma’noda bir misol keltiramiz. Tug‘ilganidan 2-3 oy o‘tgandan keyin go‘dak ritmik ohanglarga faol tarzda munosabat bildira boshlaydi. Bola yoqtirgan narsani eshitsa qo‘l-oyoqlarini qimirlatadi – shu tarzda o‘zining zavq olayotganini bildiradi. Ohanglar unga yoqmasa, yig‘laydi. Tanishimning mumtoz musiqani yaxshi ko‘rvuchchi bir yashar bolasi bor. Mumtoz musiqani tinglaganida u xursand bo‘ladi, jaz yangraganida esa yig‘lashga tushadi.

Bola axiyri qiziqishini namoyon qila boshlaydi, ota-onasi esa uning xohishini sezmay qiziqishlari-

dan mahrum qiladi. Bu bola ruhiyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Butun dunyoda onalar farzandlari nima sababdan qo'l-oyoqlarini qimirlatayotganini yoki nega to'satdan yig'lab yuboraganiga deyarli e'tibor bermaydilar. Shaxsiy qulaylik uchun ular go'dakka yoqayotgan musiqani o'chirib qo'yishlari yoki unga yoqmaydigan kuyni tinglashga majburlashlari mumkin. Shu yo'l bilan bolaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladilar.

Ish faqat musiqa bilan chegaralanmaydi. Bola biror narsaga qiziqish bildirayotganida taglikni o'gartirish yoki emizish vaqtি keldi deb bu mashg'ulotni to'xtatadigan holatlar ham bor. Agar bola so'zlashni bilganida, shu paytda: «Iltimos, yana ozgina!» – deb aytardi. Ammo u gapira olmaydi, shuning uchun butun irodasini ifoda qilgan holda qo'l-oyoqlarini qimirlatadi. Yoki u ishtiyoq bilan biror narsani o'yayotgan paytda mehmonlar kelib qolsa, ota-onasi uning o'yinchog'ini olib qo'yadi. Bu holatda go'dakning o'yinchoqlarga bo'lgan qiziqishi ikki barobar kamayadi.

Qiziqish – qobiliyatlar rivojlanishi uchun eng yaxshi ozuqa. Bolaning ovqatlanish tartibiga qanchalik e'tiborli bo'lsangiz ham, ma'naviy to'yinmaslik qiziqishlarga nisbatan rag'batlar yetishmasligiga olib keladi.

Ona biror narsa qilmoqchi bo'lsa (taglikni almashтирish, emizish), e'tibor bilan go'dakning holatini kuzatishi va kerak bo'lsa ma'lum muddat u

mashg'ul bo'lgan ishni to'xtatmasligi zarur. Ona o'z bolasini hammadan ko'ra yaxshi biladi, «go'daklar tili»ni – qo'l-oyoqlarini qimirlatgani yoki yig'lagani nimani anglatishini faqat u tushuna oladi.

Bolaning qiziqishlarini faol rivojlantirish muhim nhamiyatga ega. Yodda saqlash lozimki, istalgan salbiy ta'sir (masalan, qiziqarli mashg'ulotlarni to'xtatish) izsiz ketmaydi va bolaga yomon ta'sir ko'rsatadi.

## **Farzandingizga birinchi «namuna o‘yinchoq» bering**

Kattalar tushunchasidagi o‘yinchoqlardan tashqari bolalar atrofdagi turfa predmetlardan o‘yinchoq sifatida foydalanadilar. Oyoqlari tepaga o‘girilgan stol, hech kim foydanmaydigan qalin telefon ma’lumotnomasi, konfetlari tugagan bo‘sish quti, hattoki yog‘och taxtachalar, xullas, bola o‘yinchoq qilib foydalanolmaydigan narsa deyarli yo‘q. O‘yinchoqmi yoki yo‘q – bola uchun bu ahamiyatsiz. Hattoki ijodiy qobiliyatlarini o‘yin uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar emas, balki bunga avvaldan mo‘ljallanmagan buyumlar yaxshiroq rivojlantiradi deb hisoblanadi. Go‘dak ular bilan qanday o‘ynashni kashf qilayotganida bu predmetlar miya faoliyatini rag‘batlantiradi. Albatta, odidiy o‘yinchoqlar ham xuddi shunday ishlaydi, ulardan qiziqarliroq foydalanishni bolaning o‘zi hal qiladi.

Ilgari aytib o‘tganim professional go o‘yinchisi Takagava Kaku menga qiziq narsani so‘zlab berdi. Uning aytishicha, deyarli barcha yosh bolalar go o‘yiniga katta qiziqish bildiradilar. Avvaliga bolalarda o‘yining o‘zi qiziqish uyg‘otmaydi, ularni o‘yin fishkalari (toshchalar) qiziqtiradi. Masalan, Takagavaning nevarasi, ko‘pgina o‘yinchoqlari bo‘lsa-da

ularga e'tibor bermaydi, buvasining go uchun toshchalarini o'ynashni yaxshi ko'radi.

Bolaga toshchalar bilan o'ynashga ruxsat berishganida u qo'llariga to'ldirib olib, keyin ularni sochib yuboradi. Shuningdek, qora va oq toshchalarni rangiga qarab ikkita uyumga ajratib, ulardan turli shakllar yasaydi, ular bilan «oxadziki»<sup>1</sup> o'ynaydi. Maxsus «oxadziki» toshchalaridan ko'ra go toshchalari bilan o'ynash bolaga qiziqroq edi. Buvasining go fishkalari bilan ko'p o'yinlar o'ylab topa oladi.

Buning sababi bor. Boshqa o'yinchoqlardan ko'ra go fishkalari «namuna davri»dagi bolaga «namuna o'yinchoq» sifatida eng maqbulidir. Qora va oq rangdagi fishkalar bir xil hajm va oddiy shaklga ega, bola ularni tizib turli shakllarni yasay oladi. Fishkalar bir xil bo'lgani sababli ulardan yangi shakllar yig'ish qulay. Yangi shakl, albatta, namunaning bir turi degani. Fishkalar bolani chegaralamaydi va unga o'z tasavvurini erkin qo'llash imkonini beradi. Shuning uchun men go uchun fishkalar bu yoshda bolaga eng mos keluvchi o'yinchoq degan fikrdaman.

Ba'zida fishkalarni o'ynaganligi sababli bolalar go o'yiniga qiziqib qoladilar. Ammo bu yerda boshqa narsa muhim: bunday vizual qiyofalar bilan o'ynaludigan o'yinlar bolada miqdor, hajm, shakl, yangi shakllarni yaratish tushunchalarini, boshqacha aytganda, miyani faol rivojlantiradi.

<sup>1</sup>Oxadziki – qadimiy yapon o'yini. O'yinchilar o'z fishkalariga urib raqib fishkalariga tegishga harakat qiladilar.

## **Kichkintoylarda hatto yirtilgan gulqog‘ozlar ham qiziqish uyg‘otadi**

Avvallari uyda yosh bola borligini yirtilgan gulqog‘ozlar, dog‘larga to‘la tatami va kir divan orqali bilib olish odatiy hol edi. Ammo so‘nggi paytda, barcha yosh onalar tozalikni yaxshi ko‘rib qoldilarmi yoki bolalar sho‘xlik qilmay qo‘ydilarmi, yosh bola bor uylar ham top-toza turishi tabiiy hol bo‘lib qoldi. Onalarga mukammal tartib yoqadi, ammo bunday muhit yosh bolaga naqadar qulay?

Aslida, odamlar yetishmaydigan ma'lumotlar miqdorini o‘z ko‘zlari bilan to‘ldirib, uni o‘z usuliga xos tarzda talqin qilish qobiliyatiga ega deyishadi. Odatiy misol – an’anaviy ikki tomonlama yashirin rasmlarda, ulardagi qora va oq dog‘larda, masalan, vaza va inson yuzi shaklini ko‘rish mumkin. Xuddi shunday, biror buyumni ko‘rib odam uni o‘z tasavvurida chizib tugatishi va o‘ziga tegishli biror narsani ko‘rishi mumkin. Bu qiyofalarni tanish qobiliyati deb ataladi. Buni yosh bolalar eng yaxshi uddalaydilar.

Chaqaloq tug‘ilganidan keyin taniy boshlaydigan birinchi qiyofa onasining yuzidir. Aytib o‘tganimiz

dek, bola atrofdagi borliqni bir butun qiyofa sifatida qabul qiladi, keyin uni talqin etishga kirishadi, shunday yo'l bilan uning aqliy qobiliyatlari rivojlanadi. Xuddi shu narsa kattalarga iflos tuyulgan yirtilgan gulqog'ozlarga, kir bo'lgan divanga ham taalluqlidir. Jajji kichkintoy yirtilgan gulqog'ozlarni tomosha qilganida uning tasavvuri ishga tushadi. Masalan, yirtilgan gulqog'ozning teshiklarida kattalar ko'ra olmaydigan qandaydir rasmlarni ko'radi, xullas, go'dak uchun bu aqliy o'yinga o'xshaydi.

Faqatgina kattalarning qulayligi uchun bolani qiziqish uyg'otayotgan narsadan mahrum etish mumkinmi? O'z bolasi tarbiyasi haqida qayg'uradigan onalar bu xavfli va iflos deb xonada mukammal tartib o'rnatishga harakat qiladilar. Ammo bunday haddan ortiq tartibli xona bola uchun bo'sh va kimsasiz ko'rindi. Aytishlaricha, oddiy odamlar e'tibor bermaydigan narsalardan daho rassomlar ilhom oladilar. Rassomlikni o'rganishni istovchilarga Leonardo da Vinci shunday maslahat bergen: «Kir toshli devordagi dog'larda ajoyib tog'lar, daryolar va tepaliklar, hattoki odamlar shaklini ko'rish mumkin. U sizning instinktingizni uyg'otadigan, yaxshilaydigan va turfa fikrlar uyg'otadigan usuldir...».

Yosh bolalar dunyodagi eng yetuk rassomlardir. Turli o'yinchoqlardan ko'ra ularni yirtilgan gulqog'ozlar va divandagi dog'lar ilhomlantiradi. Mukammal tartib o'rnatish bola tasavvurini rivojlan Tirish va atrofdagi dunyoni o'rganish imkoniyatidan

mahrum etishdir. Toza, tartibli xonadan farqli o'laroq tartibsiz xonada go'dak qiziqishini va tadqiqotchilik ruhini uyg'otuvchi narsalar ancha ko'pdir.

## **Kichkintoyning qiziqishlari kuchaytirilsa, unda mashg‘ulotlar uchun rag‘bat paydo bo‘ladi**

Bolalarning erta rivojlanishi haqida yapon tilida juda ajoyib bir kitob bor, men uni qayta-qayta o‘qishni yaxshi ko‘raman. Bu Kimura Kyuitining «Erta rivojlanish va qobiliyat» kitobidir. Ushbu kitobda nemis huquqshunosi Karl Vitte to‘g‘risida ham hikoya qilinadi. Uning otasi Karl 14 yoshga to‘lguniga qadar o‘g‘lining tarbiyasi haqidagi yozuvlarni qayd qilib borgan, ularda ko‘pgina ibratli ma’lumotlar bor. Bu yozuvlar ilk marotaba XIX asr boshida e’lon etildi, ammo o‘sha paytda hech qanday qiziqish uyg‘otmaydi. U paytda go‘daklarni nimagadir o‘rgatish ularning salomatligiga ziyon keltiradi deb hisoblanardi. Bizning davrimizda bu nuqtayi nazar turli ilmiy tadqiqotlar bilan rad qilingan va o‘g‘lining tarbiyasiga katta Vittenning munosabatiga qayta baho berish mumkin.

Vitte «bolani tarbiya qilishga hali erta» degan tu-shuncha yo‘qligiga ishonardi va go‘dakligidan o‘g‘liga ko‘p narsani o‘rgatadi. Unga o‘qishni o‘rgatganda qiziq bir usulni qo’llaydi. O‘g‘liga rasmli kitobni ko‘rsatar, uning mazmunini juda qiziq qilib aytib

berar, «Eh, qani endi o'qishni bilganingda, bu yerda yozilgan barcha narsani tushunar eding», – derdi Shu tariqa bolaning qiziqishini oshirardi. Eng muhim, ota hikoyani to'liq aytib bermasdi. «Davomi juda qiziq, ammo oxirigacha aytib berishga menin vaqtim yo'q», deb aytardi. Kichik Vitterning qiziqi shi kuchayib borar, nima qilib bo'lsa ham o'qishni o'rganishni xohlardi. Shuning uchun otasi o'qishni o'rgatishni boshlaganida kichkintoy hamma narsani tez o'zlashtiradi, xuddi shimgich kabi so'rib oladi.

Katta Vitterning yozuvlariga e'tibor qaratdim, chunki uning erta o'qitish usuli bu kitobda bir necha marotaba eslatib o'tilgan, professor Suzuki Siniti amaliyotda qo'llayotgan qoidalarga mos keldi. Masalan, ona farzandini professor Suzuki sinfiga olib kelganida avvaliga bolaga skripka berilmaydi. Bir muddat u orasida o'zidan ham kichkinalar bos boshqa bolalarning mashg'ulotlarini jimgina tomosha qiladi.

Tez orada bola: «Men ham xuddi shunday qila olaman», deb o'ylay boshlaydi, u skripkani olib chalib ko'rmoqchi bo'ladi. Ammo o'qituvchi unga sozni bermaydi, mashg'ulotlarda bola boshqa bolalar yod olayotgan pyesalar yozuvlarini tinglaydi va qanday qilib to'g'ri turish va asbobni ushslash kabi asoslarni torlarsiz skripka yordamida o'rganadi. Shu tarzda 3 – 4 oy o'tadi, haqiqiy soz chalish istagi bolada kuchayib boraveradi. Istak va xohishi eng yuqori cho'qqiga chiqqanida unga skripka berishadi.

Yengil qiziqish paydo bo'lishi bilan emas, balki qiziqishi kuchaygan paytda shug'ullangan bolalar kat-la muvaffaqiyatlarga erishadilar. Professor Suzukining o'quvchilari ikki-uch yilda murakkab pyesalarni osonlik bilan ijro etadilar, butun dunyoda bunday muvaffaqiyat mo'jiza deb ataladi. Buning siri bolada qiziqishni kuchaytirish usulidadir.

## Bolaning motivatsiyasi tarbiyaga bo'lgan yondashuvga bog'liq

Yuqorida aytib o'tganimdek, hattoki eng kichik go'daklar ham o'z irodasiga ega va qiziqish aqliy qobiliyatlar rivojlanishini rag'batlantiradi. Albatta, ona va bolaning manfaatlari farqlanadi. Agar ona bolaga qiziq bo'lgan narsani ahmoqona yoki juda oddiy deb unga e'tibor bermasa, uning intellektual rivojlanishiha ham to'sqinlik qilgan bo'ladi. Odatda, bolada motivatsiya va qiziqishni oshirish uchun uni koyish emas, maqtash kerak deb aytishadi. Ammo aytish oson, qilish qiyin, ota-onaga ham oson emas.

Men har kuni ishda koyish o'rniga maqtash qanchalik qiyinligini his qilaman. Boshqaruvda «korporativ ruh» degan tushuncha mavjud: rahbarga bog'liq bo'lgan xodimlar motivatsiyasi. Bolalar va kattalarni solishtirishga hojat yo'q deb menga e'tiroz bildirishlari mumkin. Ammo, fikrimcha, bola tarbyasida ham, xodimlarni boshqarishda ham hammasi ularga qay darajada muvaffaqiyatli motivatsiya bera olishdadir.

Koyish yoki maqtash – bu yerda muhim qanday tartibda amalga oshirishdir. Avval maqtab, keyin

koyishmi yo teskarisi? Yoki faqat maqtash yo faqat koyishmi? Barcha holatlarda bolaga motivatsiya berish shunga bog'liq bo'ladi. Oxirgi ikki variantga to'xtalmasak-da, «maqtash, keyin koyish» tartibi yagona to'g'ri usuldek ko'rindi. Ko'pgina ota-onalur faqat bolaning xatosini ko'radilar, doim ta'na va dashnomdan boshlaydilar.

Shu ma'noda meni professor Suzukining o'z o'quvchilarini maqtashi va koyishi qoyil qoldiradi. Istalgan bir sharoitda avval «umuman, yomon emas» deb maqtaydi, keyin esa «agar xatolarni olib tashlasak» deb qo'shib qo'yadi. Bunda bolaga maqtov ko'proq ta'sir ko'rsatadi, unga kamchiliklari ko'rsa tilgan bo'lsa-da, bola buni xotirjam qabul qiladi va o'z xohishi bilan ulardan qutulishga jiddiy harakat qiladi.

Ona bolani doim koyisa, «bu yomon, u yomon» deyaversa, uning ongida faqat yomonlik o'rnashib qoladi. Hattoki koyishdan keyin uni maqtashga harakat qilsa ham, bola maqtovni normal qabul qila olmaydi. Shuning uchun koyish va maqtashning tartibi muhim, bu hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Professor Suzuki bolaning qobiliyatlarini unga motivatsiya berilgani bilan bevosita bog'liq deb hisoblaydi. Ammo ko'p onalar o'z hissiyotlariga ergashib bolaning qiziqishini qo'llab-quvvatlash muhimligini yoddan chiqaradilar. Go'dakning erta davriga xos asosiy xususiyat shundaki, bir marta paydo bo'lgan qiziqish geometrik progressiya asosida o'sa boshlay-

di. Suzukining usulini amalda qo'llab ko'ring. Ya'ni bolani ko'p maqtang, koyish uchun zarur bo'lgan narsani oxirida qo'shing va koyish maqtovdan anchā kam bo'lishi kerakligini unutmang.

## **Biror narsaga nafrat ota-onaning ehtiyyotsizlik bilan aytgan so'zлari tufayli paydo bo'ladi**

Uyat hissi bizga «kattalar»ga xosdek ko'rindi. Ammo hech kim bu hisni «men»ligini anglay boshlayotgan bolalarchalik chuqur his qilmaydi. Bir ta-nishimning farzandi notanish odamlar bor joylarda hojatxonaga borishni rad etardi. Sababi, uch yoshida u bir marotaba siyib qo'ygan, ota-onasi esa begonalar oldida uni koyib berishgandi. Ular buni ataylab qilishmagan, ammo so'zлari go'dakning miyasida uzoq vaqtgacha o'rnashib qoldi. Boshlang'ich maktabga chiqquniga qadar ota-onas boladagi hojatxonaga bo'lgan nafrat bilan kurashish uchun ko'p harakat qilishlariga to'g'ri keldi.

Bunday misollar talaygina. Bolaning biror narsaga nafrati borligiga go'dakligida kattalarning ehtiyyotsizlik bilan unga aytgan so'zлari sababdir. Doi Yosikodan shunga o'xshash ko'pgina voqealarni eshitgan edim.

Mana ulardan biri. Doining ikkinchi o'g'li go'daklik paytida rasm chizishni o'rgangan. O'qituvchi unga chizgan rasmi haqida: «Bu o'zi nima?!» – degan. Shundan boshlab bola rassomlikdan nafratlangan va

boshqa hech qachon – na mактабда, na universitetda – qo'liga qalam olmabdi.

Yoki yana bir misol. Bir bola bog'chada eng keng diapazondagi tovushga ega bo'lsa-da, kuylashdan qat'iv bosh tortibdi. Bu Doiga g'alati tuyuladi va u sababini bilishga qaror qiladi. Ma'lum bo'lishicha, go'dak ikki yasharligida oila davrasida kuylayotganida ozgina shirakayf otasi: «Bu bolada musiqaga iqtidor yo'q-ku», degan ekan. Onasining aytishicha, bola shundan boshlab kuylashni to'xtatibdi. Otaning ehtiyyotsizlik ortida aytgan so'zлari bolada musiqaga nafrat hissini uyg'otadi.

Ota-onan va atrofdagi kattalarning o'yamasidan aytgan so'zлari tufayli bolada musiqa, rassomlik, sport va boshqa mashg'ulotlarga bo'lgan beba ho qiziqish kurtaklari so'nadi. Ulardan zavqlanishni to'xtatadi Ko'pincha ota-onan bolaga turli qiziqishlarni sindirishga bor kuchi bilan intiladilar, ayni paytda bolaning shu qiziqishlardan nafratlanishi sababchisi o'zлari ekanliklarini anglamaydilar. Kattalar bunday narsalarni umuman his qilmaydilar, bu haqida psixoanaliz asoschisi Freyd ham yozgan edi.

Bola «oq qog'oz» holatida tug'iladi, uning qobiliyatlari rivojlanishi motivatsiyaga bog'liq va bunga ota-onasi javobgardir. Motivatsiya o'sishi uchun bolani maqtash, shu bilan birga, uni hech qachon haqorat qilmaslik kerak. Baribir bola gap nima haqida ekanini tushunmaydi deb fikrlaydigan ota-onaning mas'uliyatsizligi bolaning kelajagiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

## Bolaga buyruq bermang

Men uchun qirolicha Mitiko doim haqiqiy ona timsoli edi. U o‘z farzandlarini imkon darajasida tarbiyalashga harakat qilar, buning uchun bor kuchini ayamasdi. U bolaning irodasini hurmat qilgan, shu bilan birga, zarur paytda qattiqqo‘l bo‘lgan. Butun dunyodagi onalar undan yosh bolalar tarbiyasi masalasida o‘rnak olishlari mumkin.

Yaqinda merosxo‘r shahzoda Naruxitoning pediatri bo‘lgan Ogata Yasuo menga ajoyib bir voqeani aytib berdi. Bir safar kechqurun shahzodani ko‘rgani kelganida qirolicha unga: «Naru hozir vanna qabul qiladi: qarab ko‘ring», – deydi. Naru shahzodaning erkalab aytiladigan ismi edi, bu paytda u ikki yashar edi.

Ogata vannada shunday holatga guvoh bo‘ladi. Mitiko faqatgina o‘g‘liga taklif qilardi: «Ko‘ylakni qayerga qo‘yish kerak?», «Endi esa ichki kiyim», «Paypoq eng tepaga qo‘yiladi», shahzoda hamma ishni o‘zi qilardi. Bu hikoyadan ko‘rinib turibdiki, bolaga buyruq bergandan ko‘ra undan so‘rash mumkin. Shu tariqa ona go‘dakka hurmat ko‘rsatadi va uning mustaqillagini rivojlantiradi.

Ota-onalarning fikricha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq va bevosita iltimos bolaga kerakli narsani qildirish

usulidir. Ammo bola uchun katta farq mavjud. Inson psixologiyasi shundayki, buyruqqa qarshilik bilan javob qiladi, iltimosga esa qulq soladi. Iltimos – bolani rag'batlantirishning eng yaxshi usuli, chun ki bu holatda u o‘z irodasiga suyanib harakat qildi. Bunday vaziyatlarda ko‘pgina ota-onalar buyruq bergen bo‘lishardi, masalan, «Ko‘ylakni savatga tashla» deyishardi. Ammo buyruqlar mustaqillikni ko‘rsatish imkonini bermaydi va uning qaramligini kuchaytiradi.

Buyruq nima, iltimos nima – natija bitta bo‘ladi – yechilgan ko‘ylak choyshabga tashlanadi. Biroq bola tarbiyasida buyruqlar va iltimoslar orasida katta farq mavjud. Qirolicha Mitiko – bolalar psixologiyasining buyuk bilimdoni – masalani sinchkovlik bilan o‘rgangan, keyin bu bilimlarini farzandlarining tarbiyasida qo’llaydi.

Ba’zi ota-onalar bolaga buyruq berishga haqqim bor deb o‘ylaydilar. Ammo majburlash uni eng muhim narsadan mahrum etadi – bu bolaning o‘zi biror narsa qilish istagidir. Doim ota-onasi buyruq beradigan bolalar majburlamasa, o‘zlar hech narsa qila olmaydigan bo‘lib qoladilar.

## **Qilgan ishiga baho bergandan ko‘ra quvonchli so‘zlarni ayting**

Bolada motivatsiya yo‘qolishining sabablari-  
dan biri onasi uni baholashidir. Masalan, u bolaning  
rasmiga qaraydi va darhol: «Juda yaxshi chiqibdi»,  
degisi keladi. Yoki bolaning ashulasini tinglaganda:  
«Negadir yomon kuylayapsan», deyishni istaydi.  
Ijobiy baholash bolada motivatsiyani oshiradi.

Yaxshi baho bola xohish-istiklarini o‘srib, yo-  
mon baho bu istiklarni yo‘qotadi degani emas, balki  
baholashning o‘zi biror narsa qilish istagining yo‘qo-  
lishiga sabab bo‘ladi demoqchiman.

Maqtov nafaqat bolalarga, balki hammaga yoqadi.  
Ammo bolalar soxta maqtovga sezgirroq bo‘ladilar.  
Bolada qiziqishni oshirish uchun uni koyish emas,  
maqtash kerak degan fikr keng tarqaganligi kuza-  
tiladi. Shuning uchun ko‘pgina onalar go‘dakni ham-  
ma narsa uchun maqtashga harakat qiladilar. Bola  
biror narsa chizsa, «Qanchalik yaxshi chiqibdi»,  
ashula kuylab bersa, «Zo‘r ashulachi ekansan-ku»,  
deyishadi. Ular bolani maqtasagina u rivojlanadi deb  
o‘ylaydilar. Ammo bolalar sezgir, ular onasining sox-  
ta maqtovini darhol tushunadilar.

Agar go'dakni hamma narsa uchun doim maqtashsa, u maqtovni tabiiy holdek qabul qiladi. Natijada bunday bola maqtashmaguncha hech narsa qilmaydigan bo'lib qoladi. Doimiy ravishda ma'qullashga muhtoj bolalar rivojlanmaydilar, kutilgan ma'qulashlarsiz ular qoniqish his qilmaydilar. Boshqa tomonidan, agar bola qilayotgan hamma narsaga katta odamlarning o'lchovi bilan baho berilaversa, u o'zidagi qat'iyat va motivatsiyani yo'qotadi.

Men bolani haqqoniy baholash, loyiq bo'lganida maqtash, zarur paytda koyish kerak degan fikrni singdirmoqchi emasman. Meni tashvishga solayotgani boshqa narsa, ya'ni shunday bir savoldir – nima sababdan onalar bola qilayotgan hamma ishga baho berishga zarurat sezadilar? Go'dak onasidan «yaxshi» yoki «yomon» so'zlarini emas, balki «Qanchalik zo'r!» – degan quvonchli so'zlarni eshitishni istaydi. Bu yerda bola qilayotgan ish yaxshi yoki yomon chiqqanligi muhim emas. Onaning shu voqeя yuzberganiga quvonishi bolajonlarni hamma narsadan ko'proq rag'batlantiradi.

Onaning quvonchli so'zlariga bola shu zahoti mnosabat bildiradi – uddalagan ishidan o'zi ham quvana boshlaydi. Albatta, maqtov – ajoyib rag'bat, ammo soxta maqtov teskari ta'sir ko'rsatadi. Fikrimcha, eng to'g'ri baho farzandi biror ishni uddalaganida ona his qiladigan quvonch va bu quvonchni farzandiga samimiyl tarzda ko'rsata olishdir.

Bolalarni qanday rag'batlantirishni juda yaxshi biluvchi professor Suzuki Siniti ham shunday fikrda edi. Bolaning qilgan ishi qanchalik yaroqsiz, beo'xshov bo'lmasin, u hech qachon «yaxshi» yoki «yomon» deb baho bermaydi. O'quvchi chalishni tugatgach: «Barakalla, chalding!», – deydi. Bola xursand, professor Suzuki esa qanday ijro etishni o'zi ko'rsatadi va «Sen shunday chala olasanmi?» – deb so'raydi. Ular birga chalishadi, keyin o'quvchi bir o'zi ijro etadi. Bunday yondashuv tufayli bola mustaqil ravishda qiyin joylarini to'g'ri chalishga harakat qiladi. Natijada xatolar o'z-o'zidan to'g'rilanadi va o'quvchi asta-sekin xatosiz chala boshlaydi (bu uslub haqida aytib o'tgan edik).

Professor Suzukining mashg'ulotlarida bo'lgan bir ayol: «Siz doim soxta maqtov bolalarga ta'sir qilmaydi deb aytasiz. Shunga qaramay, juda yomon ijro etgan farzandimni maqtadingiz. Unga: «Barakalla, chalding!», – dedingiz. Demak, yolg'on bo'lsa-da, bolalarni maqtash kerak ekan-da?» – deb so'radi.

Professor Suzuki shunday javob berdi: «Men aldamadim. Shunday bolalar borki, ulardan chalib berishni so'rasang ham, chalmaydilar. Sizning farzandingiz esa zavq bilan chaldi. Men bunga quvondim va uni yaxshi ijro etgani uchun emas, balki vazifani bajargani uchun maqtadim. Albatta, ilgari u chalishni boshlashi bilan izohlar berishgan, men esa unga «barakalla» dedim. U hayron bo'ldi va zavqlanib chala boshladи. Xursand edi. Bolani rag'batdan to'xtatmaslik uchun uni xafa qilmaslik kerak».

Bolani qilingan ish yoki natija uchun maqtash – bunday maqtovlar orasida katta farq bor. Onalar faqat natija uchun maqtash mumkin deb o'ylab xato qiladilar. Aslida, harakatning o'zi uchun maqtash zarur.

Natija uchun maqtash baholash demakdir. Oni bunday qilsa, bola o'zi bilmagan holda faqatgina ma'qullashga erishish uchun harakat qila boshlaydi. Natijada uni faqat baholar qiziqtiradi. Zamonaviy maktab ta'limidagi eng katta muammo shundaki, o'quvchilarning asosiy maqsadi yaxshi baho olishga borib taqaladi.

Bolani bajargan harakatidan mamnun bo'lib maqtash har qanday bolaga mos keladigan va barcha ota-onalar uchun eng oson ishdir.

## Bolani qiziqtirish uchun yaxshi ma'noda uni «aldash» zarur

Ota-onan go'dakni skripka sinfiga topshiradimi yoki murakkab iyerogliflarni o'rgatuvchi dargohga beradimi – har qanday holatda bularni bolaning o'zi ijro qiladi: skripka ham chaladi, iyerogliflarni ham yodlaydi. Ya'ni muvaffaqiyat kaliti uning qo'lidadir. Bolaning aqliy rivojlanishi va qobiliyatlarining ochilishi uning shaxsiy irodasiga bog'liq sanaladi.

Albatta, yosh bolaning miyasi ota-onanining rag'batlarini oson qabul qiladi. Ammo ba'zida bola qabul qiladigan narsalar bilan unga yoqmaydigan narsalar ham paydo bo'ladi. Ota-onanining asosiy vazifasi kichkintoyni eng yaxshi narsalar bilan qamrab olishdir. Shu bilan birga, ona eng yaxshi narsani oson o'zlashtirishi uchun bolaning qiziqishini yo'naltirishi zarur. Buning uchun ba'zida yaxshi ma'nodagi «aldov»ga murojaat qilish mumkin.

Agar bola sutni yoqtirmasa, uni ichishni xohlashi uchun qandaydir hiyla o'ylab topish kerak. Onada go'dakkak taklif qilinayotgan narsaga qiziqtirish usuli bo'lsa, uning qobiliyatları tez rivojlanadi. Hiyla – qaysidir ma'noda yolg'on. Masalan, bola ko'krakni olmaydi, shunda ona unga ko'krak uchi ko'rinishidagi so'rg'ich-

ni beradi. Mana shunday «yolg'on» chaqaloqning e'ti-borini ona ko'kragiga jalb etish uchun ishlatalidi.

Yuqorida tilga olingen Ogata Yasuo oxirgi paytlar-da onalar doimiy ravishda undan: «Farzandim ovqat-lanishdan bosh tortyapti, nima qilish kerak?» – deb so'rashlarini aytgandi. Ogata ularga: «Uni yeishga majburlay olmaysiz, ammo unda ovqatlanish istagini hosil qilishingiz mumkin», – deb javob beradi. Axir yosh bola ham xohlamaydigan narsasini yemaydi. Tayyorlash uslubini o'zgartirish, bola yoqtirmaydigan narsalarni «yashirish» yoki ovqatni taqdim qilishning (rang va shakli) yangi usulini topish mumkin. Onaning vazifasi bolani unga berilayotgan narsani yeishni qattiq xohlashga qiziqtirishdir. Ayol kishi buning uchun hech narsa qilmayotgan bo'lsa va faqat: «Mening bolam unday, mening bolam bunday», deb nolisa, onalik vazifasini uddalolmayotgan bo'ladi.

«Aldash» bu holatda quloqsiz bolaning e'tiboriini jalb etish va ota-onalari aytayotgan ishni qilishga rag'batlantirishdir. Bolalar tarbiyasi uchun bu zarrur. Yaxshi onalar va yaxshi murabbiylar – bunday «yolg'on»ning haqiqiy ustalari, ular bolaga bildir-masdan uning e'tibori va qiziqishini o'zlariga kerakli tomonga yo'naltira oladilar. Shu bilan birga, bolalar haqiqiy yolg'oni darhol payqaydilar. Men yuqorida aytib o'tganim professor Suzuki uslubi ham shu kabi «aldash»ning bir turidir. Ammo bola bunga alda-nishining sababi hiyla bilan bir vaqtda bola nuqtayi nazaridan fikrlash tarzi mavjud bo'lganidadir.

## **Ona bilan «birgalikdagi ta’lim» bolaning qiziqishini kuchaytiradi**

Giperg‘amxo‘rlik va ota-onaga ortiqcha qaramlikning oldini olish uchun onalarga bola shug‘ullanayotgan mashg‘ulotlarda qatnashishni – birga chizish yoki biror narsani birga tomosha qilishni tavsiya etgan bo‘lardim.

Bu fikrni menga Nemoto Susumu<sup>1</sup> aytgan edi. Men Nemotoga Bolalar erta rivojlanish assotsiatsiyamizda rasm chizish darslarini boshqarishni taklif qilgandim. Biz assotsiatsiyada bolalar rasmlari ko‘rgazmalarini o‘tkazgan paytimizda Nemoto shunday bir usulni qo‘llardi. U ona va bolaga bitta rasm berardi, ammo har biri o‘z rasmini o‘zi chizishi kerak. Odatiy sharoitda ona bolaga yordam beradi, ammo bu uning qaramligini yanada kuchaytiradi. Natijada u ojiz bo‘lib ulg‘ayadi va onasiz biror narsa qila olmaydi.

Nemoto yondashuvining xususiyati ajoyib tarzda namoyon bo‘lardi. Ya’ni bu shunday: ona va bolaga biror narsani mustaqil chizish taklif qilinsa, ona birinchi bo‘lib ishtiyoq bilan ishga kirishadi. Uning

---

<sup>1</sup> Nemoto Susumu – «Kuri-tyan» komediya janridagi komiks-manganing muallifi, manganing asosiy qahramoni – bola.

ilhomli sirli ravishda bolaga o'tadi. Agar shu lahzaga gacha zerikkan holda biror narsa chizayotgan bo'lsa, endi harakat qilishga kirishadi. Ona – go'dak uchun eng muhim inson. Onasining biror narsaga ishtiyoqini ko'rib u ham befarq bo'la olmaydi. Onaning qiziqishi va g'ayrati bola uchun eng yaxshi rag'bat bo'ladi.

Men ham ona va bolaning «birgalikdagi ta'limi» haqida gapirganimda aynan shuni nazarda tutaman: birga biror narsa tomosha qilish, birga musiqa tinglash yoki chizish. Boladan mustaqil ravishda ona bu jarayonga shaxsan o'zi qiziqishi kerak. Bunday yondashuvda bola giperg'amxo'rlikka va qaramlikka duch kelmaydi. Faqat shundagina unda shaxsiy manfaatlar shakllana boshlaydi.

Bolalar bog'chasida ishlaydigan bir tarbiyachi o'zi kuzatgan qiziq holat haqida so'zlab bergen edi. Uning aytishicha, bolalar u bilan birga yoki alohi-da televizor ko'rganlarida o'zlarini har xil tutadilar. Agar ularni televizor qarshisida qoldirib o'zi boshqa ish bilan shug'ullanishga ketsa, dasturga qiziqish asta-sekin susayadi, bolalar bir-biri bilan tortishib janjallasha boshlaydilar. Ona va tarbiyachining bolaga ta'siri shu qadar kattaki, bolaning qiziqish darajasi qandayligi ularning kichkintoyga munosabatiga bog'liqdir. Agar tarbiyachi ishtiyoyq bilan biror narsa tomosha qilsa, ona zavq bilan musiqa tinglasa, bola ham xuddi shunday qiladi. Onalarga bolani qiziqtrish murakkab masaladek tuyuladi. Buning uchun

bola bilan birga nimadir qilish kerak. Masalan, televizorda kichkintoylar uchun dastur ko'rsatilayotgan bo'lsa ham, ona bolani yolg'iz tashlab qo'ymasin. U bilan birga qiziqib tomosha qilsin.

## Bolaga qiziq bo'lgan narsaga ona qiziqish bildirishi kerak

Bolaning quvnoq va qiziqarli o'z olami mavjud, bola ana shu yerda rivojlanadi. Biz – kattalarga bolanning mashg'ulotlari ahmoqona tuyulishi mumkin, ammo unga qiziqqan go'dak uchun bu ish muhim va uni hech narsaga almashtirmaydi.

Ba'zi onalar o'z farzandlarining mashg'ulotlariga xuddi ahmoqona ishdek qarashadiki, bu meni hayron qoldiradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ona bilan qo'shma mashg'ulotlar bolani rag'batlantiradi. U qilayotgan ishga onasining qiziqishi bolanning rivojlanishini kuchaytiradi.

Albatta, o'zingizni majburlab qiziqqandek ko'r-satishga chaqirmayman. Menga ko'pincha: «Men mumtoz musiqani yoqtirmayman, ammo bola uni tinglashi kerak-ku», deyishadi. Axir onasi yaxshi ko'rmaydigan musiqa bolaga yoqadimi? Umuman olganda, mumtoz musiqa bola uchun foydali bo'lsa ham, onasiga yoqmayotganini ko'rsa, bu unga teskari ta'sir qiladi va hech qachon mumtoz musiqaga mehr qo'ymaydi. Bolalarning sevimli mashg'ulotlari onaning ta'siri natijasidir, shu bois farzandi qilayotgan

ishga onaning umuman qiziqmasligiga yo'l qo'ymaslik kerak. Nega bolaning mashg'ulotlari ota-onaga ahmoqona tuyuladi? Chunki ota-ona ularga katta odam nuqtayi nazaridan qaraydi. Ammo o'z bolaligini eslashgani zahoti o'zlari ham shunday «ahmoqgarchilik»lar bilan shug'ullaniganini bilishadi.

Bolani nimagadir majburlab qiziqtirish uning olamiga ruxsatsiz kirish va uni o'zingizga moslashtirish deganidir. Boshqa tomondan, bolaning qiziqishlariga beparvolik qilinsa, ular rivojlanmaydi. Ona uchun eng yaxshi holat farzandining yonida bo'lish va bola nima bilan shug'ullanayotganini sinchkovlik bilan kuzatishdir. Ona qiladigan barcha ishlar – bolaga majburlab biror narsa singdiryaptimi yoki unga umuman ahamiyat bermayaptimi – go'dakka ta'sir ko'rsatadi. Bola uchun eng foydalisi uning ishlariga qiziqish bildirilishi va rag'batlantirishdan iborat.

Unutmangki, o'zini majburlab qiziqqandek qilib ko'rsatish aslo mumkin emas. Ona yoqtirgan narsani bola ham yoqtiradi, bola qilayotgan ish hatto kulgili bo'lsa-da, bu rivojlanish jarayonining bir qismi hisoblanadi. O'z farzandini kuzatib turgan onaning muloyim chehrasi barcha so'zlardan ko'ra uni yaxshiroq ruhlantiradi. Ammo kattalar bolaga tepadan qarasalar va uni hurmat qilmasalar, bunga javoban bola ham ularni hurmat qilmaydi.

## **Bolaga biror narsa yetishmasa, uni olish uchun motivatsiya paydo bo‘ladi**

1976-yilda Tehronda savodsizlikka qarshi kуrash bo‘yicha konferensiya o‘tkazildi. Meni ham taklif qilishgan va unda ishtirok etdim. Anjumanda bolalar bilan tug‘ilishidan boshlab ishlansa, savodsizlikni bartaraf etish mumkin degan umumiyl fikrga keldik. Ko‘pgina fikrlarimga ishonch hosil qilib Yaponiyaga qaytib keldim. Mazkur konferensiyada men «Gapiruvchi kartochka»ni taqdim etgandim, boshqa davlatlardan kelgan ishtirokchilar unga katta qiziqish bildirdilar.

Bolalar bu kartochkalarni o‘yinchoq sifatida qabul qiladilar, o‘ynash davomida tabiiy ravishda harflar va so‘zlarni o‘rganadilar. Kichkintoy harflarni o‘rganiishi uchun oddiy takrorlashning o‘zi yetarli emas, u qiziqishi ham kerak. «Gapiruvchi kartochka» – bolalarni qiziqtira oladigan qurilma, shuning uchun konferensianing barcha ishtirokchilari unga e’tibor qilishdi.

Chetdan bu reklamadek tuyular, ammo men boshqa narsani aytmoqchiman. Fikrimcha, yapon onalari

farzandlarining ko'nglini ochish uchun juda ko'p ortiqcha xatti-harakat qiladilar. Boshqacha aytganda, bolani o'yinchoqlar, ko'ngilochar narsalar va e'tibor bilan ko'mib tashlaydilar.

«Gapiruvchi kartochka»ni misol keltiraman. Agar 20 ta bolaning har biriga emas, barchasiga bitta qurilma to'g'ri kelsa, ularda qiziqish darajasi yuqori bo'ladi. Bunda bola kartochkalar bilan o'ynash uchun navbat kutadi, shuning uchun uning qiziqishi o'sadi. Navbat o'ziga kelganida bola diqqat bilan qurilmani o'rganadi va uni berishni istamaydi. Agar har bir bolada kartochkalarni cheksiz o'ynash imkoniyati bo'lsa, ularda qiziqish pasayadi va bolalar tez zerikib qoladilar.

Tabiiyki, ikkinchi holatda bolalar harflarni tezroq va yaxshiroq yodlaydilar. Onalar ortiqcha harakat qiladilar deganimda aynan shuni nazarda tutgan edim. Ular bola xohish bildirishidan avval uni o'yinchoqlar, o'rgatuvchi qurilmalar, hattoki g'amxo'rlik bilan chirmab tashlashadi. Professor Suzuki kabi bolaga istagan narsasini u chiday olmaydigan dara-jaga kelgan vaqtida berish kerak. Ammo zamonaviy yapon onalari bolaga yoqadigan narsalarni berib, bolaning istagidan ilgarilab ketadilar.

Albatta, ota-ona yordamisiz bola hech narsa ololmaydi. Onalar bolaga biror narsa olib berishdan oldin farzandining istagiga qiziqib ko'rishlari va bu istak naqadar yuqoriligiga doim e'tibor qaratishlari lozim. Qiziqish bo'lmasa, bolada yangi narsani shiddat bilan o'rganish va o'zlashtirishga rag'bat bo'lmaydi.

Nafaqat erta ta'limning, balki butun zamonaviy ta'limning muammosi shundaki, bolalarda hamma narsa, hatto keragidan ortiqchasi bor. Odatda, tarbiyaga shunday jarayon sifatida qaraladiki, tarbiya qiluvchi tarbiya qilinuvchiga biror narsa beradi. Ammo tarbiyaviy jihat borki, aksincha, unda hech narsa bermaslik kerak. O'qishga intilish va rivojlanish bolaga biror narsa yetishmaganida vujudga keladi. Aynan shu narsa uni diqqatini jamlash va harakat qilishga undaydi. Inson o'zida yo'q narsani olish uchun juda katta ish qilishga qodir. Bu bolalarga ham taalluqlidir.

Odamning qorni to'q bo'lsa, eng mazali taomni ham tanovul qilmaydi. Agar bolaning barcha istaklari qondirilsa, rivojlanish uchun rag'batি bo'lmaydi. Go'dakni qiziqtirish uchun ota-onalar ongli ravishda ba'zi bir orzularini qondirmasliklari kerak, shunda u istayotgan narsasini qanday olish mumkinligi haqida o'ylaydi. Bu muhim ta'lim jarayoni sanaladi. O'yinchoqlar bilan ko'mib tashlangan bola ularni tabiiy hol sifatida qabul qiladi. Bu holda mabodo to'satdan uning istaklari bajarilmasa, u kuch sarflab istagan narsasini olish uchun biror usul topishga harakat ham qilmaydi. Shunday tarzda umuman mustaqil bo'lmay ulg'ayadi.

Fikrimcha, zamonaviy onalar biror narsadan mahrum etish xuddi berish kabi tarbiya usuli ekanini unutdilar. Albatta, bolaga rad javobini berish hamma aytganini qilishdan ancha qiyinroq va barcha onalar

buning uddasidan chiqishlarini istardim. Axir bola o‘yinchoq kerak deganida o‘yinchoq sotib olib berish yoki qo‘limga olishni istayman deganda qo‘liga olib berish onalar uchun eng oson ish bo‘lsa kerak. Biz doim erkalatib yuborilgan bolalar haqida gapiramiz, ammo erkalik kattalarga ham tegishlidir. Bolada qiziqish kuchayishini va u chidab bo‘lmas darajaga yetishini tinchgina kutishga sabri, iroda kuchi yetmaydigan ota-onalar, aslida, o‘zlarining ko‘ngillarini ko‘tarishga harakat qiladilar.

Onaning vazifasi bola uchun yaxshi bo‘lgan narsani bilish va uning qiziqishini kerakli tomonga yo‘naltirishdir. Tarbiyaning mohiyati mana shunda, maqsad esa bola farovonligidir. U shafqatsiz Sparta davlatidagi ta‘limga yondashuvdan ham, aralashmaslik tamoyiliga asoslangan tarbiyadan ham farqlanadi deb o‘ylayman.

## **Agar bolaga so‘rayotgan narsasi doim berilsa, u irodasiz «shahzoda» bo‘lib ulg‘ayadi**

Ko‘p zamonaviy bolalar onasini o‘z do‘s tidek ko‘radilar va uning mavqeyini tan olmaydilar. Oq’ir holatlarda bola uchun ona xuddi bir xizmatkordek, unga buyruq beradi, agar onasi aytganini qilmasa, koyishdan ham toymaydi. Bunday onalar: «Farzandim meni umuman tinglamaydi...», deb doim noliy dilar, ammo uni o‘zlar shunday tarbiya qilganini butunlay unutadilar.

Yuqorida aytilganidek, bolaga biror narsa yetmasa, unga erishish uchun harakat qila boshlaydi. Agar bolaning barcha istaklari bajarilsa, u hech qachon harakat qilishni o‘rganmaydi va o‘zini xudbin «shahzoda» yoki «malika» kabi tutadi. Kichikligidan boshlab so‘ragan hamma narsasi beriladigan bolalar uch narsani – haqiqiy xursandchilik va intilish nima ekanini bilmaydilar, ota-onasini hurmat qilmaydilar.

Har bir inson xatti-harakati tufayli istagiga erishsa, quvonch hissini tuyadi. Bu uni keyingi maqsadga erishish uchun yanada ko‘proq harakat qilishga rag‘batlantiradi. Rivojlanish shunday ro‘y beradi. Bolalikda, qiyofalar yoshidan boshlab bola shunday tajribaga

ega bo'lishi lozim, aks holda, o'z kuchi bilan maqsadga erishishdan quvonish hissini bilmaydi, boshqalarga ruhiy qaramligi kuchli bola bo'lib qolishi mumkin.

Bundan tashqari, istaklarini boshqalar qondirishiga o'rgangan xudbin bola o'zining va o'zgalarning mehnatini qadrlamaydi.

Odam biror narsaga turli usullar bilan erishsa bo'ladi, o'zi xatti-harakat qilishi yoki boshqa odamdan olishi mumkin. Tanlangan usul tufayli o'sha narsaning qadri ham turlicha bo'ladi. Ba'zi katta yoshli lar va bolalar o'zлari nima qilishsa ham, ular uchun nimadir qilinsa ham qoniqmaydilar. Istalgan xohish qondirilsa, odam haqiqatda nima istayotganini tushunmay qoladi, shuning uchun mavjud narsalar unga doimo kamlik qiladi va u baxtsizligicha qolaveradi.

Bolaning barcha aytganini qilib ona uning ko'zida o'z mavqeyini yo'qotadi. Eng kichik istagi bajarilmasa ham, bola unga jahl qiladi, ona esa o'z farzandining oldida qo'rquvda qoladi va bor kuchi bilan uning xohishini bajarishga urinadi. Bu holatdagi onaning xatti-harakatlari tushunarsizdir. Chunki uning asosiy vazifasi farzandining oldiga maqsad qo'yib, bolasi bu maqsadga erishishga harakat qilayotganida uni qo'llashdan iborat.

O'z mavqeyini ushlab turuvchi onaning farzandi bor kuchi bilan eng yaxshi narsaga erishishga intiladi. Bolaning barcha istaklarini bajarish mumkin emas, negaki, uyg'unlikda rivojlanish uchun bolaga hurmat qilinadigan ona zarur.

## **Bolaning «nega»lariga beparvolik qilinsa, bola qiziquvchanlikni yo‘qotadi**

Yaqinda bir mehmonxona tomida yonimda o‘tirgan ona va bolaning suhbatini eshitib qoldim. Suhbat meni zavqlantirdi. Uch yoshli kichkintoy onasidan so‘radi: «Nima uchun oyna shaffof?». U esa zavq bilan oyna nimadan va qanday qilinishini aytib bera boshladi. Oyna nima sababdan shaffof ekanini tushuntirishga onasi qiynalardi, ammo uning javobi bolaning qiziqishini yanada kuchaytirdi, ilmgaga intilishda davom etish uchun uni ilhomlantirdi, bolaning aqliy rivojlanishida yana bir qadam tashlashiga yordam berdi.

Agar ona «shaffof, chunki shaffof» deb javob berса, buni javob deb ham bo‘lmaydi, bolaning qiziqishini to‘xtatardi va u ko‘proq bilish uchun rag‘batini yo‘qotardi. Bolaning «nega»lariga javob berish haqiqatan qiyin bo‘lishi mumkin. Javob bera olinadimi yoki yo‘q – bu muhim emas, axir bu mavzuda bola bilan birga doim fikrlab ko‘rish mumkin. Masalan, yuqoridagi misolda onaning javobi bolaning qiziqishini kuchaytirdi.

Agar bola: «Nega poyezd harakat qilyapti?» – deb so‘rasa, odatda, ota-ona: «Uni elektr energiya ha-

rakatga keltiradi», deb javob beradilar. Albatta, bola ularga elektr energiya to‘g‘risida savollar bilan hujum qiladi, ammo «Elektr energiyasida harakatlanadigan narsalar harakatlanadi» qabilidagi tushuntirish uning qiziqishini yo‘qqa chiqaradi. Ota-onasavolga jiddiy munosabatda bo‘lishi kerak, bu borada o‘zlaribiladigan barcha ma’lumotlarni, hattoki dvigatel tuzilishi va magnit kuchi haqida aytib berishlari kerak. Menga, albatta, bunday murakkab narsalarni qancha tushuntirmang, bola baribir tushunmaydi deb e’tiroz bildiradilar. Ammo bolaning tushunishi muhim emas.

Bu yerda go‘dak uchun ota-onaning jiddiy javob berishi muhim hisoblanadi. Bola buni his qiladi va uning savoli javobga loyiq (muhim savol) ekanini tushunadi. Shu tariqa uning qiziqishlar doirasi o‘sadi. Aldov, uzr tarzidagi javoblar yomon ma’nodagi yolg‘ondir. Bola uning savoli jiddiy qabul qilinmayotganini ko‘rib asabiylashadi va u bilimga chanqoqlikni yo‘qotadi.

Bir universitet o‘qituvchisi uch yashar farzandining «nega»lariga har doim xuddi universitetda dars o‘tayotgandek javob beribdi. Go‘dak bu jiddiylikni ko‘rar, o‘rindiqda tinch o‘tirib ba’zi talabalardan ko‘ra tirishqoqlik bilan tinglayveribdi.

Haqiqatan ham, bola hamma narsani tushunishi uchun unga javob berish qiyin. Ammo bu qiyinchilik asosiysi emas. Eng muhimi, uning qiziqishini qo‘llashga harakat qilishdir, buning uchun o‘ta jiddiylik bilan javob berish kerak.

## **Bola yoqtirmaydigan narsani kuch bilan majburlash uning fe'l-atvorini o'zgartiradi**

Daholar orasida ko'pgina ajoyib va noyob odamlar bor. Ular biror narsaga boshi bilan sho'n-g'iydilar va olamni unutadilar, kundalik tashvishlar ularni o'ylantirmaydi. Bunday odamlarda shaxsiy muammolar tez-tez uchrab turadi. Buning sababi ularning bolaligida yashiringan. Masalan, buyuk bastakor Betxovenni olaylik.

Ma'lumki, Betxovenning otasi saroy ibodatxonasida musiqachi bo'lib xizmat qilgan va ko'p aroq ichardi. U o'g'lining musiqaga qobiliyati borligini sezadi va to'rt yoshidan u bilan shug'ullana boshlaydi. Otasi uni holdan toygunicha chalishga majbur qilardi. Yosh Motsartning mashhurligi Betxovenning otasiga tinchlik bermasdi, shuning uchun Betxoven yetti yoshida pianinochi sifatida ilk bor jamoa oldida chiqish qildi. Ammo otaning og'ir mashg'ulotlari emas, balki mastligi bolani ko'proq qiynagan deyishadi.

Yillar o'tib Betxoven kasallikka chalindi va eshitish qobiliyatini yo'qota boshladи. Kasallik kuchaygani sari u odamoviroq bo'lib borardi. Gyotening «Egmont» fojiasiga uvertyura yozganidan so'ng

Betxoven «O'lmas sevgilimga xat»ini yozdi. Ammo sevgan qiziga uylana olmadi va umrining oxirigacha bo'ydoq bo'lib o'tdi. Bastakorning baxtsiz qismati bevosita otasi ta'sirida o'tgan yoshligiga bog'liq edi.

Xuddi shunga o'xshash shaxsiy muammolar «Fikrlar» muallifi Paskalning hayotida ham bor edi. Agar qiyofalar yoshidan o'tgan bolaning xohishiga qarshi biror narsaga majbur qilinsa, bu uning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. Yuqoridagi misollar buni tasdiqlaydi.

Takror-takror aytganimizdek, qiyofalar yoshida bolaning atrofida ko'proq rag'batlar bo'lishi zarur. Shuning barobarida bolaning rivojlanishini sinchkovlik bilan kuzatish lozim, unga qattiq bosim o'tkazish kerak emas. Qiyoфalar yoshida go'dak haqiqatan yengil va qarshiliksiz «mexanik» rag'batlarni qabul qiladi, keyinchalik bolaning o'ziga bildirmasdan unga ta'sir qilishga imkon beruvchi turli hiyla-nayranglar-ga murojaat etish mumkin. Bunda ochiqdan-ochiq majburlash usulini qo'llamaslik ayni muddaodir.

Keltirilgan misollarda ikkala ota ham o'z o'g'lidan daholar yaratishni juda istashardi. Tarbiya kuch ishlatish va majburlashdan iborat bo'lgan va bolalarga ota-oni mehri yetishmagan edi. XIX asrda yashagan buyuk matematik Gaussning otasi esa undan daho yaratishga harakat qilgan emas. U g'isht teruvchi bo'lib ishlardi va ba'zida o'g'lini o'z ishiga olib borardi. Gauss otasining g'isht terayotganini kuzatadi va unda tabiiy ravishda matematik fikrlash rivojlanadi.

## Bolaga o‘zi yecha oladigan ijodiy masalalar berish lozim

Biznes dunyosida loyiha guruhi degan tushuncha bor. Loyerha guruhi turli bo‘limlardan yig‘ilgan odamlar jamoasi bo‘lib, kompaniya uchun muhim masalani yechish usulini topishga yo‘naltiriladi. Loyerha guruhidagi faoliyat maqsadlar bo‘yicha boshqarish usulining bir qismidir va xodimlarga o‘zlari ning ijodkorlik qobiliyatini rahbariyat buyrug‘i bilan emas, shaxsiy tashabbus orqali namoyon qilish imkonini beradi.

Fikrimcha, bu usul bolalar rivojlanishiga juda mos keladi. Go‘yo ona kompaniyaning asosiy rahbaridir. U bolaga vazifa qo‘yadi va yechim topishni uning o‘ziga qo‘yib beradi. Deylik, bolalar uchun kublarni misol qilib keltirsak. Odatda, bolasi bilan qasr qurishayotganida ona avval kvadrat bloklarni, so‘ng to‘rtburchak bloklarni, oxirida uchburchak bloklarni ishlatalish kerakligini tushuntiradi. Ya’ni bolaning oldiga maqsad qo‘yadi, shu bilan birga, bu maqsadga erishish uchun uning harakatlarini boshqaradi.

Bunday qurilishda bola miyasini umuman ishlatmaydi, faqatgina mexanik tarzda onasining ko‘rsatmalarini bajaradi. Bolaning rivojlanishi uchun bun-

day jismoniy amal emas, balki fikrlash jarayoni muhim ta'sir ko'rsatadi, xususan, go'dak kublarni qayerga qo'yishni o'zi o'ylab topishi kerak. Bundagi natija esa onaning qasr to'g'risidagi tushunchasiga to'g'ri kelmasligining ahamiyati yo'q. Muhimi, bu bolaning qasri bo'ladi va undan boshqa hech kim uni qura olmaydi.

Mashhur bir me'morning so'zlariga ko'ra, yosh bolalar ijodiy ishlaridan katta odamning xayoliga ham kelmaydigan g'oyalarni olish mumkin. Bolaga vazifa bering – u o'ylaydi, shubha qiladi, natijada faqat o'zining qo'lidan keladigan qasr quradi. Bu jarayon miya ishlashini kuchaytiradi va bolaning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Agar ona go'dak uchun barcha aqliy ishni bajarib bersa, bola jismonan qanchalik rivojlangan bo'lmasin, ko'rsatmalarsiz hech nima qila olmaydigan robotga aylanadi.

Fransuz mutafakkiri Anatol Frans shunday yozadi: «Bola rivojlanishi uchun yaxshi musiqa, toza havo, yaxshi sut kerak». Bu yerda musiqa deganda men loyihani nazarda tutaman. Loyiha so'zida «loyihalash» degan ma'no mujassam bo'lib, bolaning rivojlanishi unga ushbu loyihalashni taqdim etuvchi onaga bog'liq hisoblanadi.

## **Ta'lim doim ham jiddiy bo'lavermasligi lozim**

Yaponlarni «keskin xalq» deb ta'riflashadi. Ishda bo'ladimi, bo'sh vaqtdami, ular doim keskinlik, asabiylilik hissi bilan yuradilar, xorijliklar yaponlar qachon, qayerda dam oladilar deb tushunmay qoladilar.

Ishda bu keskinlik perfeksionizmda namoyon bo'ladi, boshqacha aytganda, bu istalgan bir vazifani mukammal darajada bajarish xohishidir. Bir tomondan, bu yaxshi, chunki bu Yaponiyaga o'z iqtisodini yuksaltirish uchun yordam berdi. Ta'lim sohasida-chi? Yaponiyada o'qishga doim jiddiy munosabatda bo'lish kerak degan qoida bor. Bu hattoki farzandlarimizga aytadigan «tirishib (jiddiy) o'qigin» so'zlarida ham namoyon bo'ladi. Masalan, kitob o'qish. Stol atrofida risoladagiday o'tirib kitobni bir tekis o'qish kerak, agar biror narsani tushunmasang, shu joyni yuz marotaba o'qi – ma'nosи o'zi keladi. Yaponlarning fikricha, bunday yondashuv ruhni teitiklashtiradi.

Yaponlarda «O'quvchi ustozidan uch metr orqada yurishi lozim va uning soyasiga oyoq bosishi kerak emas», degan maqol bor. Zamonaviy yoshlar

bu maqolning haqiqiy ma'nosini tushunmaydilar, mashg'ulotlar paytida jim o'tirib o'qituvchining aytganlarini diqqat bilan yozadigan talaba hozirga qadar tirishqoq talaba deb tushuniladi.

Bu jiddiylik farzandlarining ta'limi haqida qayg'uruvchi onalarda ko'proq namoyon bo'ladi. Ular bor kuchlarini bolaning o'qishiga qaratadilar va shaxsiy qiziqishlaridan voz kechadilar. Jiddiy ona o'z farzandidan ham jiddiylikni talab qiladi, keskinlik asta-sekin kuchayadi, natijada kimdir chiday olmaydi va portlash sodir bo'ladi.

Yozuvchi Siroyama Saburo bu mavzuga «Itoatkor askarlar» romanida hazil va kinoya bilan yondashadi. Bu tragikomediya o'z farzandi tug'ilishidan avval uning ta'limi haqida qayg'uruvchi ayol oilasi haqidagi asardir. Bunday ortiqcha qayg'uruvchi onalar juda ko'p. Romanda jiddiylik natijasida ona va bolaning munosabatlari buzilishi ko'rsatiladi. Ammo ta'lim va tarbiyada bu shu qadar muhimmi?

Yaponiyada shunday gap bor: «Yaxshi o'qib, yaxshi o'yna», deyishadi. Buning ma'nosи shuki, bizda ta'lim va hordiq keskin chegaralangan. Fikrimcha, ularni ajratishning hojati yo'q. Ayniqsa, yosh bolalar tarbiyasida bunday qilish kerak emas. Ota-onalar «o'yinchoqlar dam olish va hordiq uchun mo'ljalangan, o'qitish jihozlari mashg'ulotlar uchun», deb o'ylashadi. Yosh bola uchun o'yinchoq o'rganish vositasidir, jihozlarni esa, o'z navbatida, o'yinchoq sifatida qabul qiladi.

Go'dak qiziqishini jalg qiluvchi hamma narsa bola uchun o'quv materiali hisoblanadi. O'yin jarayonida egallangan bilim va ko'nikmalarni bolalar juda yaxshi o'zlashtiradilar. O'ynab o'qish va o'qib o'ynash – to'g'ri ta'lim jarayoni mana shundan iborat, bunday tarzda egallangan bilim bola bilan bir umrga qoladi. Bolalar uchun «So'zlovchi kartochka» ham oddiy o'yinchoqdir. Go'daklar bir-ikki soat qiziqish bilan o'ynaydilar, shu paytning o'zida so'zlarni yodlaydilar va inglizchada to'g'ri talaffuz qilishni o'zlashtiradilar. Demak, aynan yosh bolalar bu o'yining haqiqiy qiy-mati va maqsadini tushunadilar.

O'ylab qarasak, o'yin-kulgi vositalari, ayni paytda, o'qitish vositalari ham bo'lgan (kamon va o'qlarni yoki yozuv taxtachalarini olsak). Ularning tarixi bor va madaniy qiymatga ega. Ko'ngil ochishga jiddiy qarash kerak emas, shuning uchun o'qishga ham doim jiddiy yondashish yaramaydi. Qat'iyat bilan biror narsani o'ynash amalda qat'iyat bilan o'qishni anglatadi. «Qiziqarli» va «tirishqoqlik» bir-biriga zid tushunchalar deb o'ylashni bas qilish lozim. Shunda ota-onam ham bolaning ta'limi uchun biror narsadan voz kechishiga to'g'ri kelmaydi, bola ham yengil va biror-bir stressiz rivojlanadi.

«Itoatkor askarlar» asarining yakunida Siroyama o'zi o'qigan amerikalik yozuvchining «Oddiy odamlar» romani haqida quyidagi sharhni keltiradi: «Bu hikoya o'rta yoshdagi oila va ularning o'g'llari haqidagi edi. Ona o'z o'g'li haqida umuman qayg'urmeydi

va unga past nazar bilan qaraydi. Uning butun ha-yoti ijtimoiy tadbirlar, golf va sayohatdan iborat. U ruhiy kasallikka chalingan o'g'lini tashlab sayohatga ketadi. Bu ayol Yaponiyada keng tarqalgan tasavvurdagi rafiqqa va ona timsolidan ancha yiroq. Uning hayotga aniq yondashuvi mavjud va o'g'lini alohida mustaqil shaxs sifatida qabul qiladi. Bolaning o'qishi bilan uning ishi yo'q, oilada bu masala muhokama qilinmaydi. Bola mustaqil o'zi yashaydi, uning hayotida eng muhimi – sport va do'stlari. Aftidan, bu holat Amerika uchun odatiydir. Mening hikoyam bilan solishtirish mumkin: ikki romandagi hodisalar bir vaqtda sodir bo'lmoqda, oilalar tarkibi va ijtimoiy mavqeyiga ko'ra o'xshash. Ularning hayot tarzi va oilaga munosabati biznikidan tubdan farq qilgani uchun men shu haqda o'ylanib qoldim».

## **Mavhum tushunchalarni jalb qilib o'qitilsa, bola o'z-o'zidan tushunadi**

Menga «ta'lif» so'zining mohiyati unchalik ma'qul emas. Bunda bola sohani anglashi uchun uni izchil tushuntirish ko'zda tutiladi. «Ta'lif» nuqtayi nazaridan qarasak, agar ma'nosni tushuntirib berilmasa, bu umuman o'qitish emas. Ammo bolaning qiyofalar yoshida unga biror narsani o'rgatish foydasiz mashg'ulotdir. Fikrimcha, ma'nosini anglama-sa-da, bola ma'lumotni mexanik tarzda qabul qila oladi. Tushunish keyinroq keladi va unda beriladigan ma'lumot haqiqiy bilim bo'ladi. Agar bunday bo'lma-ganida jajji kichkintoylarimiz yapon tilida shu qadar oson so'zlasha olmasdilar, xorijlik katta yoshdagilar uni bunchalik mashaqqat bilan o'zlashtirmsadilar.

Shveytsariyalik mashhur bolalar psixolog Jan Piajening ta'kidlashicha, mavhum fikrlash bolalarda to'rt yoshdan shakllanadi. Ammo yosh bola o'z mi-yasida mavhum tushunchani qiyofa shaklida yod ola-di va mexanik ravishda o'zlashtiradi, keyinroq uning ma'nosini asta-sekinlik bilan anglay boshlaydi. Mohiyatan mana shu – o'qitishdir.

Fikrimni misol orqali shunday tushuntirish mumkin. Har bir go'dak onasi turganini yoki yotganini tushunadi. U «vertikal» va «gorizontal» degan so'zlarni bilmaydi, ammo turgan shakl (vertikal) va yotgan (gorizontal) shaklni qiyofalarni tanish qobiliyati yordamida farqlaydi. Bola bu so'zlarni keyinroq yodlashi mumkin, bu tushunchalar uning miyasida muhrlanib qolishini ta'minlash kerak. Buning uchun qog'ozga vertikal va gorizontal chiziqlarni chizish shart emas, turgan yoki yotgan onaga qarash samaraliroq ekanligi ayon.

Amerikadagi bolalar bog'chasidan birida yosh bolalar mavhum tushunchalarni aniq harakatlar orqali muvaffaqiyatlil o'zlashtiradilar. Masalan, bolalarga sonlar haqida tushuncha berish uchun tarbiyachilar quyidagi ishlarni qilishadi. Avval gimnastika taxtasiga bitta bolani, yoniga yana bir bolani o'tqizadilar. «Bitta edi, ikkita bo'ldi», – deydi tarbiyachi. Keyin yana bir bola o'tiradi, demak: «Ikkita edi, uchta bo'ldi...». Bolalar ma'nosini oxirigacha tushunishmasa-da, ko'proq bola – kattaroq son ekani ularning esida qoladi. Ular taxtaga yana yangi bola o'tirishi bilan son ko'payayotganini o'zlashtiradilar.

Yosh bolalar mavhum tushunchalarni tushuna olmaydilar degan gap o'qitish uslubi dasturiga ega bo'limgan olimlarning fikridir. Bolalar bog'chasi misolidan ko'rinishicha, aniq obrazlar bilan bola istagan narsasini o'zlashtirishi mumkin. Bunda ularnga yordam berish uchun go'daklarni turli sohalarga qiziqtirish zarur.

## **O'yinni kengaytira olmaydigan o'yinchoqlar aqlni rivojlantirmaydi**

Butun dunyoda bolalar kubiklarni yaxshi ko'radilar. Ulardan istalgan narsani yasash mumkin, shuning uchun kubiklar bolaning xayolotini va ijod qilishga ishtiyoyqini jiddiy rag'batlantiradi. Iste'dodlarni tarbiyalash instituti xodimi Tanaka Sigeiki ham bu xususiyat haqida: «Kubiklarning shakli va jismoniy xususiyati bolalarga o'yin uchun ulkan imkoniyatlar beradi!» – deb ta'kidlaydi.

Do'konlar turfa o'yinchoqlar – oddiy mashinalar va parovozlardan tortib radioboshqaruvga ega qimmat modellar bilan to'la. Bunday turfalikni ko'rib bolalarning ko'zлari chaqnab ketadi. Ammo ko'pincha bola o'yinchoqlar olamida o'zini yo'qotib qo'yadi va qaysi birini xohlashini ajrata olmaydi, natijada farzandi uchun ona qaror qabul qiladi.

Ular do'kondan uyga qaytadilar. Shunchalik masshaqqat bilan tanlangan o'yinchoq bolaga ikki-uch kundan keyin zerikarli bo'lib qoladi. Harakatlan zoye ketgan ona: «Mening bolam shunday injiq va beqaror», deb noliydi. Tasavvur uchun imkoniyat qoldirmaydigan o'yinchoqlarning qiziqish uyg'oti-

shi uzoq vaqtga cho'zilmaydi. Ular bolaga mustaqil ravishda biror narsa qilish uchun o'ylashga imkoniyat bermaydi, fikrlash jarayonini rag'batlantirmaydi. Shuning uchun kichkintoyni tezda zeriktiradi. Chunki u ularni o'ynab o'zi uchun biror yangilik kashf qilmaydi, xayolini mustaqil ravishda ishga sololmaydi va qiziqishi so'nadi.

Qimmat o'yinchoq bir zumda yosh bolaning joni-ga tegadi, u ko'chadagi barglar va toshlarni ishtiyoq bilan o'ynaydi. Bu yerda uning tasavvuri uchun maydon mavjud: go'dak uni qo'yishi, chizishi yoki istagan narsasini qurishi mumkin.

O'yinchoqlarning ta'limiylar funksiyasi aynan bolani o'z xayolotini ishlatalishga majburlash, yangi kashfiyotlar va yangi tajribaga undashdan iborat. Xuddi shunday vazifani bajarmaydigan o'qitish vositalari ham bola uchun zerikarli bir marotabalik o'yinchoqlardan aslo farq qilmaydi.

O'yinchoqlar tabiatiga ko'ra faqatgina bolaning bo'sh vaqtini band qilish vositasi emas, ular doim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi shart. O'yinchoqlarni va o'qitish vositalarini chegaralash kerak emas: ko'chadagi shoxchalar agar bola tasavvurini uyg'otsa va o'zi uchun biror yangi narsa ochishiga turtki bo'lsa, ular haqiqiy o'qitish vositalaridir. Chunki shu tufayli go'dakning aqli rivojlanadi. Yosh bolaning xayoloti uchun kenglik bermaydigan va uning qiziqishini ushlab tura olmaydigan o'yinchoqlar o'zining asosiy funksiyalarini bajarmaydi.

## **Ota-onas emas, yosh bola o‘yin o‘ylab topishi kerak**

O‘yinlar bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishini rag‘batlantiradi, o‘yinlarda uning shaxsiyati shakllanadi. Bu jarayonga ota-onaning munosabati o‘yinchoqlar asosiy funksiyasini yo‘qotishi yoki, aksincha, kichkintoyning rivojlanishiga kuchli turtki bo‘lishini belgilab beradi. Shuning uchun onalar o‘z farzandlarining o‘yinlariga e’tiborliroq bo‘lishlari kerak.

Albatta, bu ota-onas bolalarning o‘yinlariga ko‘proq aralashishini anglatmaydi. Aksincha, ular o‘yinlar nima uchun kerakligini va bolaning erkinligini chegaralamaslikni anglashlari zarur. Ko‘pincha o‘z farzandi uchun sotib olgan o‘yinchoqni qanday o‘ynash kerakligini unga tushuntiradilar. Agar bolasi ko‘rsatilgani-dek qilmasa, asabiylashadilar. Onaning vazifasi o‘yinchoqni sotib olish va go‘dakka berish, xolos! Nima qilish va qanday o‘ynashni bolaning o‘zi hal qiladi. Bola shaxsiyatining rivojlanishi aynan o‘yin jarayonini mustaqil ravishda o‘ylaydigan paytda sodir bo‘ladi.

Allen Xartvud xonim «Shaharda o‘yin maydonchalar» nomli kitobida ota-onalar o‘yin jarayoniga ara-

lashmasliklari kerakligini ta'kidlaydi. Uning yozishi-cha: «Agar bola o'yinchoqlar beradigan mustaqil o'rganish imkoniyatidan mahrum qilinsa, o'ziga ishonch paydo bo'lmaydi va u mustaqil bo'lishni o'r-ganmaydi». Bolaning o'zi o'yin o'ylab topsa, o'z kuchi-ga ishonishni boshlaydi va o'ziga tayanadi. Agar ona shunda ham uni chegaralasa, bolani tanlash erkin-ligidan mahrum qiladi. Demak, u o'yinchoqlar bilan emas, o'yinchoqlar u bilan o'ynayotgandek bo'ladi.

Ota-onalar o'z farzandlarining o'yinlariga e'tiborli bo'lishlari kerak deganimda ular bolaning hayotida o'yinlarning ahamiyatini tushunishlari va o'yinlar yordamida mustaqil rivojlanishiga yordam berish-larini nazarda tutmoqdaman.

O'yinchoqlarni sindirishga ishtiyoqmand bo'lgan bolalarga buni taqiqlash tartib-intizom emas, balki aralashuv sifatida qabul qilinib, bolaning ko'zida o'yinchoq biror-bir ma'no kasb etmay qo'yadi. Al-batta, qiyofalar yoshida bolani narsalarga ehtiyyotkor munosabatda bo'lishni o'rgatish muhim, ammo bu ning uchun boshqa ko'plab imkoniyatlar mavjud. Ta-qiq o'yin sohasiga tatbiq etilmasligi kerak. Tasavvur qiling: go'dak diqqat bilan o'yinchog'ini bo'laklarga bo'layapti, ammo unga «mumkin emas» deyildi. Bu bola uchun tarbiya emas, balki uning rivojlanishiga xalaqit beruvchi cheklov hisoblanadi.

Tokiodagi Ota rayonida shinalar bog'i bor. U yer qum bilan qoplangan va har yerda eski avtomobil shinalari yotibdi. Ulardan robotlar va maxluqlar,

piramida va arg‘imchoq shakllari qilingan, ammo bog‘ga keluvchi bolalar ularga deyarli e’tibor bermaydilar. Ularga yoyilgan shinalar bilan o‘ynash, ularni u yoqdan bu yoqqa sudrash, nimani qanday qilishni o‘zlari o‘ylab topish yoqadi.

Bu bog‘da bolalarda o‘yin uchun vosita bor, ammo o‘yin maqsadi va usullarini o‘zlari o‘ylab topadilar. Bog‘ kichkintoylar orasida juda mashhur, yonida boshqa, «tayyor» bolalar maydonchalari bo‘lsada, ko‘pgina ota-onalar ataylab shu yerga keladilar. Arg‘imchoqlar va sirpanchiqlarda bola xayolotini ko‘rsata olmaydi, chunki ularda o‘yining maqsad va jarayoni oldindan belgilangan bo‘ladi.

Biz, kattalar, bolalar maydonchasida arg‘imchoqlar, sirpanchiq, turniketlar bo‘lishi shart deb o‘ylaymiz. Bolaga zarur narsa – o‘yinlar uchun mos bo‘lgan joy va do‘stlardan iborat. Bog‘da shinalarni o‘ynayotgan bolalarga qaraganda hammasi tushunarli bo‘ladi. Bolalarning o‘zlari bu haqda nima deb o‘ylaydilar? Bir yosh bola «bu yerda orzu bor» deydi. Bu orzuni bog‘ni qurgan kattalar emas, balki o‘ynashga kelgan bolalar yaratadilar.

Albatta, «tayyor» o‘yinchoqlar va bolalar maydonchalari foydali, bu foya bola o‘ynayotganida o‘zi uchun biror yangilik ochishidan iborat. Aynan yangilik ochish bolaga quvonch hissini beradi.

Ota-onal go‘dakka o‘yin uchun vosita va joy yaratib berishlari shart, qolganini o‘zi o‘ylab topadi. Agar bola bu imkoniyatdan mahrum qilinsa, u hech qa-

chon mustaqil ravishda ko'ngil ochishni o'rghanmaydi. O'yinlar bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishida aynan mustaqil o'rghanish imkoniyatini yaratgani uchun zarurdir.

## **Bolaning qiziqishlarini yaxshi va yomonga bo'lish mumkin emas**

«Qo'shnining guli qizil», «Qo'shni bog'ning olmasi shirin» degan eski maqollar bor. Insonlar xursand yoki xafa bo'lish uchun o'zlarini doim boshqalar bilan solishtiradilar. Bizga doim boshqalarning sharoiti yaxshiroq tuyuladi, boshqalarning muvaffaqiyatlariga hasad qilamiz. Boshqalarning baxtsizligidan yashirin qoniqish tuyamiz, bu o'z ustunligimizni his qilishga imkon beradi. Boshqa odamlarning ishlari bizga tinchlik bermaydi – inson tabiatи shunday.

Bolalarни ham o'qish va ishdagi muvaffaqiyatlar bo'yicha solishtirishadi. Raqobat bola tug'ilishi dan boshlanadi. Ba'zida ota-onalar hazillashgancha: «Ana ularda o'g'il tug'ildi, bizda esa qiz bola», deb noliyidilar. Yoki: «Bolalarimiz tengdosh, ular o'n oylik, u qo'li bilan ushlay oladi va «bay-bay» deyishni biladi, bizniki esa yo'q. Balki, u rivojlanishda ozgina orqada qolayotgandir?» – deb, jiddiy xavotirga tu-shadilar. Meni shu kabi savollar tashvishlantiradi.

Bolalar tarbiyasiga doir kitoblarda, odatda, bolalarda aqliy qobiliyatlarning rivojlanishi tasvirlanadi. Ammo u yerda o'rtacha ko'rsatkichlar keltirilgan

bo'ladi. Agar go'dak ozgina tezroq rivojlansa, u aqliroq degani emas yoki bu jarayon sekinroq kechsa, rivojlanishda orqada qolayotganini anglatmaydi. Bolaning mayllari va qiziqishlari u tug'ilganidan boshlab atrofidagi rag'batlar ta'sirida shakllanadi, oiladagi muhit uning qobiliyatları qanday rivojlanishini belgilab beradi.

Quyidagi misolni avval ham keltirgan edim: agar ona mumtoz musiqani yaxshi ko'rsa va uni har kuni tinglasa, bola ham katta ehtimol bilan uni yoqtirib qoladi. Agar ona doimiy ravishda pop musiqani tinglasa, bola ham unga ko'ngil qo'yadi. Ammo bundan birinchi bolada mumtoz musiqani tushunishga qandaydir qobiliyat borligi, ikkinchi bolada bunday qobiliyat yo'qligi kelib chiqmaydi.

Motsartning «Kichik tungi serenadasi»ni chaqalоq ham tushunadi deganimda onalar buni majburiy me'yor deb qabul qiladilar va tashvishlanadilar yoki quvonadilar. Ammo men bunday musiqani tushunuvchi bolalar tushunmaydiganlarga nisbatan yaxshiroq va aqliroq deyishni nazarda tutayotganim yo'q. Go'dak buni o'rganishi yoki o'rganmasligi tug'ilishidan uni qanday rag'batlar qamrab olishiga bog'liqligini aytmoqchiman. Agar bolaga «bay-bay» deyish va qo'llari bilan ushslash o'rgatilmasa, keyinroq undan buni talab qilib bo'lmaydi. Oilada «qizil gul» o'sadimi, «oq gul»mi, bu faqatgina ona uni qanday parvarish qilishiga bog'liq va bunda qo'shnining «qizil guli»ga solishtirish umuman befoyda.

O'z farzandini boshqa bolalar bilan solishtirish kerak emas. Asosiysi, farzandingizni qanday o'stirishni istayotganingizni tushunishda, buning uchun imkon bo'lgan barcha ishni qilish kerak. Begona «qizil gul»ga qarashga vaqt sarflash o'rniغا go'daginingizga nima qiziqarli ekanini va bu qiziqishni qanday rivojlantirishni o'ylab ko'rgan yaxshi, ana shunisi foydadan xoli bo'lmaydi.

## **Erta ta’lim mohiyati shartli cheklovlardan chiqishdir**

Urush yillaridan keyin fan va texnikaning tezkor rivojlanishi lol qoldiradi. Oyga parvoz qilindi – avvallari insonlar bu haqda faqat orzu qila olardi. Yangi texnologiyalar bizning hayotimizni butunlay o’zgartirdi. Masalan, biz real vaqtida uydan chiqmasdan yer sharining qarama-qarshi tomonida nima sodir bo’layotganini kuzatishimiz mumkin. Bunga olimlar va ixtirochilar shartli cheklovlarni yenga olishgani, fikrlash qolipidan chiqa olishgani tufayli erishildi.

Sanoatlashgan dunyoda ijodiy yondashuv juda muhim. Bunday yondashuv siz hech qanday o’zgarishlar va rivojlanish bo’lmaydi. Yuqori raqobatchilik sharoitida har bir kompaniya biror yangilik o’ylab topishga intiladi, aks holda bu poygada yengiladi. Innovatsiyalar nega bu qadar katta ahamiyatga egaligi tushunarli, albatta. Ammo ta’lim-tarbiya sohasiga e’tibor qaratganimda u yerda hech qanday innovatsiyalar haqida gap ketmayotgani, bu barcha sohalardan eng konservativi ekanini ko’rdim.

Masalan, erta rivojlanish sohasini olaylik. Hozirga qadar kichik bolalarga biror narsa o'rgatish befoya degan fikr keng tarqalgan. Lekin bola kattaroq bo'lganida va qandaydir darajada o'zini eplaganida ota-onalar jon-jahdlari bilan uni tarbiya qila boshlaydilar, farzandining ta'limi bilan shug'ullanadilar. Barcha bunday odatiy yondashuvga ko'nikib qolgan. Albatta, mavjud tizimni isloh qilish – murakkab masala. Ammo bu holatda hech narsa qilmaslik vaqt talabiga e'tiborsiz qarashdir. Men muhandisman, menga yaxshi tanish bo'lмаган bolalar tarbiyasi sohasiga qiziqib qoldim, chunki eskirgan tizimni o'zgartirishga o'z hissamni qo'shishni xohladim.

Istardimki, butun dunyodagi onalar bu vaqt talabini qabul qilsinlar. Men boshqalar ortidan takrorlamasdan, doim biror yangilik yaratishni istardim. Belgilangan cheklovlardan chiqishga intilish insoniyat taraqqiyotining garovidir. Farzandi haqida u hali kichik va hech narsani tushunmaydi deb o'laydig'an ota-onalar uning ruhiy va aqliy o'sishiga yo'l qo'yaydilar. Erta rivojlanishning mohiyatini aynan shu cheklovlardan chiqishda ko'raman.

Yosh bolalarning tarbiyasiga bo'lgan zamonaviy munosabat «bolaga yaxshi musiqa qo'yib berilsa, baribir, uni tushunmaydi» yoki «bola biror narsani anglamagunicha uni tarbiya qilish kerak emas» kabi eskirgan tushunchalar bilan cheklanib qolgan. Ona bunday jaholatni uloqtirib tashlashi kerak, axir go'dakka olamning turfalogini faqatgina u ko'rsa-

ta oladi. Eskicha tarbiya ko'rgan bolalar, ehtimol, o'qishda muvaffaqiyatga erisharlar, testlarni doim yaxshi topshirarlar va a'luchi bo'larlar, ammo kelajakda dunyoga yangi masalalarni o'ylab topuvchi va ularning aniq yechimini taklif etuvchi insonlar kerak.

## **SO'NGSO'Z**

*Shu bilan tugadi.*

*Oxirigacha o'qiganingiz uchun rahmat!*

«Uchdan keyin kech»ni yozganimda Yaponiyada talabalar to'polonlari hali tugamagan, universitetlar, umuman, ta'limning taqdiri noma'lum edi. Men ham bu haqda o'yladim. Universitet ta'lim tizimini takomillashtirish uchun eski maktabni yaxshilash kerak. Buning uchun esa, avvalambor, o'rta maktabni, unga qadar boshlang'ich maktabni o'zgartirish lozim. Bu bizni muammo manbayi – bolalar bog'chasiga olib keladi. Yo'q, bolalar bog'chasida ham kech bo'ladi.

Bu kitobni tugatayotib o'z oldimda yangi savol turganini ko'ryapman. Bu uchdan keyin emas, uch yoshda ham kech degan fikrim bilan bog'liq. Agar davom ettirsak, bola uchun hal qiluvchi davr tug'ilganidan keyingi dastlabki bir necha kunlar, hatto soatlardir. Albatta, uning keyinchalik rivojlanishi ona muhabbati va mehriga bog'liq, ammo tug'ilgani zahoti chaqaloqni o'rab turuvchi narsalar unga juda kuchli ta'sir qiladi. Buni fan ham tasdiqlamoqda.

Universitet ta'limi muammolaridan boshlab men erta rivojlanish masalalarini tadqiq etishga o'tdim. Muammoning ildizini qidirib boshlang'ich nuqta-

ga yetib bordim – bola tug'ilgan davr. Aniqlandiki, bu soha hali juda kam tadqiq etilibdi. Tug'ilganidan so'ng birinchi kunlar inson hayotida hal qiluvchi bo'lsa-da, bu davrni tadqiq etish oson emas. Bola tarbiyasida bu davrga ham katta e'tibor qaratish zarur.

Aytishlaricha, tarbiyaning vazifasi insondagi mavjud imkoniyat (potensial)ni ochib berishdir. Demak, bolada tug'ilganidayoq qobiliyatlar mavjud bo'ladi, faqatgina ularni kashf qilish kerak. Shu bilan birga, har bir insonda qobiliyatlar zaxirasi turlicha va bordan ko'proq olishning iloji yo'q. Bu bizning hayotimiz oxirigacha bo'lgan chegaramizdir. Ammo bu fikrga mutlaqo qo'shilmayman. Men tarbiya tufayli har xil bolalar aql bovar qilmaydigan muvaffaqiyatlarga erishayotganlariga ko'plab misollarni ko'rmoqdamан.

Bolaning qobiliyatlari tug'ilganida aniqlanmaydi, chaqaloq toza qog'oz kabidir, uni noldan to'ldirish kerak. Biz nimaga qodirligimiz haqida ko'p narsa bilmaymiz, aminmanki, inson cheksiz imkoniyatlarga ega. Bu tomondan qarasak, alohida insonlar o'rtasidagi qobiliyatlardagi farq ahamiyatsiz ko'rindi, axir uni yengib o'tish mumkin.

Bu sohani faol tadqiq qilishda davom etish zarur, ayniqsa, tug'ilishidan boshlab bolaning rivojlanish jarayonini o'rganish kerak. Istardimki, bu masalaga qiziqqan butun dunyo onalari ushbu kitob mazmuни hamda o'z farzandlarining tarbiyasi uchun yana nima qilish mumkinligi haqida o'ylab ko'rsinlar.

## **Tug‘ilgan kunidan boshlaboq bir yoshgacha bo‘lgan davrda ta’lim imkoniyatlari cheksiz**

*Chiba universiteti faxriy professori  
Tago Akira sharhi*

Ibukaning bolalik davridagi mashhur taassurotlaridan biri uyg‘otuvchi soat va murakkab o‘yinchchoqlarni ko‘rganda kutilmaganda ularni qism-larga bo‘lib yuborgan holati edi. Shuning uchun qarindoshlarining uyiga o‘ynagani borganida hattoki «katta odam keldi, hushyor turing» deb aytishardi. Haqiqatan, uning men uchun qiziqarli bo‘lgan bu qarashlari va ijodkorligiga kuchli ishtivoq va ishonch janob Ibuka bilan har gal uchrashganimda juda xursand qiladi. Bu qarashlar janob Ibukaning yaponiyaliklar uchun noyob hisoblangan ijodiy manba bo‘lib, u dunyoda birinchi bor tranzistorli radioni mukammallashtirgan «Sony»ning noyob texnologiyasini ishlab chiqqanligidir.

Shu bois janob Ibuka ta’lim haqida juda noyob fikrlash uslubiga ega. Ta’lim sohasidagi islohot rejalarini haqida gapiradigan bo‘lsak, oddiy odamlar maktab ta’limi haqida o‘ylaydilar. Ammo janob Ibuka bu fikr ga qo‘silmaydi. Bolaning imkoniyatlarini eng yuqori darajada oshiradigan davr maktab ta’limidan avvalgi

davr – uch yoshgacha bo'lgan davr ekanini ta'kidlaydi. Erta yosh ta'limi bo'yicha tadqiqotlar chuqurlashgani sayin unga e'tirozlar tubdan o'zgardi. Ta'limni uch yosh o'rniqa bola tug'ilgan kunidanoq boshlagan yaxshi, ta'lim ona qornidaligidayoq boshlanmoqda degan qarashlar bor. Albatta, «Ibuka nazariyasi»ning bunday rivoji miya fiziologiyasi va bir yoshgacha bo'lgan bolalarga oid tadqiqotchi mutaxassislarning «hozirgi tadqiqot bosqichida bu haqda ko'p narsa deya olmaymiz» deb aytishi janob Ibukaning har doim bir necha qadam oldinda yurishini ko'rsatadi.

Janob Ibukaning erta yosh ta'limi haqida o'ylash uslubi «Uchdan keyin kech» kitobidan keyin ancha o'zgarganga o'xshaydi. Kichkintoylar kattalar tomonidan qayta-qayta takroriy berilgan narsalarni namuna sifatida yodlab olish qobiliyatiga ega. Bu iqtidorni uyg'otish, bu davrda samimiy qalb egasiga aylanish, ijodkorlik kabi maktab va boshlang'ich ta'limda tarbiyalash mumkin bo'lмаган qobiliyat-larni rivojlantirish juda muhimdir. Bundan tashqari, ong va insonni tarbiyalash haqida gap ketganda shu paytgacha bu juda mavhum, «aytish qiyin bo'lgan narsa» deb hisoblanardi. Ammo janob Ibukaning erta yosh ta'limida bu juda aniq shaklda ko'rsatib beriladi. Bu munosabat «Uchdan keyin kech»dan song yozilgan ushbu kitobda ham kuzatiladi. Bola tarbiyasiga jiddiy yondashadigan onalar uchun bundan muhim qo'llanma yo'q.

Ushbu kitobda janob Ibuka, ayniqsa, bola tug'il-

ganidan bir yoshgacha bo'lgan davrda ta'limdag'i ona roliga alohida e'tibor qaratadi. Mazkur davrdagi ta'lim va erta yosh ta'limini eng yaxshi o'qituvchilar ham, olimlar ham uddalay olishmaydi. Bu faqat onalar qila oladigan muhim ishdir. Bundan ularning boshi og'rib ketishi ham mumkin, lekin bu bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish va to'liq imkoniyatlarga ega bo'lishini xohlaydigan janob Ibukaning qaynoq fikrlaridan chiqqan nazariyadir. Ushbu kitobni o'qib bola tarbiyalashda o'zlarini ancha qulay his qilgan onalar ko'p bo'lsa kerak. Bu yerda talab qilinadigan mukammal ona obrazi ko'p kitoblarni o'qigan va ko'p narsalarni o'rgangan darajadagi ongli ona emas, balki bolaga tabiiy, samimi muhabbatni bera oladigan mehribon ona timsolidir. Aytishlaricha, bolalarni parvarish qilish bo'yicha turli ma'lumotlar toshqini tufayli ko'plab onalar farzandlarini tarbiyalashga bo'lgan ishonchini yo'qotishmoqda. Bolaga ko'proq ishonch bildirish uchun bola tug'ilgan kunidan boshlaboq bir yoshgacha (ta'bir joiz bo'lsa, o yoshda) cheksiz imkoniyatlarga ega degan janob Ibukaning fikrlarini ushbu kitobdan o'qib olishingiz mumkin.

*Ma'rify-ommabop nashr*

**Masaru Ibuka**

**UCHGACHA AYNI VAQTI**

Nurmuhammad Nargiza Hamidulla qizi tarjimasi

**Muharrir:** Abdulla SHAROPOV

**Badiiy muharrir:** Bahridin BOZOROV

**Rassom:** Dilzoda HAMIDJONOVA

**Texnik muharrir:** Dilshod NAZAROV

**Sahifalovchi:** Inomjon O'SAROV

**Musahhih:** Mahfuza IMOMOVA

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 10.12.2020-y.

Bosishga ruxsat etildi: 07.01.2021-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108  $\frac{1}{32}$ .

Georgia garniturasi. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 13,9. Shartli b.t.: 12,6.

Adadi: 3000 nusxa.

Buyurtma № 7

«Akademnashr» nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.  
100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20<sup>A</sup>-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 216-87-81

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz



Masaru Ibuka

Men professional pedagog emasman, shuning uchun ham mutaxassis ko'rishi qiyin narsalarga e'tibor qarata olaman deb o'ylab tadqiqotimni davom ettirdim.

Yosh bolalar cheksiz imkoniyatlarga ega. Birinchi marotaba erta rivojlanish nazariyamni 1971-yili chop etilgan «Uchdan keyin kech» kitobimda taklif qilgan edim. Shundan so'ng miya to'g'risidagi fan va tibbiyot jadal rivojlandi, ular yosh bolalar haqiqatan ham ajoyib qobiliyatlarga egaligini tasdiqlamoqda. Bu orada men bir nechta kitob yozdim. Har safar yozgan kitoblarimda go'dak ta'llimi davri va mazmuni haqidagi qarashlarim o'zgarayotgandek tuyulishi mumkin. Lekin «bolaning shaxsiyati, fe'l-atvori tarbiyasiga bog'liq», degan nazariyam nafaqat o'zgarmadi, balki unga tobora ishonchim ortib boryapti. Bu boradagi fikrlarimni qo'lingizdagি kitobdan bilib olsangiz, mamnun bo'lar edim.

ISBN 978-9943-6502-1-3



9 789943 650213